

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**Raximov Z.T.**

# **Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi**

**(O'QUV-USLUBIY QO'LLANMA)**

**QARSHI – 2017**

**Taqrizchilar: QarDU dosenti, pedagogika fanlari nomzodi G.Eshmurodova**

QarMII dosenti, texnika fanlari nomzodi Z.Botirov

Mazkur qo'llanma Kasb ta'limi (qishloq xo'jaligini mexanizasiyalashtirish) bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalariga “Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi” fanidan kurs ishini bajarish bo'yicha yo'nalish berishga qaratilgan. Qo'llanmadan barcha kasb ta'limi yo'nalishlarining talabalari va qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Qo'llanma Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining o'quv-uslubiy kengashida muhokama etilib chop etishga va o'quv jarayoniga tadbqiq etishga tavsiya etildi.

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, 2017 y.

## **KIRISH**

O'zbekistonda ta'lim tizimini rivojlantirish istiqbolini belgilab beruvchi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” uzluksiz ta'lim tizimi oldiga umumiy hamda Maxsus madaniyatini yuksak, ijodiy va ijtimoiy jihatdan faol, jamiyat hayotida sodir bo'layotgan voqealarni tahlil eta oladigan, istiqbolli masalalarni hal etish qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash vazifalarini qo'ydi. Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tadbiq etish jarayonida o'qituvchining yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda jamiyat oldidagi javobgarligi yanada ortib boraveradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'lim-tarbiya sohasiga milliy didaktik nuqtai nazardan yondashib, uni quyidagicha ta'riflaydi: «Ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchanlik faoliyatini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning doimo tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi»<sup>1</sup>.

Demak, zamonaviy sharoitda ishlab chiqarish malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni ifodalovchi, uning qondirilishi uchun o'rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta'lim tizimiga buyurtma berishi, ushbu buyurtmani qondirish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim jarayonini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minotni yaratishdagi ishtiroki bilan o'quv muassasalari faoliyatini samarali tashkil etilishiga ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, barcha davrlarda ham o'qitish mazmuni, ta'lim tizimi ijtimoiy taraqqiyot bilan o'zaro muvofiqlikda rivojlanib kelgan. Ro'y bergan ijtimoiy o'zgarishlarning barchasi muayyan darajada ta'lim mazmunida o'z aksini topadi. Buni ilm-fan, texnika va texnologiya sohalarida ro'y bergan o'zgarishlarning o'qitish jarayoniga tatbiqi misolida ham ko'rish mumkin. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida asrlar davomida insoniyat tomonidan asoslangan ilmiy bilimlardan yosh avlodni xabardor etish maqsadida tizimli, izchil, uzluksiz va, albatta, maqsadga muvofiq ravishda pedagogik faoliyat olib boriladi. XX asrda texnika va texnologiya sohalarining jadal rivojlanishi esa ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy o'zgarishlar, ilm-fan, texnika va texnologiya yutuqlarini ta'lim mazmuniga singdirishda peshqadamlikka erishildi. Agarda ta'lim jarayonida o'tgan asrning 30-yillarida pedagogik texnika sifatida usul va vositalar qo'llanilgan bo'lsa, 50-yillarda ta'lim jarayonini texnik vositalar yordamida tashkil etish, 60-yillarda esa o'qitish ishlarini dasturlash an'anasi shakllandi[13].

Mustaqillik yillarida jamiyatda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining qaror topishi bilan bog'liq ravishda ishlab chiqarish jarayonida faoliyat yuritayotgan, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan kadrlarda nazariy bilimlarni amaliyotga bevosita, samarali tatbiq eta olish qobiliyatini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj shakllandi. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. T.: “O'zbekiston” 1992 yil 78-bet.

mutaxassislarning o'quv va ishlab chiqarish faolligiga ega bo'lishlari yuqorida qayd etilgan ehtiyojni qondirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, milliy dasturdan ko'zlangan maqsadlar juda ko'p. Avvalo, bu maqsad va vazifalarning to'la amalga oshishi mamalakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy muhitning o'zgarishiga olib keladi, jamiyatda yangi shaxs – komil insonlar vujudga keladi.

Xuddi shunday jamiyatimizning Milliy dasturda ko'zlangan maqsadlarga erishishi ta'lim-tarbiya tizimidagi ishlar samarasiga va avvalo, o'qituvchiga ham bog'liqdir. O'z davrining ro'hini chuqur anglagan, kelajakni ko'ra bilgan shaxslarni tarbiyalash o'qituvchi tarbiyachilarning bosh vazifasidir. O'qituvchiga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, turli xildagi ijtimoiy kuzatishlar, pedagogning individualligi, uning shu tariqa talablarga javob berishga sub'ektiv tayyorligi muayyan o'qituvchining pedagogik faoliyatiga naqadar tayyorligidan dalolat beradi.

O'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashiga erishmog'imiz darkor. O'qituvchining bosh vazifasi: o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. Ularda tafakkur qirralarini shakllantirish va rivojlantirish eng muhim ta'limiy tarbiyaviy ish bo'lib hisoblanadi.

Aynan ta'lim tizimi uchun o'quv dasturiy hujjatlashtirishning yangicha mazmunini yangicha samarali pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirgan, chuqur bilimlarga ega bo'lgan va har tomonlama rivojlangan pedagogik kadrlar zarurdir. Shunga ko'ra, hozirgi paytda ta'lim tizimi uchun pedagoglarning tayyorgarlik sifatiga nisbatan alohida talablar qo'yilmoqda.

Ta'lim tizimining mazmunini belgilab beruvchi asosiy me'yoriy hujjatlardan biri davlat ta'lim standarti (DTS) hisoblanadi. Ushbu qo'llanma ham – DTSlarining optimal mazmunini belgilash va o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim tizimining o'quv-uslubiy ta'minotida munosib o'rinni egallaydi.

## **I. KURS ISHLARI VA ULARNI TAYYORLASH METODIKASI**

### **1.1. Kurs ishining maqsadi, vazifasi va fandagi o'rni**

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning asosiy maqsadi – yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimini barpo etish strategiyasi hamda asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishdir.

Dasturda yuqori malakali muhandis – pedagog mutaxassisligini tayyorlashda akademik litsey va kasb – hunar kollejarining o'rni katta ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Talabalar o'qish jarayonida pedagogik fanlar bilan birgalikda maxsus fanlarni ham o'rganishadi, amaliyotlar o'tishadi. Natijada ularda dars o'tishni tashkillashtirish, o'quvchilar bilan muomalada bo'lish, kollej va akademik litseylarda tashkil qilinadigan tashkiliy ishlarni tashkillashtirish, o'qitishning texnik vositalaridan unumli foydalanishni bilishadi.

Talabalar “Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi” fanidan kurs ishini bajarishadi. Kurs ishi ushbu fanning nazariy kursi nihoyalangandan so'ng amalga oshiriladi. Kurs ishi mustaqil ishlar tarkibiga kirib, asosiy maqsadi – nazariy, amaliy, seminar darslarini o'tishda olgan bilim hamda uquvlarini mustahkamlashdir. Har bir talaba mustaqil ravishda kurs ishini bajarishi natijasida :

O'qish jarayonida olgan nazariy va amaliy bilimlarini boyitadi va mustahkamlaydi ;

O'qitish jarayoni pedagogik texnologiyalarini mustaqil ravishda amalga oshiradi ;

O'quv – uslubiy , pedagogik, iqtisodiy adabiyotlardan foydalanishni o'rganishadi ;

Pedagogik fikr hamda zakovatni rivojlantiradi.

Kurs ishi tematikasi mazmuni quyidagicha bo'lishi tavsiya etiladi.

1. Kasb – hunar kolleji sharoitida maxsus fanlar bo'yicha yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib bir mavzu yuzasidan nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tish metodikasini ishlab chiqish.
2. Kasb – hunar kollejarida metodik ishlarni tashkil etish.
3. Kasb – hunar kollejarida pedagogik amaliyotlarni o'tish metodikasini ishlab chiqish.
4. Kasb – hunar kollejarida o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib dars o'tish metodikasini ishlab chiqish.

Kurs ishini yozishga tavsiya etilgan mavzular, asosan, tadqiqot tavsifiga ega va u bozor iqtisodiyotiga o'tishda milliy modeldan kelib chiqib, ishlab chiqarish xususiyatlarini umumlashtrish va tahlil qilish asosida quriladi. Shuning bilan birgalikda mavzuni ishlab chiqishda bakalavrlar tayyorlash o'quv jarayonining umumiy strategiyasi e'tiborga olinadi.

Ish mavzusi dastlab kafedra tomonidan tavsiya etilgan, ish tajribasiga ega bo'lgan ilmiy rahbar tasdiqlanadi. Mavzuni asosan tanlashda alohida e'tibor an'anaviy texnologiyalarni takomillashtirishga bo'lgan ustuvor yo'nalishlarga, innovasion texnika va texnologiyalarga kam quvvatli korxonalarni loyihalashtirishga milliy mahsulotlar assortimentini kengaytirishga shuningdek talabalarni institutni tugatgandan keyingi ish faoliyatlari xususiyatiga qaratiladi.

Ish mavzusini aniqlashda institut tadqiqot laboratoriyalarida kerakli apparat va reaktivlarning mavjudligi informasion ta'limot darajasi e'tiborga olinadi.

Ish mavzusi talaba ta'lim olayotgan dastur yo'nalishiga mos kelishi lozim.

Ish mavzusi bo'yicha oxirgi qarorga kelgan talaba o'ziga tanlagan mavzusining biriktirilishi haqida so'rab fakultet dekani nomiga ariza beradi. Arizada ish mavzusining aniq shakli va to'liq nomi ko'rsatiladi va bitiruvchi kafedra mudiri bilan kelishilgan holda tanlanadi.

## **1.2. Talabaning tanlagan ishiga rahbarning biriktirishi masalasi**

Bitiruvchi kafedra mudiri bilan echiladi va mudir ish mavzusi va rahbarini tasdiqlash to'g'risida rektor nomiga qaror loyihasini tayyorlaydi. Ish mavzusi va ilmiy rahbari biriktirish to'g'risida qaror chiqqandan keyin mavzu nomini va rahbari o'zgartirish to'g'risidagi har qanday e'tiroz e'tiborga olinmaydi. Bitiruv malakaviy ishning mavzusi ustida ishlash ish mavzusiga oid bibliografik shaxrdan boshlash lozim. So'ngra ilmiy rahbar bilan birgalikda, tadqiqotning (hisoblash ishlarini bajarish) ni tayyorlashning ishchi rejasini tuziladi. O'qituvchi bilan dastlabki muhokama paytida yondashuvning to'g'riligi aniqlanadi, qo'yilgan vazifalarni echish yo'llarini izlash strategiyasi ishlab chiqiladi.

Dissertantning rahbar bilan maslahati davriy ravishda ilgari kelishilgan kun va soatda o'tkaziladi. Maslahat davrida tinglovchi tomonidan ishni tayyorlash rejasining bajarilishini borishi ko'rib chiqiladi va muhokama qilinadi. Muhokama esa talabani to'g'ri yo'lga yo'naltiradi, vaqtni to'g'ri olishga, ishni tezroq tayyorlashga va yozishga yordam beradi. Shunday qilib rahbar o'quvchiga ilmiy va uslubiy yordam ko'rsatadi, ishning bajarilishini davriy ravishda nazorat qiladi ma'lum tuzatishlar kiritadi, u yoki bu qarorning afzalligi haqida tavsiyalar va ishning butunlay tayyor bo'lganligi haqida xulosa beradi.

### **1.3. Kurs ishini bajarish tartibi**

Kirish qismi: “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning maqsad va vazifalari. Kasb – hunar kollejlarining malakali mutahassislar tayyorlashdagi o’rni. Respublikamizda ta’lim sohasini rivojlantirish haqidagi qonun va ko’rsatmalari. Kurs ishi mavzusining maqsadi.

#### ***Kurs ishi mavzusining metodik analizi***

Bunda quyidagi masalalar o’z yechimiga ega bo’lishi lozim:

- Kasb – hunar kollejlarida o’qitishning mohiyati.
- Ta’lim berish jarayonining mazmuni.
- Didaktik tamoillarni o’quv jarayonida qo’llash.
- Darsning tashkiliy shakillarini tanlash va asoslash.
- Dars, uning turlari va tuzilishi.
- O’qitish metodini tanlash va asoslash.
- Ta’lim metodlari.
- An’anaviy va noan’anaviy o’qitish metodlari.
- Ta’limning yangi pedagogik texnologiyalari.
- Ta’limning zamonaviy texnik vositalaridan foydalanish.

#### 1.4. Kurs ishi mavzularining ro'yxati

| <b>№</b> | <b>Mavzular nomi</b>                                                                          | <b>Tavsiya etilgan adabiyotlar</b> |
|----------|-----------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------|
| 1.       | O'zbekiston Respublikasida ta'limni rivojlantirishning yangi bosqichida kasb-ta'limi asoslari | 1, 2, 4, 5                         |
| 2.       | Kasb ta'limining zamonaviy tashkiliy shakllari                                                | 1, 2, 3, 5                         |
| 3.       | O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning milliy modeli va ta'lim uzluksizligi                     | 1, 2, 3, 4, 5                      |
| 4.       | O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi                                                          | 1, 2, 3, 4, 5                      |
| 5.       | Maxsus fanlarni o'qitish metodlari                                                            | 1, 3, 4, 5                         |
| 6.       | Uzluksiz ta'lim tizimida dars o'tish xususiyatlari                                            | 1, 3, 5                            |
| 7.       | Dars o'tishda qo'llaniladigan uslublar                                                        | 1, 3, 4, 5                         |
| 8.       | Kasbiy fanlarni o'rganishda qo'llaniladigan uslublar                                          | 2, 3, 4, 5                         |
| 9.       | O'quv jarayonida turli pedagogik uslublarni qo'llash                                          | 3, 4, 5                            |
| 10.      | Maxsus fanlarni o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish                   | 1, 3, 4, 5                         |
| 11.      | Ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari                                                            | 2, 3, 4, 5                         |
| 12.      | Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan metodlar va ularni tanlash mezonlari               | 1, 3, 4, 5                         |
| 13.      | Ta'lim jarayonida interaktiv metodlarni qo'llash                                              | 1, 3, 4, 5                         |
| 14.      | Ma'ruza va unga qo'yiladigan asosiy talablar                                                  | 1, 3, 4, 5                         |
| 15.      | Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish va uning o'quv jarayonida tutgan o'rni          | 1, 3, 4, 5                         |
| 16.      | O'quv jarayonida talabalar mustaqil ishini tashkil qilish                                     | 1, 3, 4, 5                         |
| 17.      | Talabalar bilimni nazorat qilish va baholash                                                  | 1, 3, 4, 5                         |
| 18.      | Texnik vositalar va ulardan o'quv jarayonida foydalish                                        | 1, 4, 5                            |
| 19.      | Ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi                                 | 1, 3, 4, 5                         |
| 20.      | Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish                                                       | 1, 3, 4, 5                         |
| 21.      | Modulli ta'lim texnologiyasi asosida maxsus fanlarni o'qitish                                 | 1, 4, 5                            |
| 22.      | Oliy ta'lim tizimida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va masofadan o'qitish    | 1, 3, 4, 5                         |
| 23.      | An'anaviy va noan'anaviy dars mashg'ulotlarini tashkil etish                                  | 1, 3, 4, 5                         |
| 24.      | Uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi                              | 1, 2, 3, 4, 5                      |
| 25.      | O'rta maxsus kasb-hunar ta'limining mazmuni                                                   | 1, 2, 3, 4, 5                      |

### **1.5. Kurs ishini rasmiylashtirish bo'yicha talabalar**

Kurs loyihasining maqsadi talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan nazariy bilimlarini qo'llashda amaliy ko'nikmalar hosil qilish, bevosita ishlab chiqarishdagi real sharoitlarga mos texnik echimlar qabul qilish va zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini hosil qilishdir.

Kurs ishini yozish va himoya qilish jarayonida talabalar "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" fanini yanada chuquriroq o'rganadilar.

Kurs ishining fanni mustaqil o'rganishdagi ahamiyati shundaki talabalar adabiyotlar bilan ishlashni, ma'lumotlar to'plashni, ularni jadval, diagrammalarini tasvirlash, huloa chiqarish hamda o'rganilgan masala yuzasidan o'z fikr va mulohazalarini bayon qilishga o'rganadilar.

Kurs ishi talabalar tomonidan erkin tanlanadi. Uning hajmi 25 – 30 bet (standart yozuv qog'ozi bo'yicha) mo'ljallanadi . Bu mavzuni har tomonlama chuqur o'rgani o'z qobiliyatini, fanni o'zlashtirishdagi harakatini, intilishini ifodalash imkonini beradi.

### **1.6. Kurs ishini himoya qilish**

Belgilangan tadbirda rasmiylashtirilgan kurs ishi talaba tomonidan raxbarga taqdim etiladi. Raxbar kurs ishi talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirganidan so'ng himoya qilishga ruxsat beradi. Kafedra mudiri kurs ishini himoyasi uchun komissiya tashkil qiladi. Kurs ishi muallif tomonidan kafedra professor – o'qituvchilaridan tashkil topgan komissiya oldida himoya qiladi. Kurs ishi himoyasi uchun 10....15 minut vaqt beriladi. Keyin talaba qo'shimcha savollarga javob beradi. Kurs ishini baholash komissiyasining qarori bilan qabul qilinadi. Kurs ishi balli tizim asosida baholanadi va 55 balldan (55.0 %) yuqori ball olgan talabalar kurs ishini muvaffaqiyatli himoya qilgan deb hisoblanadi.

## **II. “MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI” FANIDAN KURS ISHLARINI BAJARISHGA OID NAZARIY MA'LUMOTLAR**

### **2.1. «Maxsus fanlarini o'qitish metodikasi» fanining maqsad va vazifalari**

Respublikamizda ta'lim soxasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar o'sib kelayotgan yosh avlodda intellektual qobiliyatlar va kasbiy bilimlarni rivojlantirishni ko'zda tutadi. Bundan kelib chikkan holda “Maxsus fanlarini o'qitish metodikasi” fanining maqsadi bo'lajak mutaxassislarning ixtisoslik fanlaridan ta'lim berish metodikasi, oliy ta'lim tizimida o'qitish shakllari hamda o'qitishning ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalariga oid bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

“Maxsus fanlarini o'qitish metodikasi” fani "Pedagogika" fanining tarmog'i sifatida quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishga qaratiladi:

- Kasbiy ta'lim vazifalarini asoslash, uning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatini ochib berish;
- O'quv material mazmunini asoslash;
- Oliy ta'lim tizimida ta'lim jarayonini tashkil etish;
- Bo'lajak mutaxassislarda kasbiy bilimlarni shakllantirishning pedagogik va axborot texnologiyasini asoslash.

Mazkur fan Maxsus fanlarini o'qitish metodlariga bag'ishlangan bo'lib, u talabalarga tanlangan soha bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashga oid chuqur nazariy bilimlar berishga yo'naltirilgan. Shu bilan birgalikda fanning mazmunida o'qitish usullariga oid umumiy ma'lumotlar, ta'lim jarayonining tashkiliy-pedagogik sharoitlariga ham e'tibor qaratilgan.

Talaba o'zining kasbiy faoliyatida ilmiy tajriba va ishlab chikarishni boshqarishga oid bilim va ko'nikmalarni to'laqonli o'zlashtirgan bo'lishi bilan birga ilmiy-pedagogik izlanishlar olib borish qobiliyatlariga ham ega bo'lishi lozim.

Talaba ilmiy-pedagogik yo'nalishda ish olib borishi uchun Pedagogika-psixologiya fanlarini va Maxsus fanlarini o'qitish metodikasini bilishi zarur.

Talaba ilmiy-pedagogik ijodiyot metodologiyasini, o'qituvchi kasbiga oid pedagogik va kommunikativ qobiliyatlarni, pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratni, ishchi o'quv dasturi va o'quv rejalari tuzishni, fan bo'yicha talabalar bilimini baholashning reyting tizimini bilishi lozim.

Maxsus fanlarini o'qitish metodikasi fanini o'zlashtirgan talaba: o'qitishning didaktik qonunlari va tamoyillarini, ta'lim-tarbiya berishning nazariyasi va amaliyotini. o'qitishning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini, ta'lim jarayonini tashkil etishning turli usul va shakllarini, jumladan ma'ruza o'qishni. amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishni, talabalar mustaqil bilim olishlarini tashkil etishni, malakaviy bitiruv ishlariga rahbarlik qilishni,

ta'lim jarayonida o'qitishning texnik vositalari va axborot texnologiyalarini ko'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Maxsus fanlarini o'qitish metodikasi faninn o'rganish jarayonida muammoli ma'ruzalar o'tkazish, interfaol metodlar, pedagogik strategiyalardan foydalaniladi.

Kelajakka erishish uchun avvalambor, malakali, zamon talablariga javob beradigan mutaxassis kadrlar tayyorlash zarur.

Bilimdon mutaxassislarni tayyorlash esa har jihatdan ustozlarga, ularni o'qitish jarayonini to'g'ri tashkil etilishiga va qanday dars berishga bog'liq. Hozirgi kunda o'quv jarayonini tashkil qilish o'qituvchidan chuqur bilimlagina emas, balki pedagogik mahoratga ega bo'lishni dars o'tishning turli metodlarini bilishni talab qiladi.

Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanining maqsadi maxsus fanlarni o'qitish va o'rganish metodlari bilan tanishtirish ularni dars jarayonida qo'llash yo'llarini o'rgatishdan iboratdir. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanining predmeti bu dars berish jarayonining o'zidir. Metod atamasi yunoncha metodos (metodos) – tadqiqot yoki bilish yo'li, nazariya, ta'limot so'zidan kelib chiqqan bo'lib, tadqiqot yo'li, haqiqatga intilish, bilish, harakat qilish yo'llari, kutilayotgan natijaga erishish ma'nosini anglatadi.

Metod deganda voqelikni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish usullari tushuniladi. Metodik deganda ilmiy bilish faoliyatining shakllari va metodlari majmui haqidagi fan tushuniladi. Bu nazariy jihatdan qo'yilgan maqsadga etish, haqiqatni, reallikni, faoliyatni nazariy va amaliy bilish, o'rganishning usullari yoki operasiyalari majmuidir.

O'qitish metodikasi tushunchasi:

1) pedagogikaning o'qitish usullari va o'quvchining o'qish usullari hamda o'qituvchining o'quvchi bilan o'zaro bog'langanligi.

2) o'qitishdan ko'zlangan maqsadga erishish bo'yicha hamkorlikda ishlashning o'ziga xosligi, ya'ni o'qitish metodlari belgilagan maqsadga etishish uchun ta'lim vazifalarini hal etishda o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati.

Ta'lim metodlari bir tomondan ob'ektiv xarakterga ega, ya'ni mustahkam qonun qoidalariga tayanadi, ikkinchi tomondan sub'ektiv xarakterga ega, ya'ni u pedagog shaxsi, o'quvchi-talabaning o'ziga xos tomonlari, aniq sharoit bilan belgilanadi.

Metodika qisqacha qilib, aytganda, ma'lum bir fanni o'rganish, o'qitish metodlari to'g'risidagi ta'limot, ya'ni metodika – bu dars o'tishda o'qituvchiga qo'yiladigan talablarni realizatsiya qilishni amalga oshirishdagi turli metodlarni majmuasidir. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanining maqsadi kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabarni fanni o'rganishda qo'llaniladigan an'anaviy va interaktiv metodlar bilan tanishtirish va kelajakda o'z faoliyatlarida qo'llashni o'rgatishdir. Metodika o'quv jarayonini tashkil qilish shakllari,

metodlari, qonun qoidalarini o'rganadi, u bir tomondan fanda erishilgan yutuqlar, ikkinchi tomondan pedagogika fanining rivojlanishi bilan boyib boradi.

## **2.2. O'zbekistonda kasb ta'limining istiqbollari**

Istiqbolga erishgan mamlakatimizda yuz berayotgan o'zgarishlar ta'lim tizimi mazmunini davr nuqtai nazaridan yangilashni taqazo etmoqda. Bunday yangilanish O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risidagi qonun” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida amalga oshirilmoqda.

Jumladan, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida shakllantirilayotgan uzluksiz ta'lim tizimida kasb ta'limiga alohida o'rin berilishi natijasi sifatida kasb-hunar kollejlari va liseylarini tizimi shakllandi. Kasbiy pedagogika jahon miqyosida tan olingan eng ilg'or metodlar va yo'nalishlar bilan boyib bormoqda. Bugungi kunda o'zining keng tadbirini kutib yotgan, fanning boshqa sohalari bilan bog'liq ravishda ishlab chiqilgan yangi konsepsiyalar va nazariyalar rivojlantirilmoqda.

Kasbiy ta'lim uzoq davrlar mobaynida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirib boradi, biroq ushbu tadbir bitiruvchilarning kasbiy mahoratini shakllanish darajasini pasayishi hisobiga amalga oshirildi. Bu holat kasbiy mahoratni va layoqatni oshirish, insonning butun umri davomida o'zi bilimini takomillashtirib borish va o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojini oshirishga xizmat qilmas edi. Respublikamiz ta'lim tizimidagi islohatlar natijasida kasbiy ta'lim ishchi kasblariga maxsus tayyorlash masalasiga, ta'lim oluvchi shaxsida kasbiy mahorat va layoqat sifatlarini shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Kasbiy mahorat deyilganda bitiruvchining yuqori darajadagi kasbiy ko'nikma va malakalarini egallaganligi tushuniladi, u shaxsning mehnat bozorida egallayotgan kasbi bo'yicha raqobatbardoshlik darajasida o'z aksini topadi. Kasbiy mahorat ishchi kuchlarning yuqori darajada moslashuvchanligini va yangiliklarni tez o'zlashtirishi, ya'ni ishlab chiqarish sharoitlariga oz vaqt ichida o'ta olishi, faoliyat sohasini mustaqil tanlay olishi kabi sifatlar bilan belgilanadi.

Kasbiy mahorat va layoqat shaxsning shunday sifatlariki, ular bo'lajak mutaxassisning hayoti va mehnat muvaffaqiyatlarini belgilab beradi.

Mustaqil Respublikamizda ta'limni rivojlantirishning yangi bosqichida kasbiy pedagogika fanining asosiy vazifasi sifatida jahon talablari darajasida yangilanib borayotgan ishlab chiqarish sharoitlariga moslasha oladigan, iqtisodiyotimizni buyuk davlat darajasiga ko'taradigan mutaxassislarni tayyorlash va bu jarayonda asosiy omil sifatida beriladigan axborotlar hajmini emas, balki ijodiy yondashuvni tarbiyalashga e'tibor qaratish lozim. Shu sababli bugungi kunda barcha fan sohalari bo'yicha, jumladan kasb ta'limiga oid darsliklar, o'quv qo'llanma va tavsiyalarning yangi avlodini yaratish muhim

ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bu o'rinda kasb ta'limiga bo'lgan e'tiborning ortib borayotganligini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

Ta'lim islohatlari natijasida lisey, kollej va boshqa shu turdagi yangi turdagi o'quv muassasalarining shakllantirilishi va rivojlanishi;

Oliy o'quv yurtlarida kasb ta'limini tashkil qilish alohida bo'lim fakultetlarning tashkil etilishi;

kasbiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan yanada jipsroq bog'lanib borishi, istiqbolda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan, bilim sohalari tutashuvda yangi konsepsiya va nazariyalarning yuzaga kelishi;

kasb ta'lim muassasalarining aholiga ta'lim xizmatlarini ko'rsatish turlarining ortib borishi, o'z bazasida tayyor mahsulot ishlab chiqarish va ung xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yishi, mehnatni tashkil qilishning ilg'or shakllarini joriy etish va boshqalar.

Kasbiy pedagogika umumiy pedagogika fanining tarmog'i sifatida kasbiy-texnik ta'lim tizimning takomillanish jarayonida shakllanib boradi. U nisbatan yangi fan sohasi sanalib, bugungi kunda ko'plab tushunchalari shaklanib, rivojlanib kelmoqda. Har qanday fan sohasida bo'lgani kabi kasbiy pedagogika o'z kategoriyalari va tushunchalariga, sifat ko'rsatkichlariga egaki, bular fanning asosini tashkil qiladi.

Kasbiy pedagogikaning asosiy tushunchalari:

- o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish;
- faol-ilg'or shaxsni tarbiyalash;
- pedagogik bilimlarni egallashga yangicha yondoshuvlarni ishlab chiqarish;
- ta'lim va tarbiyaning yangi, yanada samarali shakl va metodlarini ishlab chiqarish;
- rivojlanib boruvchi pedagogik jarayonlarni loyihalash, kasbiy mahoratni egallash uchun sarflanadigan vaqtni qisqartirishga erishish.

Rivojlanishning ilk bosqichlaridayoq pedagogik faoliyat o'z o'rnini topib oldi. Bugunga kelib ilm va fan, ishlab chiqarishning o'zaro bog'liqligi hamda malakali pedagogika bu sohalarda o'zining ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Buni yana ham samarali shakllantirish uchun pedagogik qonuniyatlarni bilishimiz kerak. Ular quyidagilardan iborat:

**1.Ishlab chiqarish turiga qarab ishchilarni shu sohaga tayyorlash.** Ishlab chiqarish turiga qarab o'qitish dasturlari uchta katta guruhlariga bo'linadi: a) yakka holda; b) guruhlab; v) ommaviy. Ularga alohida-alohida to'xtalamiz.

Yakka holda ishlab chiqarish – o'z xarakteriga ko'ra o'zining afzalliklariga ega bo'lib mahsulotga qo'yiladigan turli talablarni aniq bajarish imkonini beradi. Ishlab chiqarishning bu turi mutaxassisdan o'lchov asboblardan to'g'ri foydalanishni talab qiladigan.

Guruhlab – bu tur chiqariladigan mahsulot donalab emas, balki qism-qism qilib ishlab chiqarishga mo'ljallangan bo'ladi. Har bir ishlab chiqilgan mahsulot turi bir nomda va bir xil o'lchamlarda bo'ladi.

Ommaviy – ishlab chiqarish va ularning ish joylarida tinimsiz ravishda qaytarilishi bilan bu operasiyalar ish joyida xarakterlanadi.

**2.Ishlab chiqarish jarayonida mexanizasiyalash bilim darajasi.** Qisqa tarixiy davr ichida avtomatlashtirishning rivojlanish bosqichlarini ko'rishimiz mumkin.

1-bosqichda butunlay avtomatlashtirish, maxsus yoki universal uskunalar ish jarayoni.

2-bosqichda moslamalar transportlar orasida o'zaro bog'liqlikni hosil qilish.

3-bosqichda ishlab chiqarayotgan mahsulot sifatini va o'lchamlarini nazorat qilish uchun maxsus o'lchovchi va mexanik boshqaruvchi.

4-bosqichda dasturlashtirilgan boshqaruv avtomatik qurilmalari. Ular o'z-o'zini sozlash xususiyatiga ega

5-bosqichda Ish jarayonida ishchilarni vazifasi hisob-kitob va boshqarib borish hamda nazorat qilishdir.

**3.Texnologik bilimlarni uzluksizligi.** Texnologik jarayonning uzluksizligi ish shakllarining uzluksizligiga bog'liq. Buning uchun texnologik jarayonlarni chuqur tahlil qilish kerak.

**4.Ishlab chiqarish korxonalarining ish sharoitini o'rganish.** Bu erda avvalo korxonaning ichki sharoiti va asosiy kasblarini o'rganish.

**5.Ishlab chiqaruvchi uskunalarini va ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan ish qurollarini bilish.** Bu albatta ishchining shaxsiy bilim va malakasiga bog'liq.

**6.Malakaviy texnik bilimlar mazmunini mintaqa ko'rinishida.** Malakaviy o'qitish ikki turga bo'lib o'qitishni talab etadi:

Asosiy ( uzoq yilga mo'ljallangan).

Dinamik ( maxsus muddatga mo'ljallangan).

Shuning uchun ta'lim turini ajratib olish muhimdir. Mintaqalarda o'quv materiallari mezonlarini ajratish quyidagicha bo'ladi: a) komponentli; b) turli materiallar; v) turli murakkablikda; g) mahsulot birligi; d) texnologik tomoni; e) xavfsizlik.

**7.O'quvchilarda umumta'lim va malakaviylikni o'zaro bog'liqlik asosi.** Hozirgi vaqtda pedagogik ilmda nazariy uch ko'rinishdagi o'zaro bog'liqlik ilgari surilmoqda:

1-ko'rinishdagi o'zaro bog'liqlik. Bir ob'ektni turli xil fanlarda o'rganish.

2-ko'rinishdagi o'zaro bog'liqlik. Bir ilmiy metodni turli xil o'quv fanlarida o'rganish.

3-ko'rinishdagi o'zaro bog'liqlik. Bir qonunni turli fanlarda isbotini topish.

Keng malakali ishchi-mutaxassisni modeli quyidagi ko'rinishda tuzilishi mumkin:

Prognoztik – oldindan bilish va ish rivojini xarakterlash. bu maqsadda maxsus ruxsat etilgan va tasdiqlangan hujjatlarni keng foydalaniladi.

Malakaviy – texnik mazmuniga qo'yiladigan talablar. Ishchilarni malakaviy tayyorlashda ishlab chiqilgan talab va mazmun.

Oldindan shakllangan ma'lumotlar modelda qayd qilinib ilmiy tanlangan holda ishchini malakasini oshirishga imkon beradi.

Kasbiy pedagogikaning qonun-qoidalarini yaxshi o'zlashtirish kasbiy o'qishning ayrim metodologik muammolarini hal qilishni engillashtiradi.

Istiklolga erishgan mamlakatimizda yuz berayotgan tub o'zgarishlar ta'limi tizimi mazmunini davr nuktai nazaridan yangilashni takazo etmoqda. Bunday yangilanish O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Konuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida amalga oshirilmokda .

Jumladan, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida shakllantirilayotgan uzluksiz ta'lim tizimida kasb ta'limiga alohida o'rin berilishi natijasi sifatida kasb-hunar kollejlari va liseylarining tizimi shakllandi.

Kasbiy pedagogika jaxon miqyosida tan olingan eng ilg'or metodlar va yo'nalishlar bilan boyib bormokda. Bugungi kunda o'zining keng tadbirini kutib yotgan, fanning boshqa sohalari bilan bog'lik ravishda ishlab chiqilgan yangi konsepsiyalar va nazariyalar rivojlantirilmokda.

Kasbiy ta'lim uzok davrlar mobaynida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirib borildi, biroq ushbu tadbir bitiruvchilarning kasbiy mahoratini shakllanish darajasini pasayishi hisobiga amalga oshirildi. Bu xolat kasbiy mahoratni va layoqatni oshirish, insonning butun umri davomida o'zi bilimini takomillashtirib borish va o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojini oshirishga xizmat qilmas edi. Respublikamiz ta'lim tizimidagi islohotlar natijasida kasbiy ta'lim ishchi kasblariga maxsus tayorlash masalasiga, talim oluvchi shaxsida kasbiy mahorat va layokat sifatlarini shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Kasbiy mahorat deyilganda bitiruvchining yuqori darajadagi kasbiy ko'nikma va malakalarini egallaganligi tushuniladi, u shaxsning mehnat bozorida egalayotgan kasbi bo'yicha raqobatbardoshlik darajasida o'z aksini topadi. Kasbiy mahorat ishchi kuchlarining yukori darajada moslashuvchanligini va yangiliklarni tez o'zlashtirishi, yangi ishlab chikarish sharoitlariga oz vaqt ichida o'ta olishi, faoliyat sohasini mustakil tanlay olishi kasbiy sifatlar bilan belgilanadi.

Kasbiy mahorat va layoqat shaxsning shunday sifatlariki, ular bo'lajak mutaxassisning hayotiy va mehnat muvvafoqiyatlarini belgilab beradi. Mustaqil Respublikamizda ta'limni rivojlantirishning yangi bosqichida kasbiy pedagogika fanining asosi vazifasi sifatida jahon talablari darajasida yangilanib borayotgan ishlab chikarish sharoitlariga moslasha oladigan, iktisodiyotimizni buyuk davlat darajasiga ko'taradigan mutaxassislarni tayyorlash, va bu jarayonda asosiy omil sifatida beriladigan axborotlar hajmini emas, balki ijodiy yondashuv shakllantirish, mustaqil fikrlash va tadbir qilish sifatlarini tarbiyalashga e'tibor qaratish lozim. Shu sababli bugungi kunda barcha fan sohalari bo'yicha, jumladan kasb ta'limiga oid darsliklar, o'quv qo'llanma va tavsiyalarning yangi avlodini yaratish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bu o'rinda kasb ta'limiga bo'lgan e'tiborning ortib borayotganligini quyidagilar bilan izoxlash mumkin:

Ta'lim islohotlari natijasida lisey, kollej va boshqa turdagi yangi turdagi o'quv muassasalarining shakllantirilishi va rivojlantirilishi;

Oliy o'quv yurtlarida kasb ta'limi tashkil qilish, alohida bo'lim va fakultetlarning tashkil etilishi;

Kasbiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan yanada jipsrok bog'lanib borishi, istiqbolda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan, bilim sohalari tutashuvida yangi konsepsiya va nazariyalarning yuzaga kelishi;

Kasbiy ta'lim muassasalarining aholiga ta'lim xizmatlarini ko'rsatish turlarining ortib borishi, o'z bazasida tayyor maxsulot ishlab chiqarish va unga xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yishi; mehnatni tashkil qilishning ilg'or shakllarining joriy etishi va boshqalar.

Kasbiy pedagogika talabalarining ta'limi, tarbiyasi, o'qishi hamda rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi, ta'lim va tarbiya, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash mezonlarini ishlab chiqadi, kasb ta'limi muassasalari turlarini va ularni boshqarish tizimini asoslaydi. U pedagogik nazariyalar to'g'risidagi bilimlarini, innovasion texnologiyalarni loyihalash uslublarini umumlashtiradi. Kasbiy pedagogika fani insonni kasbiy faoliyatga tayyorlash, yangi avlodni kasbiy tarbiyalash, malakali ishchi kuchini yangi talablar darajasiga moslab borishni ko'zda tutadi.

O'quv reja ta'limining mazmuni va umumiy shartlari (hajmi, fanlarni o'rganish ketma-ketligi)ni belgilaydi. Bu hujjat mazmunida ta'lim muddati, ta'limning tuzilishi va tartibi, o'rganiladigan fanlar ro'yxati ketma-ketligi har bir predmetga ajratilgan soatlar soni ko'rsatiladi. O'quv ishlarini rejalashtirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

O'quv dasturi - ta'limining aniq mazmuni mazkur fanning hajmi va o'rganish tizimini belgilaydi. Bu hujjat mazmunida fan, bo'lim, mavzular bo'yicha ko'nikmalar mahoratlarining mazmuni va hajmi, fanlar o'rganish ketma-ketligi, har bir mavzuni o'rganishga ajratilgan vaqt, mazkur fan bo'yicha rejalar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati ko'rsatiladi.

Bu boshqaruvchi hujjat bo'lib, u pedagogik va ta'lim oluvchilar tomonidan bajarilishi shart.

Endi mutaxassis tayyorlash uchun o'quv rejasining tizimi va mazmuniga to'xtalsak.

O'quv rejasini ishlab chiqishda mutaxassisni tayyorlash mazmuniga quyidagi barcha talablarni inobatga olish kerak. Asosiy tamoyillardan biri o'quv fanlarini to'g'ri taqsimlash, o'tiladigan fanlar ro'yxati va o'quv materiallarini hajmi, ularni o'rganish uchun ajratiladigan soatni ko'rsatishdir. Mutaxassisni tayyorlashda asosiy ikkita bosqichga e'tibor berish kerak:

Birinchisi - umumta'lim va umumkasbiy fanlarni o'rganish asosida umumiy tarmoqni tayyorlash. Bu vazifani bajarishda o'quvchilarda umumtarmokli kasbiy bilim va mahoratlarni, shuningdek bu ishlarga ilmiy soatlariga doir bilimlarni shakllantirishdir.

Ikkinchisi - maxsus, uning vazifasi o'quvchilarga tanlagan mutaxassisligi bo'yicha bilim va malakalarni maxsus fanlarni o'rganish va ishlab chiqarish asosida qurollantirishdir.

Bu vazifalarni bajarish uchun mutaxasis tayyorlash uchun o'quv reja o'z ichiga umumta'lim, umumkasbiy va maxsus bilimlarni olishi lozim. Bundan tashqari fanlar turkumida umumiy siyosiy, iqtisodiy, jismoniy tarbiyalash, estetik tarbiyaga oid fanlar xam o'rinlidir.

Fan turkumlarining mikdoriy tartibi. Ta'limdagi o'rnini bir-biriga bo'lgan munosabatlaridan, shuningdek o'quv maskani oldida turgan vazifalardan kelib chiqadi.

Zamonaviy sharoitda malakali mutaxasis tayyorlashda ishlab chikarishning ilmiy asoslarini o'rganishga katta e'tibor berish kerak. Ayniksa ishlab chikarishga oid bo'lgan umumiy umumtexnologiyani ham o'rganishga chuqur tushunishga ko'maklashuviga olib kelishi zarur.

O'quv reja va dasturlarni tuzishda metodga asoslanib maksadga muvofiqdir. Bunda o'quv jarayon umumiydan shaxsiyga qarab yo'nalgan bo'lib, bunda ishlab chikarishning texnologik asoslarini o'rganishdan - maxsus bilim, ko'nikma va malakalarni jamlashga, ma'lum mehnat va o'rganishga o'tish demakdir.

Bunday vaziyatdan ta'limning natijasi - malakasi mutaxasis tayyorlash jarayoni bu va moddiy yoki loyiq xarajatlar kamligi bilan ifodalanadi.

### **2.3. Ta'lim jarayonining mazmuni. uni tashkil qilish**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim sistemasini isloh qilish bo'yicha quyidagi me'yoriy hujjatlar qabul qilingan: «Ta'lim to'g'risida» (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasi. 29. 08. 97y). «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi to'g'risida» (O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi IX sessiyasi. 29. 08. 97y). «Mukammal avlodni tarbiyalashda kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimini isloh qilish» to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 6. 10. 1997y.

Oliy ta'lim 2 ta bosqichga ega: bakalavr va magistratura. O'zbekiston Respublikasida Oliy ta'limning quyidagi ta'lim muassasalari tiplari o'rnatilgan: universitet, akademiya, institut. Ta'lim shakli: kunduzgi (masofali o'qitish).

Masofali o'qitish – oliy ta'limning o'quv-professional dasturini asosiy faoliyatdan ajralmagan holda ta'lim muassasi bilan masofadan turgan holda o'zlashtirish. U zamonaviy informasion texnologiyalarni va telekommunikasiyaning texnik vositalarini qo'llashga asoslanadi.

#### ***Ta'lim sferasidagi isloh tamoyili- bosqichiylik:***

1 bosqich - 1997-2001y. o'tish bosqichi - kadrlar tayyorlash sistemasining salohiyatini saqlash lozim, uning rivojlanishi uchun xuquqiy, ilmiy-uslubiy, moddiy-material sharoitlarni yaratish.

2 bosqich - 2001-2005y. Sistema faoliyatining samaradorligidan kelib chiqqan holda va mehnat bozorini, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni va

hokazolarni e'tiborga olgan holda Milliy dasturni keng masshtabda to'liq amalga oshirish.

3 bosqich - 2005 yildan boshlab kadrlar tayyorlash tizimida yig'ilgan tajribalarni tahlil qilish va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitdan kelib chiqqan holda rivojlantirish va takomillashtirish. Milliy-(elitali) oliy ta'lim muassasalarini tiklash va rivojlantirish, professional ta'lim muassasalarida o'z-o'zini boshqarish va mustaqillik shakllarini mustahkamlash. Ta'lim jarayonini informasiyalashuvini ta'minlash, uzluksiz ta'lim sistemasini jahon informasion tarmog'lariga chiqish imkoniga ega bo'lgan kompyuterli informasion tarmoqlar bilan to'la qamrab olish.

Kadrlar tayyorlashning «milliy modeli»

Asosiy komponentlar:

- shaxs – kadrlar tayyorlash sistemasining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim xizmatining istemolchisi va ishlab chiqaruvchisi;
- uzluksiz ta'lim – malakaviy kadrlarni tayyorlashning asosi;
- fan – yuqori malakali mutaxassislarni ishlab chiqaruvchi va iste'molchi ilg'or pedagogik va informasion texnologiyalarni ishlab chiquvchi;
- ishlab chiqarish – kadrlarning asosiy buyurtmachisi, kadrlar tayyorlash sistemasini moddiy-texnik ta'minlashga va moliyalashga qatnashuvchi.

Uzluksiz ta'lim yaratish va rivojlantirishning tamoyillari

- Ta'limning ustuvorligi (bilim, ta'lim, intellektning ilg'orligi).
- Ta'limning demokratizasiyalashuvi- ta'lim va tarbiya usullarini tanlashda ta'lim muassasalari mustaqilligining kengayishi.
- Gumanizasiya- inson qobiliyatining ochilishi va rivojlanishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligini ta'minlash.
- Milliy yo'naltirma- milliy tarix, an'ana, udum, madaniyat bilan yakdillik.
- Ta'lim va tarbiyaning ajralmasligi;
- Iqtidorli yoshlarning shakllanishi va ta'limning eng yuqori darajasida bilim olish uchun sharoit yaratish.

Uzluksiz ta'limni isloh qilishga yo'llanma:

- ta'lim sistemasidagi kadrlar tarkibini yaxshilash, tizim xodimlarining ilg'orligini oshirish;
- turli xil davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish;
- ta'lim tizimini tubdan qayta qurish;
- o'rta umum va o'rta maxsus ta'limga majburiy o'tish;
- fan va ishlab chiqarishning integrallashgan maxsus, professional markazi shaklidagi yangi tipdagi o'quv muassasalarini yaratish;
- yangi kasb va Maxsuslar;
- o'quvchilarning ma'naviy va ma'rifiy sifatlarini rivojlantirish;

- boshqaruvning demokratizasiyalashuvi;
- oila, ota-ona, jamoat tashkilotlari, mahalla, muruvvat va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish;
- ta'lim jarayoni sifatini ob'ektiv baholash;
- fanning ishlab chiqarishdagi integrasiyasi;
- xalqaro hamkorlikning kengayishi;
- ijtimoiy- xuquqiy himoya;
- kam sonli millatlarning o'z ona tilida ta'lim olishi uchun sharoit yaratish.

Kadrlar tayyorlash tizimining rivojlanishidagi asosiy yo'nalishlar:

- ta'limning uzluksizligi;
- kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- ta'lim jarayonining mazmunini isloh qilish;
- ma'rifiy- ma'naviy tarbiya va tashviqot ishlari;
- iqtidorli yoshlar;
- ta'lim tizimini boshqaruv;
- professional ta'limni nazorat qilish sistemasini shakllantirish;
- material- texnik ta'minlash;
- ta'lim tizimida informasion maydonni yaratish;
- ta'lim xizmati bozorining rivojlanishi;
- ta'lim sferasida ijtimoiy kafolat va davlat himoyasini ta'minlash;
- fanning ta'lim jarayoni bilan bog'liqlik shaklini rivojlantirish;
- ishlab chiqarish integrasiyasi va ta'lim tizimining rivojlanishi;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimida xalqaro hamkorlik.

Oliy ta'lim muassasida o'qitishning mazmunini aniqlovchi asosiy hujjat-o'quv rejasi va dastur hisoblanadi.

O'quv rejasi - bu davlat hujjati bo'lib, mazkur o'quv muassasida o'quv – tarbiyaviy jarayonning mazmunini, hajmini, turini, ketma-ketligini, davrini va muddatini aniqlab beradi. Bu hujjatda ko'rsatilgan o'quv fanining ro'yxati, ularni o'rganish ketma-ketligi, soatlar miqdori, maslahat va imtihonlar, shuningdek imtihonlar ro'yxati har bir guruh uchun majburiy hisoblanadi va uni O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi ruxsatisiz o'zgartirib bo'lmaydi.

O'quv rejasi o'ziga umumta'lim va professional- texnik ta'lim zanjirini biriktiradi va bu fanlar bo'yicha fan tartibi, haftadagi soatlar miqdori, ta'lim davri keltiriladi. Barcha bu tavsiflar soatlar setkasida namoyon bo'ladi.

O'quv soatlari taqsimoti – o'qitiladigan o'quv predmetining zanjirlar bo'yicha ro'yxatini va o'quv yuklamasining haftadagi, yarim yillikdagi, o'quv yilidagi va butun ta'lim davridagi muddatining soatlardagi qiymatini o'rnatadi.

Umumlashtirilgan mavzular rejasi – ishlab chiqarish mavzusini va o'quv yili strukturasi (o'quv mashg'ulotlar, imtihonlar, ta'til va h. k. ) ni muvofiqlashtiradi.

Fanlarning o'quv dasturlari – bu davlat hujjati bo'lib, nazariy va ishlab chiqarish ta'limining mavzularini o'rganishda mazmunini, majburiy hajmini, ketma-ketligini aniqlab beradi. O'quv dasturi har bir o'quv rejasi uchun ishlab chiqiladi.

Darslik – ma'lum soha bo'yicha o'quv hujjatlari asosida tuziladi. Unda ma'lum predmet bo'yicha ilmiy bilimlar asosi bayon qilinadi.

O'quv qo'llanma – bosma, grafikaviy tasviriy va boshqa materiallardan iborat bo'lib, ta'lim va tarbiya maqsadini amalga oshirish uchun mo'ljallanadi. O'quv qo'llanmasining namunalari varianti (yoki uning qismi) quyidagilarni ko'zda tutadi;

- kirish (qo'llanmaning ma'lum nomlanishi, uning bo'limi, qismi, mavzusi ko'rsatilgan holda vazifani qo'yish);
- bayon etish (topshiriqni echish jarayoni, isbot yo'llari, muhokama va boshqalar);
- xulosa (qo'yilgan topshiriqni echishning tizimlashgan va argumentlangan natijasi).

O'quv jarayoni ta'limning oxirgi natijalariga erishish maqsadida o'qituvchi va o'quvchining maqsadli faoliyati

O'quv jarayoni – o'zaro bog'langan elementlardan tashkil topgan murakkab pedagogik sistemani: maqsadi, mazmunini, shakli, uslubi va o'qitish vositalarini namoyon qiladi. O'qitishning psixologik – pedagogik qonunchiligiga bo'ysunadi, ta'limning didaktik tamoyillariga qat'iy rioya qilishni talab qiladi.

## **2.4. Maxsus fanlarni o'qitish metodlari.**

O'quv ma'lumotlarini etkazib berishdan oldin o'qituvchi uning mazmunini va strukturasi aniq tushunishi kerak.

### **O'quv ma'lumotlarini bayon qilish usullari**

Ma'lumotlarni bayon qilishning dogmatik usuli shundan iboratki, bunda o'qituvchi holatni (predmet, jarayon) faqat haqqoniy tomonidan qaraydi tayyor ma'lumotlarni izohsiz va isbotsiz ma'lum qiladi.

Afzalliklari: auditoriya vaqtining kam sarflanishi;

o'qituvchining bayon qilishga tayyorgarlik ko'rishining osonligi.

Kamchiliklari: o'qituvchining faoliyati ma'lumotlarni eslab qolish va uning aynan takrorlanishi bilan nihoyalanadi. fikrlash rivojlanmaydi, e'tibor faollashmaydi; o'quvchilar tartib darajasining quyiligi.

Tushuntirish usuli jarayon va hodisalarning sabab va hossalarni qat'iy mantiqiy sistematisasiya va ketma-ketlikda majburiy izohlash, ko'rgazmali qo'llanmalarni, samaradorlikni ta'minlovchi texnik vositalarni keng qo'llash, o'rganiladigan savollarni chuqur tushunish bilan tavsiflaydi.

Afzalliklari: ma'lumotni o'zlashtirish darajasining ancha yuqoriligi;

auditoriyaning tartib darajasini dogmatik usulga nisbatan ancha yuqoriligi.

Kamchiliklari: usul tadqiqotni borishi yoki o'rganiladigan holatni echish haqida tasavvur bermaydi va o'quvchining fikrlash faoliyatini sekin faollashtiradi; auditoriyada tartibni saqlab turish uchun o'qituvchining doimiy zo'riqishi talab qilinadi.

Dogmatik va tushuntirish usuli ma'lumot beruvchi ta'limga kiradi.

O'quvchilarning e'tiborini faollashtirish, ularning fikrlashini rivojlantirish uchun ma'lumotni bayon qilishda muammoli o'qitishga tegishli muammoli, qisman - izlanuvchi (evrestik) va tadqiqot usullari qo'llaniladi.

Muammo – bu echishni talab qiladigan murakkab yoki amaliy savol.

Muammoli holat – bu o'quvchilarda mavjud bo'lgan bilim asosida echishga qabul qilingan muammo.

Muammoli usul ma'lumotlarni bayon qilishning qo'yidagi bosqichlarini ketma-ket qo'llashni ko'zda tutadi.

Muammoni qo'yish.

Ishonchli takliflarni shakllantirish (gipoteza), ularning muhokamasi.

Aniq gipotezalarni shakllantirish, uning to'g'riligini nazariy isbotlar va eksperimentlar yordamida ko'rsatish.

Afzalliklari: o'quvchilarning etarlicha tushungan bilimlari oson hazm bo'ladi va ishonchga aylanadi; o'qishga bo'lgan qiziqish ortadi.

Kamchiliklari: ma'lumotni bayon qilish uchun ko'p vaqt sarflanadi;

kerakli informasion materiallarni izlab topishning qiyinligi;

O'quv elementlari bo'yicha ma'lumotni bayon qilishda o'ziga yirik mavzularning asosini, boshini biriktirgan o'quv predmeti bo'limlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Qisman-izlanish (evrestik) usuli rahbar o'qituvchiga o'quvchi faoliyatini tasavvur qilishga imkon beradi. Bu faoliyat mustaqqil shug'ullanishga, yangi ma'lumotlar bilan tanishishga yo'naltirilgan. Bu ma'lumot ob'ektiv ma'lum va o'qituvchi tomonidan ishlov berilgan bo'lishi kerak.

Ushbu usulda bayon qilishni qo'yidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

- Kirish.
- Muammoni qo'yish va izlanish maqsadi.
- Muammoning mantiqiy yo'nalishi.
- Muqaddima (xulosalar).

Bu usul – ta'lim olishda o'quvchilar faolligining va bilishining didaktik tamoyillarini muvaffaqiyatli amalga oshishi namunasidir.

Bu usul o'qituvchidan ma'lumotni a'lo o'zlashtirishni va undan erkin foydalanishni, mashg'ulotni borishini chuqur o'ylashni, muammoni shakllantirish uchun aniq ishlov berishni talab qiladi.

Mazkur usul har bir o'quv elementini bayon qilish uchun qo'llanmasligi lozim.

Qo'yidagi xususiyatlarga ega bo'lgan o'quv elementlari ancha qulay hisoblanadi:

- O'quvchilar berilgan mavzudagi yuqori tartibli grafning barcha o'quv elementlarini o'rganadilar.
- Ushbu o'quv elementining ma'lumotlar mazmuni o'quvchilar uchun mo'jiza emas.
- Bu ma'lumotga ko'p yo'nalishli mantiqiy qurish yo'li bilan erishish mumkin.
- Izlanuvchanlik usuli o'quvchilarda ijodiy izlanuvchanlik malakasini shakllantirishda samarali qo'llaniladi. Bu erda nafaqat o'quvchilar uchun yangi sub'ektiv chuqur va barqaror, balki ob'ektiv ma'lum ma'lumotlarni o'zlashtirishning ham o'z o'rnini mavjud.

Afzalliklari: o'quvchilarni ma'lumotlarni o'zlashtirishda ijodiy darajaga olib chiqadi;

o'quvchilarning bilish faoliyati strukturasi bo'yicha tadqiqotchi, rasionalizator, ixtirochi faoliyatiga yaqinlashadi.

Kamchiliklari: vaqtning ko'p sarf bo'lishi; tashkil qilishning murakkabligi; tayyorgarlikka va o'qituvchining ijodiy qobiliyatiga talabning yuqoriligi; "kichik guruhchalar" va alohida maslahatlar ko'rinishida ishlash lozimligi.

Ma'lumotlarni bayon qilishning optimal usulini tanlagan holda o'qituvchi uni mazkur mashg'ulot oldidan qo'yilgan maqsad bilan solishtirib ko'rishi lozim. Imkon qadar o'qitish amaliyotida dogmatik usulni kamroq qo'llash maqsadga muvofiqdir. Vaqt limitini e'tiborga olgan holda asosiy usul sifatida qisman izlanish usulini biriktirgan holda tushuntirish usulini qo'llash, zarur ma'lumotlarni o'rganishda esa, ya'ni o'rganiladigan predmet asosida yangilik va izlanishlarni o'rganishda – muammoli usulni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

### **O'quv ma'lumotlarini bayon qilish usullari**

O'quv ma'lumotlari (o'qitish)ni bayon qilishning uch guruhi mavjud: og'zaki, ko'rgazmali va amaliy.

Maxsus fanlarni o'rganishda qo'llaniladigan og'zaki usullarga: og'zaki tushuntirish, suhbat, hikoya, texnik adabiyotlar, darslik va o'quv qo'llanmalari instruksion va texnologik hujjatlar bilan ishlash kiradi. Bu guruh usullariga ba'zi hollarda o'quvchilarning shunday grafik materiallarini, ya'ni, masalan shartli grafik belgi va simvollar yordamida ma'lumotlarning katta hajmini qamrab oladigan kinematik va elektr sxemalarini kiritish mumkin.

Ko'rgazmali usul (tajribalar, demonstrasion eksperiment, vizual texnik moslamalar, kuzatishlar) o'quvchilarga o'rganiladigan texnik ob'ektlar va texnologik jarayonlarni ko'rib his qilish imkonini beradi.

Amaliy usullar (laboratoriya va amaliyot ishlari, mashqlar, grafik ishlar va boshq.) o'quvchilarda professional va umummehnat ko'nikmasi va malakasini shakllantirishga yo'naltirilgan. Professional va maxsus texnik tayyorgarlik uchun bu usullarning yana bir ahamiyati shundaki, ular amaliy bilimlarning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

## **2.5. Maxsus fanlarni o'qitish shakllari. Zamonaviy dars va unga qo'yiladigan talablar**

### **1.O'quv jarayonini tashkil qilish shakllari. Dars turlari.**

Maktabning tarixan rivojlanish davrida ta'limni tashkil etish shakllari turlicha bo'lgan. Hozir maktablarimizda ta'lim jarayonlari sinf-dars shaklida, amaliy va tajriba mashg'ulotlari shaklida olib boriladi. Sinf-dars shaklida olib boriladigan mashg'ulot o'qituvchining kundalik o'quv materialini tizimli bayon qilib berishni, xilma-xil usullardan foydalanishni, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini izchillik bilan hisobga olib borishni, o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

O'qitishning shakliiy formalari deganda, o'qituvchi va talabalarning maxsus tashkil etilgan, belgilangan tartibda va muayyan rejimda o'tadigan faoliyati tushuniladi. O'qituvchini u yoki bu tashkiliy shakli guruh va yakka tartibda o'tishning har xil ko'rinishda qo'shib olib borishi, o'qitishda talabalar mustaqilligining turli darajasi, talabalarning o'qishiga o'qituvchi rahbarligining har xil usullari bilan xarakterlanadi. O'qitishning tashkil etish shakllarini tanlash ta'lim-tarbiyaviy vazifalar bilan belgilanadi va o'quv ishining mazmuni hamda metodlariga bog'liq bo'ladi.

Oliy o'quv yurtlarida o'qitish tizimda olib boriladi. Boshqa o'quv yurtlarida (kollej) dars tizimida talabalarni ularning tayyorgarlik darajasiga, o'rganadigan kasbiga, ba'zi kasblar uchun esa - jinsi va yoshiga muvofiq guruhlarga ajratish ko'zda tutiladi, har bir o'quv guruhi o'qitishning boshidan oxirigacha o'zgarmaydi.

Mashg'ulotlar qat'iy jadval asosida o'qituvchi rahbarligida olib boriladi. O'rganiladigan soha qismlarga - har biri muayyan maqsadni ko'zda tutgan darslarga taqsimlanadi.

Dars jarayonida o'quv ishining tashkil etishning asosiy shakli darsdir. Dars deganda ma'lum vaqt ajratilgan va o'zgarmas tarkibli hamda tayyorgarlik darajasi bir xil bo'lgan talabalar guruhi bilan o'qituvchi o'tkazadigan o'quv jarayonning bir qismi tushuniladi.

Oliy o'quv yurtlarda ma'ruzalar va boshqa mashg'ulotlar 80 daqiqadan bo'lib orasida 10 daqiqa tanaffusdan, lisey, kollejlarda umumiy texnika va maxsus fanlarni o'rganishda, odatda, "qo'sh" darslar, ya'ni har biri 40 daqiqadan bo'lib, orasida 5 daqiqa tanaffus qilinadigan ikki davrdan iborat darslar qo'llaniladi. Bu hol mashg'ulotlar tizimini rejalashtirishni engillashtiradi va darslarda mustaqil grafik ishlar hamda hisoblash ishlari, mashqlar va shu kabilar o'tkazishga imkoniyat yaratadi.

Sinf-dars mashg'ulotlari asosan quyidagi turlardan tashkil topadi:

- Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
- O'tilgan materiallarni mustahkamlash darsi.
- O'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirish va baholash darsi.

- Takroriy-umumlashtiruvchi va kirish darslari.
- Aralash dars (yuqoridagi dars turlarining bir nechtasini birga qo'llash).

Ma'lum bir dars turi bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda ikkinchi, hatto uchinchi bir dars turining elementlari bo'lishi mumkin. Masalan, maktablarimizda eng ko'p qo'llaniladigan dars turlaridan biri – yangi bilimlarni bayon qilish darsidir. Bu dars quyidagicha tuziladi:

- a) yangi bilimlarni bayon qilish;
- b) yangi bilimlarni mustahkamlash;
- v) yangi bilimlar ustida mashq qilish;
- g) yangi bilimlarga bog'liq holda uy vazifalarini topshirish.

Demak, dars boshdan-oyoq bir dars turi bilan olib borilmaydi, balki shu darsda yangi bilimni bayon qilish bilan birga uni mustahkamlash (ikkinchi bir dars turi elementi – savol-javob o'tkazish), yangi bilimlar ustida mashq o'tkazish (uchinchi bir dars turi elementi – masala va misollar echdirish, grammatik tahlil, grafik ishlar olib borish), uyga vazifa (boshqa bir dars elementi – tushuntirish, yo'l-yo'riqlar ko'rsatish va hakoza) kabi boshqa elementlarning bo'lishi ham mumkin. Shunga qaramay, darsdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarga yangi bilim berishga qaratilgan bo'lsa, butun didaktik usullar shunga bo'ysundiriladi. Shuning uchun ham bunday dars yangi bilim berish darsi deb ataladi.

Takroriy-umumlashtiruvchi dars, odatda, dasturning ma'lum bir qismi yoki yirik mavzu o'tib bo'linganidan keyin ishlatiladi. Bunda o'tilgan materiallarni takrorlash – qayta esga tushirish va mustahkamlash maqsadida o'tilgan materiallarni qamrab olgan va bir-biriga bog'liq bo'lgan savollar orqali umumlashtirish nazarda tutiladi.

Odatda, takroriy-umumlashtiruvchi dars o'tishda, o'quvchilarning tayyorlanishlari uchun vaqt berilishi, mashg'ulotdan oldingi material yuzasidan savollar berib qo'yilishi, foydalanish lozim bo'lgan adabiyotlarning ro'yxati berilgan bo'lishi lozim.

Yuqori sinflarda ba'zan o'quv materiallarining ma'lum qismi yoki yirik mavzuni boshlash oldidan kirish darslari ha olib borilishi mumkin. Adabiyot darslarida ko'pincha o'quvchilardan o'quv dasturida belgilangan yirik badiiy asarni o'qib chiqishlari, mavzuga oid sahna asarlari, kinofilmlarni ko'rgan bo'lishlari talab qilinadi.

Sinf-dars shaklidagi mashg'ulotlarni tashkil etish.

Darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulotni to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Maktablarimizda darsning boshlanish davrini – darsning tashkiliy daqiqalari deb yuritiladi. Lekin, bu dars shaklining biror bosqichi yoki tuzilishiga kirmaydi. Tashkiliy daqiqada sinfning tayyorgarligi diqqat bilan tekshiriladi.

Ko'pchilik tajribali o'qituvchilar bu bosqichni o'quvchilarga sezdirmay darsni boshlab yuboradilar. Bu bosqichda o'quvchilarning diqqatini o'ziga jalb qilib, butun sinf o'quvchilarining tezlik bilan mashg'ulotga faol kirishishlari ta'minlanadi.

Dars ko'zlangan maqsadni ravshan va aniq qilib uqtirish bilan boshlanadi. Masalan, yangi materialni bayon qilish zarur bo'lganda uning mavzusi aytilib umumiy tushuncha beriladi.

Darsda rejada mo'ljallangan material o'tib bo'lingach u albatta yakunlanishi, xulosalar chiqarilishi shart.

Seminar shaklidagi mashg'ulotlarni tashkil etish.

Seminar mashg'ulotlari o'quvchilarning mavzudagi muhim masalalarni chuqur o'rganish yuzasidan mustaqil ishlashini, keyinchalik ularni jamoa bo'lib muhokama qilishni tashkil etish shaklidir.

Mavzu o'rganilgunga qadar o'qituvchi o'quvchilar uchun savol va topshiriqlar tuzib chiqadi. Kirish mashg'ulotida u o'quvchilarni materialning mazmuni, qilinadigan ishning xarakteri bilan qisqa tanishtiradi, ularga har qaysi seminar uchun topshiriq beradi va tayyorlanish uchun adabiyot ko'rsatadi. Ba'zi vazifalar hama uchun umumiy bo'ladi, ba'zilar esa ayrim o'quvchilarga yoki 3-4 kishidan tuzilgan guruhga beriladi. Bunda hamma o'quvchilar seminar uchun dasturdagi majburiy materiallar minimumini ishlab chiqishi kerak.

Seminarlarga 2-3 hafta tayyorgarlik ko'riladi. O'quvchilar adabiyotlarni o'rganadilar, material yig'adilar, har xil kuzatishla o'tkazadilar, o'z axborotlari yuzasidan tezislar tuzadilar.

Seminarlar o'qish vaqtida o'tkaziladi. Bunday mashg'ulotlar miqdori mavzuning mazmuniga va uni o'rganish uchun ajratilgan vaqtga bog'liq. O'quvchilar mashg'ulotlarda axborot beradilar, ularga turli xil namoyish etiladigan narsalarni ilova qiladilar. Maslani muhokama etishda hamma o'quvchilar ishtirok etishadi.

Seminar mashg'uloti o'qituvchi rahbarligida o'tkaziladi, u o'quvchilar ishini yo'naltirib turadi, mazu savollari muhokamasini yakunlaydi, zarur qo'shimcha, tuzatishlar kiritadi, materialni sistemaga soladi. Ma'ruza qilgan, muhokamada qatnashgan o'quvchilarga baho qo'yiladi.

Bu usulning afzalligi o'quvchilar e'tiborini darsga jalb etish bilan ularning qiziqishlarini o'ttirish, o'z ustida mustaqil ishlashga, fikrlashga o'rgatish, darsni faollashtirish va o'quvchilar qobiliyatini o'stirishdir.

Amaliy-tajriba ishlar shaklidagi mashg'ulotlarni tashkil etish.

Amaliy-tajriba mashg'ulotlari maxsus jihozlangan xona yoki alohida ajratilgan tajriba uchastkasida, shuningdek, bevosita ta'lim ishiga aloqador ma'lum ob'ektni kuzatish, o'rganish yo'li bilan olib boriladigan mashg'ulotdir.

Amaliy mashg'ulotlarning nazariy asoslari sinfda o'tilib, mashg'ulotning tashkil qilinishiga oid yo'l-yo'riq va ko'rgazmalar er uchastkasida yoki mashg'ulotning mazmuiga oid joyda beriladi.

## **2.Ta'lim prinsiplari.**

Ta'lim prinsiplari – o'qituvchining faoliyatini va o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, tegishli ko'nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonun va yo'l yo'riqlarini o'z ichiga oladi. Shu bilan bir vaqtda ta'lim

prinsiplari har ikkala faoliyatni, ya'ni o'qituvchi va o'quvchi tomonidan o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradigan bir qancha talablarni ham umumlashtirib beradi.

Ta'lim prinsiplari dastlab buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning «Buyuk didaktika» asarida ta'riflab berilgan. Komenskiy didaktik prinsiplar deganda quyidagilarni nazarda tutadi: 1) onglilik va aktivlik prinsipi; 2) ko'rsatmalilik prinsipi; 3) izchillik va sistemalilik prinsipi; 4) mashq qilish, bilim va malakalarni puxta egallash prinsipi.

Onglilik va aktivlik prinsipi ta'lim jarayonida o'quvchilarning passiv bo'lib, materialni tushunmay, mexanik ravishda quruq yodlashini emas, balki bilim va malakalarni faol ravishda anglab, chuqur va asosli bilib olishini taqozo qiladi.

Samarali ta'limning asosiy sharti narsa va hodisalarning mohiyatini bilib olishdan iborat. Bu haqda Komenskiy quyidagicha yozadi: «...yoshlarga to'g'ri taelim berish – bu har xil mualliflarning asarlaridan to'plangan so'zlar, iboralar, hikmatlar, fikrlar yig'indisini bolaning miyasiga joylash degan gap emas, balki narsalarning mohiyatini anglash qobiliyatini o'stirish demakdir...». O'quvchiga nimani o'rgatishdan qat'iy nazar, bu narsa turmushda qanday naf keltirishi tushunilsa, bola uni yaxshiroq anglab oladi.

Yan Amos Komenskiy ko'rsatmalilik prinsipini asoslab berib, uni ta'limning oltin qoidasi deb atagan. U o'quvchi bilimlarni narsa va hodisalarni bevosita kuzatish orqali, sezgilar vositasida bili olishi zarur deydi. Ta'lim jarayonida ko'rsatmalilik prinsipini joriy etish uchun Komenskiy quyidagilarga amal qilish zarur deb ko'rsatadi:

- mavjud narsalarning o'zini ko'rsatish yoki tabiiy holda kuzatishlar o'tkazish;
- narsalarning modelini yoki nusxasini ko'rsatish;
- narsa va hodisalar tasvirlangan sr'atlarni ko'rsatish.

Ilm sirlarini bilib olish uchun yoshlardan 4 narsa talab qilinadi: 1) sof aqlga ega bo'lish; 2) o'rganish zarur bo'lgan narsalarni ko'rish; 3) diqqatni to'ply olish; 4) kuzatilishi lozim bo'lgan narsalarni ma'lum tartibda, ketma-ket ko'rsatish.

Komenskiyning fikricha, o'qitishda izchillik va sistemalilik prinsipi katta ahamiyatga ega. Fan asoslarini izchil bayon etish va sistemali tarzda o'rgatish hozirgi zamon didaktikasining ham muhim prinsipidir.

Izchillik va sistemalilik, avvalo, quyidagi masalalarda yaqqol ko'rinish turadi: o'quv materialini mantiqqa xilof ish qilmasdan to'g'ri taqsimlab chiqish; o'qitishni nimadan boshlash va unda ketma-ketlikka rioya qilish; yangi material bilan oldin o'tilganlarni bir-biriga bog'lash, ta'lim bosqichlari o'rtasida uzviy bog'lanish bo'lishi kabilar.

Ta'lim izchil bo'lishi kerak, deganda Yan Amos Komenskiy, avvalo, o'qitish vaqtida, ta'lim muddatida aniq tartib bo'lishini nazarda tutadi. So'ngra o'qitish bolaning bilim darajasiga mos kelishi zarur, deb hisoblaydi. Komenskiy o'qitishni bolalik chog'idan boshlab, etuklik davrigacha (24 yoshgacha) davom

ettirish, o'quv mashg'ulotlarini sinflarga aniq taqsimlab chiqish lozim, deganda ana shu talablarni nazarda tutadi.

Komenskiy o'qitilayotgan bilimlarni etarli dalillar bilan asoslashni talab etadi. Bilimlarni asosli o'rgatish – hamma narsaning sabalarini tushuntirib o'qitish demakdir, ya'ni bir narsaning qanday hosil bo'lishini o'rgatibgina qolmasdan, balki nima uchun uning boshqacha bo'lishi mumkin emasligini ham tushuntirish demakdir, chunki biror narsani bilish – narsalarning zaruriy bog'lanishlarini anglashdan iboratdir.

Ta'limda umumiydan xususiyga, osondan qiyinga, ma'lumdan noma'lumga, yaqindan uzoqqa kabi qoidalarga amal qilish talab etiladi. O'qitishda faktlardan xulosalarga, misollardan qoidalarga o'tish va shu faktlar hamda misollarni qoidalar sistemasiga solib, umumlashtirib bermoq kerak, chunki aks holda ular bir-biriga bog'lanmagan hodisalarning sistemasiz uyumidan iborat narsaga aylanadi.

Yan Amos Komenskiyning asarlarida mashq qilish, bilim va malakalarni puxta egallash prinsipiga katta e'tibor beriladi. O'quvchilar egallagan bilimlarning to'laligi faqat bilimlarni tushunib olishdangina iborat bo'lmay, shu bilan birga bilim va malakalarni chuqur, asosli va puxta o'zlashtirishga, ularni amalda qo'llana bilishga ham bog'liq. Takrorlash va mashqlarni sistematik ravishda bajarish ta'lim va tarbiya vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Mashqlar va takrorlashlarsiz o'qitishni tasavvur qilish qiyin. Mashqlar natijasida bola so'zarni quruq yodlab olmasligi, balki narsa va hodisalarni tushunib olishi, bilimlarni o'zlashtirishi va amalda qo'llanishni o'rganishi lozim. O'rgatmoqchi bo'lgan narsani bolaga amalda bajartirish lozim. Teztez va ayniqsa mohirona uyushtirilgan mashqlar va takrorlashlarsiz bilim mustahkam bo'lmaydi.

Mashqlar o'rtacha o'zlashtiradigan bolalarga moslab bajartirilishi lozim. Mashqlarni butun ishni bajarishdan boshlamay, balki shu ishning elementlarini bajarishdan boshlash lozim.

Hozirgi davrda ta'lim sistemasi bir oz takomillashgan va murakkablashgan. Dastlab Komenskiy tomonidan ta'riflangan, yuqorida keltirilgan 4 ta prinsipga yana quyidagi 5 ta prinsipni qo'shish mumkin:

- Beriladigan bilimlarning ilmiy asoslangan bo'lishi;
- Ta'lim va tarbiyaning birligi;
- Nazariyani amaliyot bilan bog'lab o'qitish;
- Beriladigan bilimlarning o'quvchilarga qo'yiladigan talablarga mosligi;
- O'quvchilarnin individual xususiyatlarini hisobga olish.

Beriladigan bilimlarning ilmiy asoslanganligi.

Ta'limning ilmiylik prinsipi o'quvchining o'quv materiallaridagi qonuniyatlarni to'g'ri aks ettirishi, tushunishi va o'zlashtirishi uchun to'g'ri sharoit yaratish maqsadida zarurdir. Ilmiylik prinsipi barcha yosh guruhlardagi va turli o'quv yurtlaridagi o'quvchilarga o'rganish uchun ilmiy jihatdan ishonarli, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi.

Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e'tiqod tarkib topadi. Tafakkur rivojlanadi.

Ta'lim va tarbiyaning birligi prinsipi.

Maktab o'quvchilariga ta'lim berish, tarbiyalash va ularning umumiy rivojlanishlarini bir butunlikda amalga oshirish zarur. Bir butun ta'lim jarayonida ikki o'zaro bog'liqlik: hayotni bilish va unga bo'lgan munosabatni tarkib toptirish jarayoni ajralib turadi.

Maktab ta'limda o'quvchilar tabiiy fanlarni – matematika, ximiya, biologiya, astronomiya va boshqa fanlarni o'zlashtirish orqali ilmiy e'tiqodlari shakllana boradi. Ular dunyoni o'rganish mumkinligini ilmiy asosda anglab oladilar, haqiqatga ishonch bilan, yolg'on narsalarga nafrat bilan qaray oladigan bo'ladilar. Ular ustidan haqqoniy hukm chiqaradigan aqlli, idrokli, imonli inson bo'lib etishadilar.

Nazariyani amaliyot bilan bog'lab o'qitish prinsipi.

Bu birlik ilmiy bilimlarni puxta o'zlashtirish va uni amalda qo'llay olish, o'quv materiallarini idrok qilish, anlash, shuningdek, uni mustahkam esda saqlab qolish kabi ruxiy operatsiyalar bilan bog'liq holda bir butun jarayonni tashkil etadi.

O'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash nazariy bilimlarni egallash jarayonida boshlanadi. Keyinchali u laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarda davom ettiriladi. Bu mashg'ulotlarda o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida tajriba sharoitid olgan bilimlarining ishonarli ekanligini teshiradilar, mustahkamlaydilar va chuqurlashtiradilar. Bilimlarni amalda qo'llash malakalarini hosil qiladilar.

Ishlab chiqarish ta'limi o'quvchilar amaliy faoliyatining muhim bosqichidir. Ular egallab olgan nazariy bilimlar asosida tanlagan kasblariga doir mehnat ko'nikmalari hosil qiladilar. Shu bilan birga nazariy bilimlarga ha aniqlik kiritib boriladi.

Beriladigan bilimlarning o'quvchilarga qo'yiladigan talablarga mosligi prinsipi.

Bunda ta'limning mazmuni, hajmi, xarakteri, u yoki bu sinf o'quvchilarining jismoniy rivoji, umumiy tayyorgarligi – saviyasi va imkoniyatiga loyiq bo'lishi tushuniladi.

Moslik prinsipida ta'limning ikki tomoni e'tiborda tutiladi:

Ma'lum sinf uchun belgilangan o'quv materiallarining xarakteri, mazmuni va hajmi shu sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos bo'lishi;

Har bir sinf uchun belgilangan bilim hajmi shu sinf o'quvchilarining saviyasiga mos bo'lishi lozim.

Moslikning birinchi qoidasi osondan qiyinga qarab borishdir. O'tiladigan materialning haddan tashqari engil bo'lishi bolalarning qiziqishini so'ndirganidek, ularning bilimda olg'a qarab borishlarini ham ta'minlay olmaydi. Aksincha o'tiladigan materiallar bolalar saviyasiga nisbatan og'ir, tushunish qiyin bo'lsa, qo'yilgan misol va masalalar echish, hal qilishga o'quvchilarning qurbi etmasa, ularda o'z kuchiga ishonmaslik kayfiyatlari tug'iladi.

Moslikning ikkinchi qoidasi ma'lumdan noma'lumga qarab borishdir. Bu qoidaga amal qilishda o'quvchilarda avvaldan mavjud bo'lgan ilmiy bilim va tajribalar zahirida yangi, hali o'quvchilarga ma'lum bo'lmagan ma'lumotlar bilan qurollantirishni tushunmoq kerak.

Moslik qoidasining uchinchi soddadan murakkabga qab borishdir. Ko'pincha biz tushunib etgan, o'zlashtirilgan hamma narsalar sodda, tushunib etmagan, o'zlashtirilmagan narsalar esa murakkabdek ko'rinadi. Ta'limning sodda bo'lishi u yoki bu materialning ortiqcha kuch sarflamay tushunib olinishidir. O'quvchilar yaxshi tushungan, o'zlashtirgan bilimlarini yangi murakkab tushunchalar bilan aniq va ravshan qilib bog'lay olishlari natijasida sodda vazifalarni, misol-masalalarni bajara boib, murakkab materialni o'zlashtirish, murakkab bo'lgan masalalarni ham echishga – hal qilishga hozirlanib boradilar.

O'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish prinsipi.

Ta'lim-tarbiya jarayonining hamma tomonlari umumsinf o'quvchilari jamoasiga xos xususiyatlarga hal qilgan holda yo'lga qo'yiladi. Biroq, har bir o'quvchi o'ziga hos jismoniy, ahloqiy, ruhiy va boshqa xususiyatlarga egaki, bu uning o'quv faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Darsda har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini to'la hisobga olish juda qiyin va har doim ham buning iloji bo'lavermaydi. Pedagog o'quvchilarning darsdagi va amali mashg'ulotlar jarayonidagi ishini, uy vazifalarini bajarishini kuzatadi, ularning bilimi, yozma ishlari, yasagan ko'rgazmali materiallarini tekshiradi. Darsdan tashqari vaqtlarda o'rtoqlari va boshqalarga bo'lgan munosabati, hulqi, irodaviy sifatlarini o'rganadi, ular bilan suhbat qiladi. Kuzatish jarayonida u o'quvchining kuchli va ojiz tomonlarini, uning qiziqishlari, tafakkuri, nutqi, xoirasi, diqqati, hayoliga mos bo'lgan xususiyatlarini bilib oladi, o'quvchilarning hayotiy va mehnat qobiliyatlarini o'rganadi. Bo'sh o'zlashtiruvchi dasturning ma'lum bir bo'limi yoki fan bo'yicha orqada qolish sabablarini aniqlaydi. O'qituvchi ularni bilib olgandan keyin birinchi navbatda yomon holatlarning ta'siriga bardosh berish choralarini ko'radi.

Masalan: o'quvchining ko'rish qobiliyati uncha yaxshi bo'lmasa yoki yomon eshinsa, uni birinchi qatorga o'tqizish kerak. Bu narsa diqqati beqaror bo'lgan o'quvchilarga ham tegishlidir. Bundan tashqari, ulardan tez-tez so'rash, ularni o'rtoqlarining javobini qaytarishga, to'ldirishga yoki u haqda o'z fikrini bildirishga majbur etish lozim.

### **3. Ta'lim metodlari.**

O'qitish usuli deganda, ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlari tushuniladi.

O'qitish usullari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday qilib tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi.

Ta'lim tizimida o'quvchilarga bilim berishning eng qulay imkoniyatlarga asoslangan holda o'qitish usullarini quyidagi turlarga bo'lamiz.

Ta'limning og'zaki metodi.

Ta'limning ko'rgazmali metodi.

Ta'limning ekskursiya metodi.

Ta'limning amaliy metodi.

Ta'limning reproduktiv metodi.

Ta'limning muammoli vaziyat yaratish metodi.

Ta'limning induktiv va deduktiv metodi.

O'quv faoliyatlarini rag'batlantirish metodi.

O'qitishda nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodi.

Ta'limning og'zaki metodi.

Didaktikada o'qitishning og'zaki usullari 3 turga: o'qituvchining hikoyasi, suhbat va maktab ma'ruzasiga ajratiladi.

O'qituvchining hikoyasi maktab ta'limining hamma bosqichlarida keng qo'llaniladi. Boshlang'ich sinflarda bu usul qisqa va aniq bo'ladi. Hikoya butun darsni band qilmaydi. U yakunlangach, suhbat va tushuntirishlar bilan to'ldiriladi.

Nutq madaniyatini o'stirishda hikoyaning o'qitish va fikrlarni bayon qilish usuli sifatidagi imkoniyatlariboshqa og'zaki usullarga nisbatan (suxbat va ma'ruzalarni ham qo'shganda) ayniqsa yuqoridir. Hikoya qilish – o'qituvchi tomonidan o'tilayotgan mavzuga oid omil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarg bo'lib, obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham va izchil bayon qilishdir. Bu usul yuqori sinflarda gumanitar fanlarni o'qitishda, shuningdek tarjimai xol xarakteridagi materiallarni bayon qilishda, obrazlarga ta'rif berishda, tabiat hodisalari va ijtimoiy hayotdagi voqealarni tasvirlashda qo'l keladi.

O'quv materialarini tushuntirish usuli o'qituvchi tomonidan o'tilayotgan mavzuning (narsa, hodisa va voqealarning) mazmunini xarakterlaydigan tushuncha qonun va qoidalarni uqdirishdir. Bu usul matematika, fizika, ximiya, ona tili, rus tili va h.k. fanlarni o'qitishda ko'proq qo'l keladi.

O'quv ma'ruzasi o'quv materialini og'zaki bayon qilish uchun mo'ljallanadi. Bu o'quv material hikoyadagiga nisbatan hajmining kattaligi, mantiqiy tuzilishi, obrazlari, isbot va umumlashtirishlarning anchagina murakkabligi bilan farqlanadi. Ma'ruza odatda darsni to'la qamrab oladi.

Suhbat usuli og'zaki bayon qilishning asosiy turlaridan biri bo'lib, aktaqlar tajribasida eng ko'p qo'llaniladigan va samarali usullardan biridir.

Ko'pincha bu usul savol-javob usuli deb ham yuritiladi. Shunday subatar ham mavjudki, bunday suxbat davomida o'quvchilar ilgari o'zlashtirganlarini eslaydilar, tizimga soladilar, umumlashtiradilar, xulosalar chiqaradilar, ulardan turmushda foydalanishga doir yangi misollarni axtaradilar.

O'quvchilar darsga etarli darajada tayyorlangan bo'lsalar, o'qituvchi rahbarligida muammoli savollarga javoblarni o'zlari axtarib topadigan suxbatlar

o'tkazish nihoyatda maqsadga muvofiqdir. Bunday suxbtlar evristik – izlanish, axtarib topish xarakterida bo'ladi.

O'qitish jarayonida o'rganilayotgan mavzu yuzasidan kirish, asosiy va yakunlovchi suhbatlar ham qo'llaniladi.

Suxbat usuli bilan ish ko'rganda quyidagilarga rioya qilish kerak:

O'qituvchining suxbat uchun tayyorlab kelgan savollari sinf o'quvchilarining hammasiga taalluqli bo'lib, so'roq o'rta tashlanishi kerak.

O'quvchilardan biri javob berish uchun chaqiriladi.

O'quvchilarning javobi qay darajada to'g'ri-noto'g'ri bo'lishidan qat'iy nazar, o'qituvchi tomonidan izohlanishi, yakunlanishi va baholanishi zarur.

O'qitishning ko'rgazmali usuli.

Ta'limda ko'rgazmalilik usuli namoyish etish, illyustrasiya va ekskursiya tariqasida olib boriladi.

O'qitishning amaliy metodlari.

O'qitishning amaliy metodlari doirasi juda keng. Ular yozma mashq (masalalar echish, chizmalar tayyorlash va b.); tajriba-laboratoiya xarakteridagi mashqlar (frontal tajribalar, laboratoriya ishlari, amaliyotlar, o'qitishning texnik vositaari, o'rgatuvchi mashinalar va b. bilan ishlash); mehnat topshiriqlarini bajarish usullarini o'z ichiga oladi. Amaliy usullarga yozma mashqlar kiradi. Ularni bajarishda olingan nazariy bilimlarni amaliyotda bevosita qo'llashga o'rgatiladi. Mashq qildirishda ilmiy bilim va ma'lum ish-harakatni o'zlashtirish yoki takomillashtirish maqsadida rejali suratda tashkil etilgan takrorlash nazarda tutiladi.

O'quvchilarning o'zlashtirgan ko'nikma va malakalarini mustahkamlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mashq qildirishda:

- mashq uchun berilgan topshiriqning maqsadi o'quvchilarga aniq tushuntirilgan bo'lishi;
- mashq ustida sinf o'quvchilar jamoasi va har qaysi o'quvchining shaxsiy intilishi, qiziqishini hisobga olish;
- topshiriq butun sinf o'quvchilarining aktiv faoliyatini ta'minlaydigan bo'lishi va mashqni, albatta, belgilangan vaqt ichida bajarish talab qilinishi kerak.

O'quvchilarning yana bir yozma ijodiy ishlari turi mavzularda ma'ruzalar yozishdir. Ma'ruza mavzusi ma'lum bir muammo va masalaning hal etilishiga qaratilgan bo'lib, o'quvchilar shu mavzuga oid mustaqil o'qib o'rgangan materiallar yuzasidan o'z nuqtai-nazarlarini ifodalaydilar va shu qarashlarini misol va dalillar bilan isbot qiladilar.

Grafik ishlar ham o'qituvchilarning yozma ishlari jumlasiga kiradi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi: rasm solish, jo'g'rofiya va tarix fanlari bo'yicha murakkab bo'lmagan xaritalar chizish, chizma va sxemalar ishlash, jadval, diagramma, grafiklar, plakat, albom, stendlar ishlash va h.k.

Mashqlar davomida o'quvchilar yo'l qo'ygan orfografik, arifmetik va grafik xatolarni anqlash, ayniqsa o'quvchilarning ko'nikma va malakalariga singib

ketishi mumkin bo'lgan xatolarning darhol oldini olish lozim. Shunga ko'ra mashq uchun berilgan topshiriqlarni sinchiklab tekshirish, yo'l qo'yilgan xatolarning sabablarini aniqlash, o'quvchilarni xatolar ustida qayta ishlatish lozim.

Laboratoriya mashq ishlari har tomonlama tajribalar, laboratoriya ishlari, amaliyotla, o'qitishning texnik vositalari va maktab o'quv qurollari turidagi boshqa asbob-uskunaar bilan mashg'ulot tarzida o'tkaziladi.

Laboratoriya mashg'uloti odatda maxsus jihozlangan xonada hamda tegishli apparat, asbob-uskunalar – mikroskop, lupa, kolba, o'lchov asboblari va boshqa qurollar bilan ta'minlangan oddiy sinf xonalarida, maktabning tajriba er uchastkalarida olib boriladi.

Laboratoriya usulining boshqa o'qitish usullaridan farqi shundaki, bu usul bilan ish ko'rilganda har qaysi o'quvchi (yakka holda yoki o'quvchilar guruhi) nimanidir mustaqil, shaxsan tajriba qilib ko'radi.

Laboratoriya usuli mashg'ulotning xarakteriga qarab turlicha tashkil qilinadi:

O'quvchilar bilan yoppasiga olib boriladigan mashg'ulotlar. Bunday tajribalar, odatda, mavzudan oldin o'tkazilib, yangi mavzuga tajriba asosida kirish xizmatini o'taydi. Ular keyingi nazariy umumlashtirishlar chiqarish, yangi xulosalar, qoidalar va h.k. larni tajriba ma'lumotlari bilan ta'minlaydi.

Sinf o'quvchilarining har qaysisi bilan alohida-alohida olib boriladigan tajriba mashg'ulotlari.

Amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarga umumiy politexnika ta'limi berish va mehnat malakasi bilan qurollantirishda asosiy usul bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilarning amaliy tajriba mashg'ulotlarida mehnat ta'limi markaziy o'rinlardan birini egallaydi.

Amaliy tajriba mashg'ulotlari maktab jonli burchagi va tajriba er uchastkasida olib boriladi. Maktab tajriba er uchastkasida olib boriladigan ishlar o'quvchilar brigadalari orqali amalga oshiriladi. Har qaysi o'quvchilar brigadasi ko'pincha har xil topshiriqlarni bajaradilar. Ba'zi brigadadagi har qaysi o'quvchi alohida-alohida topshiriqni bajarishi mumkin.

Mashg'ulotlarni yakunlashda bajarilgan ishdagi yutuq-kamiliklar tahlil qilinadi. Bunda nazariy bilimlarni amalda qo'llashga oid maslahatlar alohida o'rinni egallaydi.

Ta'limning muammoli-izlanish va reproduktiv metodi.

O'qitishning reproduktiv va muammoli-izlanish usullari eng avvalo, o'quvchilarning yangi tushuncha, hodisa va qonunlarini bilishdagi ijodiy faolliklari darajasini baholash asosida qismlarga ajratiladi.

Reproduktiv usullar ayniqsa, o'quv materialining mazmuni asosan axborot xarakterida bo'lsa, amaliy harakatlarning usullarini ta'riflasa, o'quvchilarning bilimlarini mustaqil qidirib ola bilishlari uchun juda yangi hisoblansa, vaziyatlarni hal qilish uchun tayyor bilimlar yo'q bo'lsa samarali qo'llaniladi.

Reproduktiv xarakterdagi amaliy ishlar shunisi bilan farq qiladiki, bu ishlarning davomida o'quvchilar namunaga ko'ra ilgari yoki yaqindagina o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llaydilar.

Ta'limning muammoli vaziyat yaratish metodi.

Muammoli ta'lim deyilganda o'quv materialini o'quvchilar ongida ilmiy izlanishga o'xshash bilish vazifalari va muammolari paydo bo'ladigan qilib o'rganish tushuniladi. O'quvchining fikrlash faoliyatida mantiqiy to'g'ri, ilmiy xulosalarni izlash va o'zlashtirishga rag'batlantiradigan muammoli vaziyatlar vujudga keladi. Paydo bo'layotgan muammoni hal qilish uchun, u o'rganiladigan qoidalarni to'g'ri tushunib olishga intiladi.

Nazariy va eksperimental (sinab ko'rish – tajriba o'tkazish) vazifalarining bo'lishi o'qitishni o'zidan-o'zi muammoli qilib qo'ymaydi. Ishning mohiyati o'qituvchi bu vazifalarga muammolik xarakterini qanchalik bera olishidadir. Vazifa quyidagi talablarni qondira oladigan bo'lsagina shu masalaning tub mohiyati bilish muammosiga aylanishi mumkin:

O'quvchilar uchun bilish qiyinchiligiga ega, ya'ni o'rganilayotgan muammo ustida fikr yuritish.

O'quvchilarda bilishga qiziqish o'yg'otish.

Tahlil jarayonida o'quvchilarning avvalgi tajribasi va bilimiga suyanish.

Muammoli vaziyat fanning mazmuni, o'ziga xos xarakter xususiyatlari, uni o'rganish usullarini hisobga olib yaratiladi.

Ta'limning induktiv va deduktiv metodi.

Induktiv o'v deduktiv usullarni qo'llash o'rganilayotgan mavzu mazmunini ochishning ma'lum mantiqini – xususiyan umumiyga yoki umumiydan xususiyan o'tishni tanlashni anglatadi.

Matematika va fizikaga doir ko'pgina masalalar, ayniqsa o'qituvchi o'quvchilarni ayrim umumiyroq formulalarni mustaqil egallashlariga olib keladigan vaziyatlarda induktiv usul qo'llaniladi.

Deduktiv usul o'quv materialini tezroq o'tishga yordam beradi. Nazariy materiani o'rganishda, anchagina umumiy holatlardan ayrim oqibatlarni aniqlashni talab qiluvchi masalalarni echishda deduktiv usulni qo'llash ayniqsa foydalidir.

O'quv faoliyatlarini rag'batlantirish metodi.

Rag'batlantirish – o'quvchi faoliyatining omili hisoblanadi. Ammo rag'batlantirish kishining faoliyatga bo'lgan ichki mayliga ta'sir qilgandagina real maqsad sari undaydigan kuchga aylanadi.

O'qishga qiziqishni rag'batlantirish turlaridan biri – o'qishda ma'lum qiyinchilik sezayotgan o'quvchilarga muvaffaqiyatli vaziyatlarni yaratishdir. Chunki muvaffaqiyat quvonchini boshdan kechirmay, o'qishdagi qiyinchiliklarni bartaraf qilmay turib yaxshi natijalarga erishib bo'lmaydi.

Muvaffaqiyatga erishish vaziyatini o'quvchining oraliq xarakatlarini rag'batlantirish, ya'ni uni yangi zo'r berishlarga maxsus undash yo'li bilan ham tashkil qilish mumkin. Muvaffaqiyatlarni vaziyatlarini yaratishda u yoki bu

topshiriqlarni bajarish jarayonida qulay ma'naviy-ruhiy muhitni ta'minlash muhim o'rin egallaydi. O'qish vaqtidagi qulay mikroiklim ishonchsizlik, qo'rqish hisiyotini kmaytiradi. Bunday havotirlik o'rnini o'ziga nisbatan ishonch to'yg'usi egallaydi.

O'qitishda nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodi.

Nazorat ta'lim jarayonining ajralmas qismlaridan biri sanaladi. Nazoratning ta'limiy ta'siri o'qituvchi barcha o'quvchilarni o'z o'rtoqlarining javobini tingalashga jalb qilishi, tuzatish va qo'shimchalar qilishni taklif etishi orqali ta'minlanadi. Shu tufayli ham so'rash jarayonida barcha o'quvchilar o'rganib, o'zlashtirib olgan bilimlarini tizimga solishadi, takrorlashadi va mustahkamlashadi.

O'qish jarayonida matematika, ona tili, fizika va boshqa fanlar bo'yicha diktant, bayon va insholar o'tkazish yo'li bilan o'quvchilar bilimini yozma nazorat qilib borish amalga oshiriladi.

Yozma nazorat ishlarini o'tkazishda, baholarning to'liq ob'ektivligini ta'minlash bilan birga bo'sh o'zlashtiruvchilarni ilg'orlar safiga tortish, topshiriqni uddalashlariga ishonch hosil qilish maqsadida ularga masalalarning javoblarini, qo'shimcha rasmlar va h.k. lar berish kerak.

Nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish uslublarini o'zaro mohirona biriktirish barcha o'quv fanlari bo'yicha ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

#### **4.Darsga qo'yiladigan talablar.**

Darslar quyidagi talablarga javob berishlari kerak:

- Har bir dars ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo'lmog'i lozim.
- Har bir dars turmush bilan, amaliyot bilan bog'langan bo'lmog'i lozim.
- Har bir dars xilma-xil usul, uslub va vositalardan unumli foydalangan xolda olib borilmog'i lozim.
- Darsga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejab, undan foydalanmoq lozim.
- Har bir dars o'qituvchi va o'quvchilarning faolligi birligini ta'minlamog'i lozim.
- Darsda o'quv materiallarining mazmuniga oid ko'rsatmali qurollar, texnika vositalari va kompyuterlardan foydalanish imkoniyati yaratmoq lozim.
- Dars mashg'ulotini butun sinf bilan yoppasiga olib borish bilan har qaysi o'quvchining individual xususiyatlari, ularning mustaqilligini oshirish hisobga olinadi.
- Har bir darsda mavzuning xarakteridan kelib chiqib, xalqimizning boy pedagogik merosiga murojaat qilish va undan foydalanmoq imkoniyatlarini izlamoq lozim.
- Har bir dars quyidagi talablarga javob berishi kerakki, bu talablarga rioya qilish butun ta'limning samaradorligini oshiradi.

1.Maqsad va mazmunning aniqligi. Bu talab darsning butun o'quv materialini va uning har qaysi qismini to'g'ri tanlash yo'li bilan ta'minlaydi.

Darsda o'rganiladigan (mustahkamlanadigan, takrorlanadigan) material nisbatan tugal, mustaqil bo'lishi, darslar tizimida muayyan o'rin tutishi va o'z didaktik yo'nalishga ega bo'lishi, ya'ni talabalarga yangi ma'ruzani bayon etishi, bilimlarini mustahkamlashi va tizimga solishi, bu bilimlarni tadbiq etish o'quvi hosil qilishi lozim va hokazo.

Ta'lim va tarbiyaviy vazifalarni ajralmasligi yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ta'limning tarbiyalovchi xarakteri uning ob'ektiv qonuniyati sanaladi. Ammo, shunga qaramay, o'qituvchi hamisha talabalarning taffakuri, xotirasi, diqqat-etibori, irodasi va boshqa hislatlarini, ijodini, ishda mustaqilligi va shu kabi fazilatlarini rivojlantirish uchun darsda har qanday imkoniyatlardan foydalanishga majbur.

2. Darsning har qanday bosqichida o'qitishning eng ma'qul metodlarni tanlash.

O'qitish metodlarini tanlash ko'pgina faktorga: o'quv materialining mazmuniga, darsdan ko'zda tutilgan maqsadga, darsning o'quv materiallari bilan ta'minlanganlik darajasiga, talabalarning tayyorgarlik saviyasiga, o'qituvchining tajribasiga va shu kabilarga bog'liq. O'qitish metodlarni tanlash o'qituvchining yuqori mehnat unumdorligini va talabalarning yuqori harakatini ta'minlashi kerak, bu esa talabalarga chuqur hamda puxta bilimlar beradi, olingan bilimlarni amalda tadbiq etish o'quvlarini hosil qiladi.

Darsda talabalarning yakka va guruh tartibida ishlashini to'g'ri qo'shib olib borish. Bu talab o'qitishni yakka tartibda ishlashi darajasini oshirish zarurligi taqozo qiladi. O'qituvchi butun guruhga o'quv ta'minotini ma'lum qilar ekan, odatda, o'rtacha talabani nazarda tutadi. Ammo muayyan talablar ana shu o'rtacha talabadan ko'p jihatdan farq qiladi. Shuning uchun o'qituvchi butun guruh bilan keng ish olib borishi bilan birga, darsda yakka topshiriqlar bo'yicha mustaqil ishlashni ham keng joriy qilishi, belgilab nazorat o'tkazishi, uy topshiriqlarini alohida berishi va ularning bajarilishini yakka tartibda tekshirishi lozim va hokazo.

### **Oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning takomillashtirish (differensiallash) usullari**

Guruhlarni bir xillik o'qitishning asosiy omillaridan biri bu, o'qitishning eng yuqori saviyadagi bo'lishi, ya'ni yakka guruhga o'tishdir.

Yakka guruh o'qitishda asosan guruhlarning differensial o'qitish usullari yanada samaralidir. Buning uchun kategoriyalar bo'yicha bo'linib o'qitilsa, o'qitishning samarasi yanada yuqori bo'ladi: yakka guruh o'qitish prinsipida, (dasturli) o'qitish usuli: umumiy o'qitish usulida.

Yakka guruh o'qitishdagi prinsiplar asosan talabalar bilan o'qituvchi o'rtasida ko'proq muloqotda bo'lishini talab qiladi.

(Dasturli) o'qitish usulida esa, davlat dasturi asosida o'qituvchi tomonidan tuzilgan dastur, ya'ni bu dasturni blok hamda operatorlarga ajratilgan holda olib

boriladi. (Dasturli) o'qitish talabalarining bilim saviyasini yanada chuqurroq o'qitishga, talabchanlikni yanada oshiradi.

(Dasturli) o'qitishning afzalligi shundan iboratki, o'tilgan matnni talaba bilan yakka holda qaytarish qulaylik tug'diradi. Shuning uchun talabada tushunarsiz matn deyarli qolmaydi, albatta bu usulni guruhlar uchun qo'llash qulaylik tug'diradi.

Praktik holda qo'llash usullari asosan umumiy hollar uchun qo'llaniladi. Guruhlarni ajratilgan holda o'qitish umumiy o'qitishda qo'l keladi. Buning uchun algoritmdan foydalanamiz.

A - matrisasi o'qishning muvaffaqiyatli bo'lishini belgilasa, ya'ni bir vaqtda imtihonlarni borishi talabalarining bilim saviyasini tekshirishda qo'llaniladi.

V - matrisasi esa umumiy ta'limda amaliy bilimlarning o'rtachasi ko'rinadi.

A va V matrisa ko'rinishdan asosiy maqsad, o'qitishning (tarkiblash) usulini (yasalishi) yaratilishi bo'lib, o'qitilayotgan dasturlarga bilim jihatdan umumiy yondashishdan iboratdir.

Differensial o'qitishning qulayligi shundan iboratki, bo'lajak muxandis-muallim va muxandislarni mustahkam chuqur bilim olishiga katta yordam ko'rsatadi.

Shuningdek, hozirgi qayta qurish va oshkoralik davri zamonaviy mutaxassis kadrlarni har jihatdan ham nazariy, ham amaliy etuk bo'lishini taqozo etmoqda. Shuning uchun oliygohlarda fizika fani o'qitishning turli metod va usullaridan foydalanish, texnika vositalaridan qo'llanish maqsadga muvofiqdir.

Yakka guruh o'qitish testdan integrasion (bir butun qilib birlashtirish yoki yaxlit holatga keltirish) uslubida foydalanish.

Test uslubida talabalardagi olingan imtihonlar, asosan ko'p kamchiliklarga ega, masalan, ma'ruza o'qilgan matnlarni ko'pchiligini testga savol tariqasida kiritish mumkin, lekin shu matnni 50-70% miqdorida unumli savollar bo'ladi. Shu matndagi materiallarni to'la talabadan talab qilish uchun, talaba bilan bo'ladigan, laboratoriya darsida o'tiladigan materiallarni bir qanchasini og'zaki savol-javob orqali to'ldirish mumkin.

Talaba bilan yakka uslubda ishlashda asosan, amaliy mashg'ulotlarda, laboratoriya ishlarda ishlash bir qancha osonlik tug'diradi.

Hozirgi qabul qilingan guruhlar asosan 8-12 talabalar sonidan iborat bo'lib, har bir talaba uchun o'qituvchi tomonidan, hamda talaba tomonidan ham tushunarli holda ishlashi mumkin.

Shu sababli test uslubida ishlash uchun laboratoriyada talaba nazariy bilimini amaliy ravishda qo'llanilishi, nazariyani chuqurroq o'rganishga olib keladi.

Tashkil etishning aniqligi. Bu talabning bajarilishi darsga ajratilgan hamma vaqtdan talabalar bilan ishlash uchun eng samarali foydalanishga imkon beradi. Bunga o'qituvchi va talabalarining darsga yaxshilab tayyorlanish, uning barcha elementlari tuzilishini puxta tuzish va darsni aniq tashkil etish orqali erishiladi.

Yuqorida keltirilgan talablar dars to'g'risidagi tushunchani cheklamaydi va to'la ochib bera olmaydi. Dasrlar bir-biridan mazmuni, maqsadi, tuzilishi, tashkil etilishi, o'tkazilish metodlari va boshqa jihatlardan farq qiladi, o'qituvchilarning shaxsiy fazilatlariga bog'liq bo'lgan sub'ektiv alomatlar to'g'risidagi gapirmasa ham bo'ladi. Shuning uchun darslarni klassifikasiyalash to'g'risidagi masala muhimdir.

Darslarni klassifikasiyalashning boshqa bir alomati ularni o'tkazish usullaridir. O'tkazish usullari, deganda, o'qituvchining ma'lum maqsadga qaratilgan faoliyatida, darsni o'tkazish metodikasida ifodalangan tashkiliy va boshqa mohiyatlar majmui tushuniladi.

## 2.6. Ma'ruza va uning turlari. Zamonaviy ta'lim tizimida ma'ruzaning o'rni.

### 1. Ma'ruza mashg'ulotining sistemasi, turlari va strukturasi.

Ma'ruza (Lektio) so'zi aynan tarjima qilinganda “o'qish” degan ma'noni anglatadi. U o'rta asr universitetlarida quyidagicha amalga oshirilgan: manbalardan matnlar o'qilgan va so'ngra o'quvchilar unga izoh berishgan. 18 asrdan boshlab ma'ruza o'z shaklini o'zgartirgan. Bunda o'qituvchi og'zaki hikoya qilib bergan va u yoki bu ko'rgazmalardan foydalanilgan.

Ma'ruza mashg'ulotining sistemasi

O'quvchilarda bilimni o'zlashtirish turli darajada kechadi. Ba'zilar yangi materialni faqatgina qabul qiladi va fikrlaydi, ba'zilar esa olingan bilimni dastlabki holatlarda qo'llashi ham mumkin.

O'quvchilarda o'zlashtirish darajasining turlichaligini va materialni o'rganishning doimiyligini e'tiborga olgan holda materialni aniq rejalashtirish, fan bo'yicha mashg'ulotning butun tizimini, ya'ni o'quvchilardek ularning bilim darajasini chuqur anglashi lozim.

Mashg'ulot tizimi ma'lum mavzu ustida mantiqan asosan ishlash, malaka va ko'nikmalarni maqsadli yo'naltirishni shakllantirish imkonini beradi.

Mashg'ulot tizimini rejalashtirishda o'quvchilar tomonidan yangi materialni o'z vaqtida idrok etishlari lozimligini e'tiborga olish kerak. So'ngra yangi material bilan tanishuv, ya'ni idrok etish, fikrlash, bilimni dastlabki mustahkamlash rejalashtiriladi. O'zlashtirishning keyingi bosqichi takrorlash, birlashtirish, bilimni tizimlashtirish, ularni yangi hollarda qo'llash hisoblanadi.

Maxsus fanlar bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlari uchun olingan bilimlarni takrorlagan va yangi bilimlarga ega bo'lgan holda ishlab chiqarish jarayonining texnologik sikllarini bayon qilishning uzluksizligi va ketma-ketligi xarakterli hisoblanadi.

### Ma'ruza mashg'ulotining turlari


Maxsus fanlarni o'qitishda ma'ruza mashg'ulotining quyidagi turlari keng qo'llaniladi:

- **ma'ruza**- monolog, bunda material o'qituvchi tomonidan bayon qilinadi, auditoriya esa passiv tinglovchi hisoblanadi(materialni bayon qilishni bu usulining samaradorligi past bo'lib, butun ma'ruza davomida auditoriya e'tiborini kerakli darajada deyarli ushlab turib bo'lmaydi; bundan tashqari ma'ruzachi o'quvchining e'tibori va “fahmlash kuni” haqida chuqur tasavvur ega bo'lmaydi);

- **ma'ruza-dialog**, bilim olishning odatdagi passiv shaklini o'qituvchining auditoriya bilan savol-javob orqali munosabat o'rnatishi tufayli faol shakliga aylantirishga imkon beradi

Ma'ruzachi tinglovchini o'tkaziladigan tahlillariga jalb qiladi, ular bilan birgalikda o'rganiladigan hodisaning yuzaga kelish sharoitlarini va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlaydi. Materialni bunday shaklda bayon qilishga, balki o'ylashga-muhokama qilishga imkon beradi.





- **muammoli ma'ruza**, bunda o'quvchilarga asl mohiyat ochib berilmaydi, balki ularning oldiga ma'lum muammo qo'yiladi va echish taklif qilinadi, o'qituvchi esa uni echishga yo'l-yo'riq ko'rsatib turadi.

Ma'ruzaning bunday turi asosan don va nonning nuqsonlari va kasalliklari kabi mavzularni o'rganishda samaralidir. Masalan, o'qituvchi quyidagicha muammoni qo'yadi: non zavodidan hajmi kichik, ustki korkasi yassi bo'lgan tayyor mahsulot chiqayapti. Nonning bunday nuqsonli bo'lishiga sabab nima? Tinglovchilarga o'zlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosida holatni tahlil qilish o'z xulosalarini asoslash va mazkur muammoni echishning ilmiy-asoslangan yo'llarini taklif qilish tavsiya etiladi.

Ma'ruzaning yana shunday turi mavjud bo'lib, materialni uzatish konsentrik tavsifga ega va bunda avval olingan holat takrorlanishi, rivojlanishi chuqurlashuvi, yangi qismlarga ajratilishi lozim. Biroq, texnik ma'ruzalarni o'qishda materialni uzatishning bunday shakli o'qitishda kerakli o'rnini topmadi.

### **Ma'ruza mashg'ulotining strukturasi**

Ma'ruza strukturasi didaktik maqsadlar uchun aniqlanadi. Ma'ruzaning tashkil qiluvchi qismlari (bosqichlari) o'zaro mustahkam bog'langan va bir-birini izohlaydi.

Maxsus fanlardan ma'ruza o'qishda quyidagi bosqichlar keng qo'llaniladi:

- ma'ruza mavzusini va maqsadini ma'lum qilish;
- o'tilgan materialni takrorlash va yangi bilimlari qabul qilishga tayyorlash;
- yangi materialni ma'lum qilish uni o'quvchilar tomonidan idrok etilishi va birlamchi anglashi;
- ma'ruza mavzusi bo'yicha mustaqil tayyorlanish uchun topshiriq;
- ma'ruza mashg'ulotini yakunlash.

Yuqorida sanab o'tilgan bosqichlarning qisqacha tavsifi haqida to'xtalib o'tamiz.

Ma'ruza mavzusini va maqsadini ma'lum qilish. Ma'ruza maqsadi ko'rib chiqiladigan ma'ruza mashg'ulotida savol ko'rinishida ma'lum qilinadi. O'tilgan materialni takrorlash va yangi bilimlarni idrok etishga tayyorlash, oldingi mashg'ulotlarda o'tilgan materiallarni takrorlash ilgari o'zlashtirilgan bilimlar bilan yangi materialni bog'lovchi zveno bo'lib xizmat qiladi, yoki oldingi mashg'ulotlarni mustahkamlashga yordam beradi. Takrorlash qoidaga binoan auditoriya bilan frontal ish ko'rinishida o'tadi. Bu bosqich ko'p hollarda o'qituvchilardan so'rashni o'ziga biriktiradi.

Maxsus fanlardan ma'ruza o'qiganda o'quvchilarni yangi materialni qabul qilishga tayyorlash ularda yangi materialni yaxshi o'zlashtirishga yordam beradigan bilimlarni qayta esga olish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Masalan, “Xom ashyoni qabul qilish, saqlash va ishlab chiqarishga tayyorlash” mavzusini o'rganganda asosiy qo'shimcha xom ashyoning xossalari haqidagi materiallarni takrorlash lozim chunki nima uchun xom ashyoni saqlashda u yoki bu sharoit zarur ekanligini yaxshi tushunishga imkon beradi.

Yangi materialni ma'lum qilish, uni o'quvchilar tomonidan idrok etilishi va anglash.

Bu erda ma'lum turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi texnologik jarayonning navbatdagi bosqichi ko'rib chiqiladi, mos uskunalar o'rganiladi va h.k., ya'ni o'quvchilar yangi ma'lumotlarni oladilar.

Tushuntirish ushbu bosqichda o'qituvchi tomonidan maqsadga muvofiq deb topilgan usulda olib boriladi. Bu bayon qilish usuli kuzatuvlar, demonstrasiya, evrestik suhbat va shu bilan uyg'un holda bo'lishi mumkin va texnik vositalarni to'g'ri tanlash hamda ulardan mohirona foydalana bilish zarur.

O'qituvchi tomonidan yangi material tushuntirilayotgan vaqtda ma'ruzaning echimli holatlariga o'quvchilarning diqqatini ularni takrorlash yoki “e'tibor qilinglar”, “alohida ta'kidlash lozim” kabi ifodalarni qo'llagan holda jalb qilish lozim.

Ma'ruza mavzusi bo'yicha mustaqil tayyorlanish uchun topshiriqni doimo mashg'ulot oxirida berish maqsadga muvofiq, biroq buni avvalroq ham amalga oshirish mumkin. Mustaqil tayyorlanish uchun beriladigan topshiriq beistesno barcha o'quvchilarga mustaqil tayyorlanishlari uchun qulay bo'lishi lozim. Bu talablarni esa o'quvchilarni tabaqaga ajratib va yakka holda yondashuvni amalga oshirganda bajarish mumkin.

Zarur bo'lganda topshiriqning asosiy holatlari bo'yicha qo'shimcha tushuntirishlar o'tkaziladi.

### **Ma'ruza mashg'ulotiga yakun yasash**

Bu bosqichda o'quvchilardan mazkur ma'ruzaning asosiylarini ajrata olishlariga erishmoq lozim. Bunga o'qituvchining savollari ko'mak beradi.

Mashg'ulot so'ngida o'qituvchi rejada ko'rsatilganlarning barchasi bajarildimi, yo'qmi tekshiradi. Agar reja to'liq bajarilgan bo'lmasa, o'qituvchi bunday holatning sababini ko'rsatadi.

## **2. Didaktikaning etakchi qoidasini tanlash**

Mavzuning o'quv elementlari graflarini ishlab chiqqan holda o'qituvchi ushbu mavzu bo'yicha ma'lumotlarni mazmuni va strukturasini aniq va ravshan qilib bajaradi. U har bir o'quv elementini o'zlashtirilish darajasini belgilagandan keyin, ta'limning zarur sifatini ta'minlovchi o'quv faoliyatining tarkibini belgilaydi. Maqsadini aniqlab, didaktik sistemani tanlaydi.

Didaktik sistemaning ko'rsatgichlarini va uning aniqlanishini ko'rib chiqamiz.

O'zlashtirishning kutiladigan darajasi turli darajada ketma-ket nazorat o'tkazish yo'li bilan aniqlanadi.

Guruhning barcha o'quvchilari uchun o'zlashtirish natijalari. Agar barcha o'quvchilar etarlicha yuqori baholar olishsa, ya'ni "a'lo" va "yomon" baholar orasidagi farq katta bo'lmasa natija optimal hisoblanadi.

Ma'lumotning o'zlashtirilgan qismi ulushi. Bu ko'rsatgich o'zlashtirilgan ma'lumotlar hajmining ishlangan ma'lumotlar hajmiga bo'lgan nisbati bilan aniqlanadi.

Ishlangan ma'lumot o'quvchiga u yoki bu ko'rinishda etkazilgan ma'lumot.

O'zlashtirilgan ma'lumot deb o'quvchi xotirasiga muxrlangan, bilim, malaka va ko'nikmaga aylanuvchi ma'lumotga aytiladi.

Ma'lumot hajmini etarlicha aniqlik bilan nashr qilingan matnning beti yoki qatorlari soni bo'yicha, plyonkaga yozib olingan nutqqa ovoz berilgan vaqt bo'yicha aniqlash mumkin.

Ta'lim vaqti ma'lumot hajmidan yoki unga ishlov berish vaqtidan bog'liq.

Auditoriyaning to'liqligi bu mashg'ulot o'tkazishda bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni.

Ta'limning rejaliligi mashg'ulotning odam-soat qiymati bilan aniqlanadi.

Didaktik sistema 3 ta asosiy tashkil qiluvchilari bilan tavsiflanadi: boshqarish turi bilan, ma'lumot jarayonining turi bilan, ma'lumotni uzatish vositalari tipi va bilim faoliyatini boshqarish bilan.

Boshqarish turlari:

Orasi ochiq yoki uzoq – o'qituvchi o'quvchilarga ma'lumotni beradi, biroq u o'quvchilar tomonidan qanday idrok etilayotganligi haqida(ya'ni qaytar bog'liqlik yo'q) ma'lumotga ega bo'lmaydi.

Tutash yoki yopiq – o'qituvchi va o'quvchi orasida doimiy qaytar bog'liqlik mavjud, ya'ni o'quvchilarning o'quv faoliyati hamma vaqt tekshirib turiladi. Boqarishning tutash turi uzoq turiga qaraganda, tabiiyki, ta'limning sezilarli darajada yuqori natijalarini ta'minlaydi.

Ma'lumot jarayoni turlari. Agar o'quvchining boshlang'ich bilim darajasi etiborga olinsa, oldingi o'quv elementlarini o'zlashtirish nihoyasiga etgan bo'lsa, materialni uzatish me'yori va tempi o'quvchi uchun qulay bo'lsa, abstraksiyaning turli pog'onalarida uni idrok etish qobiliyati va me'yordan mumkin bo'lgan chegirish va boshqa individual xususiyatlar e'tiborga olinsa, o'quvchilar tomonidan ma'lumotlarni o'zlashtirish samarali boradi.

Shundan bog'liq holda ma'lumotni uzatishning (ma'lumot jarayoni) ikki turi mavjud: tarqoq (yo'naltirilmagan, egasiz): o'qituvchidan guruhning har bir o'quvchisiga, ommaviy holda bir xil ma'lumot ketadi. Yo'naltirilgan (individuallashtirilgan): ma'lumot har bir o'quvchiga individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uzatiladi.

Bilish qobiliyatini boshqarish vositasi va ma'lumotlarni uzatish ikki tipga bo'linadi:



- qo'lda (avtomatlashtirilmagan, mexanizasiyalashtirilmagan) - bu o'qituvchining o'zi – uning nutqi, ko'rinishi, imo-ishorasi, mimikasi, yaqqol izohni talab qiluvchi materiallarni doskada aks

ettirilishi, oddiy ko'rgazmali qo'llanmalar.



- avtomatlashtirilgan texnik vositalar – bular shunday qurilmalar bo'lib, o'qituvchining ishtirokisiz o'quvchilar faoliyatini yoki ma'lumot uzatishni boshqaradi yoki unisini ham bunisini ham bir vaqtda bajaradi. Unga audiovizual moslamalar (kino, televidenie, radio, magnitafon va boshq.), bosma qurilmalari (darslik, instruksiya), kompyuter va hokazolarga joylashtirilgan o'quv dasturlari kiradi. Pedagogik ma'lumotlarning o'zlashtirishini faollashtiradi.

O'qituvchining etakchilik roliga qo'l va avtomatlashtirilgan texnik vositalarning rasional uyg'unlashuvi optimal variant hisoblanadi.

Taxminiy ko'rsatgichlar o'qitishning konkret sharoitidan va qo'yilgan maqsadidan bog'liq holda optimal didaktik sistemani tanlashga yordam beradi. Ko'rsatgichlar taqriban aniqlangan. Absolyut kattalikni berish imkoniyati yo'q deb qaraladi: har bir didaktik sistema ko'rsatgichlari bo'yicha qiymatlar juda ham kam.

Ko'rsatilgan turlarni uch tashkil qiluvchisining turli uyg'unlashuvi quyida keltirilgan sakkiz monosistemani hosil qilishi mumkin.

**1-sistema - An'anaviy.** Bizning davrimizda an'anaviy sistemani qo'llashning o'ziga xos namunasi bo'lib ma'ruza hisoblanadi.

Ma'ruza qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma'lumotga ishlov berish imkonini beradi. O'qituvchi o'z mehnatinining hech qanday avtomatik vositalaridan foydalanmasdan butun mashg'ulot davomida ishlashga majbur. Auditoriya e'tiborini doimiy ravishda ushlab turish uchun, hattoki tajribali va qobiliyatli o'qituvchining ham asablarini taranglashuvini alohida ta'kidlash lozim. Bu erda o'qituvchining ma'lumotlarni qiziqarli qilib etkazib berish qobiliyati, mashg'ulotni jo'shqin va ajoyib qilib o'tkazishi, nutqining ravonligi, burro mimikaga egaligi g'oyada muhim rol o'ynaydi.

**2-sistema - Ma'lumotning texnik vositalari (MTV).** Bu didaktik sistema o'qitishning an'anaviy usulidan, ya'ni o'qituvchining o'rnini bosa oladigan, ma'lumotlarni uzatuvchi va idrok etish faoliyatini boshqaradigan avtomatlashtirilgan vositalar bilan farq qiladi. Bu sistema keyingi vaqtlarda: markaziy televideniyaning o'quv dasturlarida; o'quv muassasining xususiy tarmog'i orqali uzatiladigan ma'ruzada; o'quvchining istagiga binoan hamma vaqt harakatga tayyor turuvchi, takror aks ettiruvchi qurilmalar, magnitafon va videomagnitafon yozuvlarida; radio- ma'ruzalarda; disk va magnitafon lentalariga yozib olingan chiqishlarda va ma'ruzalarda, o'quv kino va diafilmlarda keng qo'llanilmoqda. Bu sistema birinchi sistemaga qaraganda ma'lum afzalliklarga ega. Uning yordamida yaxshi ma'ruzachilarning, etakchi olimlarning so'zlarini mamlakatning istalgan nuqtasiga etkazish mumkin. Kinodagi mavjud g'aroyib imkoniyatlardan foydalangan holda eng murakkab jarayon va hodisalarni dinamikada topqirlik bilan va yorqin namoyon etish

mumkin. Radio va televideniyaning qo'llaganda guruhlar liq to'ladi. Biroq o'zaro bog'liqlikning yo'qligi, informasion jarayonning yo'qligi, informasion jarayonning javobgarsiz yo'naltirilishi bu didaktik sistemada ta'limning samaradorligini keskin tushuntiradi va nihoyat o'zlashtirish darajasi bo'yicha natijalar sayozlanadi.

**3-sistema - Maslahat yoki yomon repetitor** – informasion jarayonlarni uzatishda qo'l vositalari va uzoq boshqarishga xos: o'qituvchining bir o'quvchi bilan shug'ullanishi, ikkinchi o'quvchi qanchalik muvaffaqiyatli o'zlashtirsa, birinchi o'quvchi shunchalik qiziqmaydi.

Bu sistemada o'zaro bog'liqlikning yo'qligi ko'pgina o'quvchilar uchun o'zlashtirishning quyi darajasiga olib keladi.

**4-sistema - Odatiy darslik.** Bu sistemani sirtqi o'quvchining mashg'uloti odatiy darslik bo'yicha deb oddiygina tushunish mumkin. Bunda o'quvchining e'tibori u yoki bu ketma-ketlikda bayon etilgan ma'lumotga qaratilgan bo'ladi, biroq o'quv faoliyati va o'zlashtirish nazorati bo'yicha boshqaruv yo'q. Ular kelajakda mustaqil o'rganish imkoniyatini bermaydigan material bilan ishlaganda, ko'p hollarda birinchi darajadan yuqoriga ko'tarila olishmaydi va baholar sayozligi yuqori bo'ladi.

**5-sistema - Kichik guruhlar.** Tarkibi 15 kishidan oshmaydigan guruhlarda, o'qituvchi, barcha o'quvchilarga bir xil ma'lumotni uzatadi (tarqoq jarayon) chegaralangan darajada bo'lsa ham o'zaro bog'liqlikni o'rnatish va zaruriyat tug'ilganda alohida shug'ullanishga muhtoj o'quvchilar bilan individual ishlash imkoniga ega bo'ladi. Bu sistema o'zlashtirishning 111 darajasiga olib chiqishi mumkin. Biroq guruhlarining to'lmashligi ta'lim qiymatining oshuviga olib keladi.

**6-sistema - O'qituvchisiz avtomatlashtirilgan sinf.** Barcha o'quvchilarga markaziy boshqaruv qurilmasidan yoki individual qurilmadan bir xil ma'lumot va uni o'zlashtirish bo'yicha kadrlarning ekrandagi aksi yoki bosma kartochkalari, kitob, risola ko'rinishida qo'llanmalar kelib tushadi. Har bir o'quvchi individual qurilma yordamida boshqaruv qurilmasi bilan o'zaro bog'lanishni amalga oshiradi. Boshqaruvchi qurilma o'qituvchiga komanda beradi: nazorat faoliyati to'g'ri bajarilganda – keyingi qadamga o'tilsin, noto'g'ri bo'lganda – oldingi yoki ilgari o'tilganlar takrorlansin.

Bu sistemani o'qituvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda sust moslashtiruvchi deb hisoblash mumkin, chunki u faqat o'zlashtirish sur'atini individualizatsiyasiga olib keladi. Shuning uchun bu sistema “sof holda” qo'llanilmaydi – avtomatlashtirilgan sinflarga o'qituvchi ishi hisobiga bartaraf etilishiga va uning afzalliklaridan foydalanishga imkon yaratadi va shuning bilan birgalikda o'qituvchi har bir yordamga muhtoj o'quvchiga zarur yordamni beradi.

**7-sistema - Rahbar.** Bu sistema 3-sistemadagi o'zaro bog'liqlikning mavjudligi o'qituvchi bilan shug'ullangan holda o'quvchilar faoliyatini kuzatadi,

o'quv ma'lumotini o'zlashtirishini tekshiradi, uning ishini tuzatadi. Shuning uchun bu sistemadagi individual mashg'ulotlarga nafaqat qobiliyatli, vijdonli alohida o'quvchi bilan, balki har bir o'quvchi bilan ham erishish mumkin. Sistema bahosining yuqoriligi va o'rta maxsus o'quv muassasalarida qo'llash imkoniyatining chegaralanganligi sababli gohida: kurs va diplom loyihalarini bajarishda, ishchi kasbini o'rganishda va hokazolarni bajarishda uchrab turadi.

**8-sistema - Adaptiv dasturiy boshqaruv.** Oldingi sistema kabi individual o'qitishga asoslangan, biroq o'qituvchi o'rnida avtomatik qurilma harakat qiladi. Unga ta'lim dasturining kiritilganligi tufayli o'quvchilar kerakli ma'lumotlarni, ya'ni mashqni bajarish uchun topshiriq, ularni rasional bajarish bo'yicha instruktaj va o'zlashtirish nazorati uchun topshiriqlar oladilar.

**9-sistema - Didaxografiya.** 1- va 4- sistemaning organik uyg'unlashuvini namoyon qiladi: o'quvchilar o'qituvchini nafaqat tinglaydilar, balki uning instruksiyasi bo'yicha darslik, grafik, sxema, ko'rgazmali qo'llanmalarining fragmentlarini o'rganadilar, hamma uchun umumiy bo'lgan mashqlarni bajaradilar.

Bu sistemaning afzalligi o'qituvchilarning ovoz apparatini zo'riqishini kamaytirish bilan bir qatorda o'quvchini I-darajaga olib chiqish imkoniyatidir. Boshqa qolgan ko'rsatgichlar past bo'lib, taxminan 1-sistemaga mos keladi, bu esa o'zaro bog'liqlikning mavjud emasligi bilan izoxlanadi.

Psevdadidaxografiya (soxta didaxografiya)ning 2 ko'rinishi mavjud:

A) 1-sistemaning ko'p qo'llanishi va sinfdan tashqari mustaqil shug'ullanishda, odatdagi darslik yoki uning konspektini o'rnini bosa oluvchilarni qo'llaganda chegaralanishi.

B) 4-sistema odatiy darslikni ko'proq qo'llanishi va 1- sistemaning kirish, sharhiy va yakunlovchi maruza ko'rinishida chegaraviy qo'llanishi.

**10-sistema – Zamonaviy.** Didapografiyadan farqli o'laroq unga ma'lumotning texnik vositalari (asosan kino, diapozitivlar va diafilmlar) kiritilgan.

**11-sistema - Dasturlashtirilgan talim.** Individuallashtirilgan talim bo'lib, tarkibi qator sistemalarning: 1, 2, 7 va 6 (8) organik uyg'unlashuviga asoslangan.

Ushbu aralash sistemaning asosi bo'lib, 6-monosistema xizmat qiladi. Unda asosiy malumotlarni uzatish va o'quvchilarning taxminiy, asosiy bajaradigan va nazorat faoliyatini boshqarish talim dasturi va mos qurilmalarda amalga oshiriladi.

6-sistema, odatda, mashg'ulot paytida o'quvchining asosiy vaqtini band qiladigan funksiyalarni o'ziga qamrab oladi. Shuning uchun dasturlashtirilgan ta'limning borishida 7-sistemani qo'llash, yani o'qituvchining har bir o'quvchiga individual yordam ko'rsatish imkoniyatining mavjudligi va muhimligi o'zaro aloqa yordamida namoyon bo'ladi.

O'quv elementini rejalashtirishni o'rganish uchun lozim bo'ladigan didaktik sistemani tanlashni ikkita asosiy shartdan kelib chiqqan holda olib borish kerak.

1. O'zlashtirishning ko'zda tutilgan darajasiga erishish.

2. O'kuv muassasining real sharoitlarini va imkoniyatlarini.

Mashg'ulotning real sharoitlariga mos keluvchi didaktik sistemasi rejalashtirilgan o'quv elementi yutuqlariga erishishni taminlaydi.

### **Mashg'ulotni tashkil qilishning optimal shakllarini tanlash**

Mamlakatimizda sodir bo'lgan o'zgarishlar oliy ta'lim sistemasida ham o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Biroq, yaqin kelajakda ma'ruza oliy ta'limda o'qitishning muhim shakllaridan bo'lib qoladi deb qarash mumkin. Ma'ruzaning bu o'zgarishlar jarayonida bartaraf etilishi lozim bo'lgan asosiy kamchiligi - tinglovchilarning passivligi, ma'ruza paytida ularning «aqlning yalqovligini» bartaraf qilishi lozim, chunki ma'ruza natijasida tinglovchilar muammoni mustaqil hal qilishga; tinglovchini dunyoqarashini kengaytiradigan ma'ruzadan olingan ma'lumotlarni, yangi g'oyalarni tezda idrok etishga, ularni chaqqonlik bilan qo'llay olishga, va nihoyat tinglovchida madaniyatlikni, uning umumiy madaniyat darajasini ko'tarishga erisha olishlari kerak.

Biroq oxirgi paytlarda, ma'ruzaning muayyan afzalliklariga qaramasdan, uning maqsadga muvofiqligi shubha tug'dirmoqda. Bu shubhalarga eng avvalo Oliy ta'lim muassasalari tomonidan taqdim etilayotgan g'oyat zo'r imkoniyatlar o'qitishning yangi usullari va vositalari (o'qitishning texnik vositalari, dasturlashtirilgan ta'lim va h. k. ) sabab bo'lmoqda. Ba'zan bu yangi usullar «eski uslubdagi» ma'ruza bilan qarama-qarshi quyiladi va ma'ruza birinchi navbatda tinglovchilarning passivligi uchun tanqid ostiga olinadi.

Auditoriyaning e'tibori haqidagi savol alohida jiddiy masala bo'lib turibdi. Bu avvalambor «massaviy yoki audiovizual madaniyat, ya'ni kino, radio, televideniening rivojlanishiga sabab bo'lgan madaniyatning tarqalishi bilan bog'liq.

Zamonaviy talabni 30-40 yillarga qaraganda texnika yutuqlari bilan lol qoldirish, fanning istiqbolli rivojlanishiga jalb qilish murakkab. Biroq nafaqat buni e'tiborga olish, balki radio va telema'lumotlarni olishga o'rgangan zamonaviy auditoriyada toliqish va e'tiborni yo'qotish davri 30-40 yillar auditoriyasiga nisbatan tez boshlanadi. Shuning bilan birga ma'ruza davomida e'tiborning susayishi tezlashadi. Nima qilmoq kerak? Audiovidiozal madaniyatining namoyishkorona g'alabasini to'xtatish, albatta, mumkin emas. Biroq zamonaviy ma'ruzani tubdan o'zgartirish mumkin va zarur, bilimni idrok etishning odatdagi passiv shaklini uning faol shakliga aylantirish, ya'ni ta'lim va tarbiyaning asosiy vositasi, o'qituvchining auditoriya bilan aloqasi bo'lgan ma'ruzadan aslo voz kechmasdan shaklning o'zini tuzatish lozim.

Bu muammoni echishning bir necha yo'llari mavjud:

- birinchidan, ma'ruzaga faol muammoli shakl bermoq lozim;
- ikkinchidan, texnik ma'ruzada ilmiy-texnik muammoning uyg'unlashuvini topish;

- uchinchidan, turli texnik vositalardan ma'qul uyg'unlikda foydalanish;
- to'rtinchidan, ma'ruzada ishlashni (aynan ishlashni, davomatni emas) kitobdan mustaqil ishlash bilan bog'lash lozim.

Ma'ruzachi sinov uchun zarur bo'lgan barcha materialni berishi kerak emas. Uning bir qismi, albatta mustaqil ishlashga chiqarilishi lozim. To'satdan bo'ladigan nazorat tekshiruvlariga, talablarning ma'ruzada chiqish qiladigan referatlarga tayyorgarligi ma'ruzachi «o'qimagan» mustaqil o'qish uchun qoldirilgan materialdan kiritilishi shart. Bularning barchasi ta'lim jarayonini, xususan ma'ruzani faollashtirishi lozim.

Ma'ruza material auditoriyaning tayyorgarlik darajasiga muvofiq bayon etilishi zarur. Agar auditoriya sust tayyorlangan bo'lsa, materialni bosqichma-bosqich, uzatish ko'tarilayotgan chiziq bo'yicha uzatish maqsadga muvofiq; yohud- konsentrik (umumiy markazga ega), bunda holat boshida olingan bir material takrorlansin, rivojlantirilsin, chuqurlashtirilsin va yangi-yangi nisbatlarda qismlarga ajralsin. To'g'ri xulosa tinglovchilar tomonidan xayolchan va passiv emas, balki mulohaza bilan qabul qilinishi kerak, va bu xulosa ularning mustahkam e'tikodi bo'lsin – aynan mana shu bilan ma'ruzaning samaradorligiga va faolligiga erishiladi.

Maxsus fanlar bo'yicha ma'ruzaning to'g'ri matematizatsiyasi va munozarasi, texnik vositalari uning qurilishini va idrok etishini muhim o'zgartirishi, tinglovchini ma'ruzachi bilan faol ishlashga majbur qilishi lozim. Biroq hech qanday texnik vosita ma'ruzachining o'rnini bosa olmaydi va bosa olmasligi kerak.

Ta'lim jarayonining industrializatsiyasi ma'ruza auditoriyasini turli xil texnik qurilmalar, masalan tinglovchilarning e'tiborini jamlashga xalaqit beruvchi televizorlar bilan qo'pol holda to'ldirib tashlamaslik lozim va muhim.

Ma'ruzani va boshqa turdagi mashg'ulotlarni faollashtirish muammosi, bu muammoni echish yo'llarini izlash birinchi navbatdagi ahamiyatga ega va zamonaviy oliy maktabni takomillashtirishning uchta umumiy aspektlari bilan: aynan bilim sistemasini, o'qitish sistemasini takomillashtirish bilan bog'liq.

## **2.7. Amaliy mashg'ulotlar va ularni tashkil qilish metodikasi**

### **1. Tajriba-amaliy mashg'ulotlarining turlari va o'tkazish uslublari**

O'quv jarayonida o'quvchini o'rganilayotgan materialga yanada yaxshiroq bog'lanishini ta'minlovchi, yuqori sifatli mahsulot olinishini ta'minlovchi, oziq-ovqat mahsulotlarini iqlab chiqaruvchi texnologik jarayonning asosiy ko'rsatkichlarini nazorat qilish uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmani rivojlantirishda laboratoriya – amaliyot mashg'ulotlari muhim rol o'ynaydi.

### ***Laboratoriya ishlari***

Laboratoriya ishlari deb jarayonlarni, holatni, tabiat ob'ektlarni, maxsus qurilmalar, priborlar, instrumentlar yordamida sun'iy yaratilgan sharoitlarda texnika va texnologiyani amaliy o'rganish usuliga aytiladi.

Amaliyot- o'quvchilar tomonidan induvidual mavzu, mazmun va reja bo'yicha bajariladigan ishlar; laborotoriya ishlarini bunday tashkil qilish dasturning ma'lum bo'limini o'tib bo'lgandan keyin yoki butun kursni o'rganish oxirida amalga oshiriladi.

Shuni ta'kidlash lozimki fanlar bo'yicha barcha laboratoriya mashg'ulotlari ilmiy tadqiqot elementiga ega.

Biz induvidual nazorat savollari va topshiriqlarining o'ylab topilgan tizimini qo'llashni taklif qilamiz va bunda yaqqol ifodalangan professional tavsif berish mumkin.

Ko'pgina institutlarning ish tajribasidan aniqlanishicha, laboratoriya ishlari instruksiyasida mavjud topshiriqlar talabalarni mashg'ulotga yanada jiddiy yondashuvga undaydi, mazkur laborotoriya ishlari bo'yicha asosan zarur elementlarga e'tiborini qaratadi. Odatda bu topshiriqlar barcha talabalar uchun bir xil, shuning uchun ikkita to'g'ri javoblar butun kursga ma'lum bo'ladi. Bu holatda talabalarning mustaqil fikrlashining rivojlanishi uchun ularning izlanuvchanlik va ijodiy yondashuvi haqida gapirmasa ham bo'ladi.

Bizning amaliyotimizda murakkab, bir necha bor takrorlanuvchi holatdan chiqish yo'li topilgan: instruksiyaga kiritilgan nazorat savollari va topshiriqdan tashqari ushbu ishni bajaruvchi talabaga alohida qo'shimcha topshiriq berish kerak. Shu bilan birga bitta ishni bajaruvchi har bir talabaga turlicha topshiriq beriladi. Albatta, bunday yondashuvda o'qituvchiga ham talablar: u berilgan amaliyotga ishlov beruvchi har bir talabaga etadigan topshiriq zahirasi ega bo'lishi kerak.

Topshiriqni qiziqarli qilib shakllantirish imkonini qo'ldan chiqarmaslik kerak. Masalan, talabalarga kraxmalning sifat ko'rsatkichlarini aniqlash o'rniga, o'qituvchi uning turini, navini va tozalik darajasini aniqlashni taklif qiladi. Un, non texnologiyasi bo'yicha tayyor mahsulotning yomon chiqish sabablarini o'rganish va uni bartaraf qilish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Laboratoriya ishini o'tkazishda andozani bartaraf qilish, topshiriqni bajarilganligini tekshirishning turli tuman usullarini qo'llashga imkon beradi.

Tekshiruv mashg'ulot boshida o'quvchilarning laborotoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik darajasini aniqlashda, oldin bajarilgan ishni qabul qilishda mashg'ulot paytida amalga oshirilishi mumkin.

Bitta talabaga berilgan topshiriqni tekshirish uchun olingan natijalar muhokamasiga butun guruhni qo'shish maqsadga muvofiq.

Laboratoriya mashg'ulotlarini ilmiy tadqiqot ishlari elementlari bilan o'tkazish usuli Maxsus kafedralarining ilmiy-uslubiy mavzulari doirasida ishlab chiqiladi va ta'limning differensialangan shakli hisoblanadi. Avvalo ushbu mashg'ulotlar maxsus fanlar bo'yicha yaxshi o'zlashtirgan, fanga bo'lgan o'z

qiziqishini namoyon qilgan o'quvchilar uchun mo'ljallangan. Laboratoriya ishlariga tayyorlanish, natijalarga ishlov berish, hisobotlarni yozish o'quvchilar tomonidan darsdan tashqari vaqtda amalga oshiriladi.

O'qitish jarayonining bunday individualizatsiyasi o'quv faoliyatini faollashtiradi, natijada maxsus fanlarga qiziqishi ortadi va o'quv muassasining ilmiy potensialidan to'liqroq foydalaniladi.

O'qituvchilarning tadqiqotlarda keng ishtiroki o'quv jarayonining sifatiga samarali ta'sir qiladi. O'rtacha bilimli talabalarni ilmiy ishga jalb qilishga erishilsa ta'lim natijalariga bo'lgan javobgarlik sezilarli darajada ortadi.

Biz barcha muammolarni o'qituvchilarning bilish faoliyatini laboratoriya amaliyotida kuchaytirish va qo'shimcha topshiriqlarni qo'llashga majburlash fikridan yiroqmiz. Mashg'ulot strukturasi, instruksiya mazmuni, ularning differensializatsiyasi va shu kabilar bu muammoni echishda o'z ulushini qo'shadi.

### *Amaliy mashg'ulotlar:*

Amaliy ishlar deb malaka va ko'nikmani shakllantirishga hamda rivojlantirishga nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llashga qaratilgan ta'lim usuliga aytiladi.

Bu usul amaliy professional yo'nalishga ega texnik va texnologik fanlarni o'rganishda kuchli ahamiyat kasb etadi.

Amaliy ishlar hisoblanadi:

- Nazariy va amaliyot orasidagi bog'lovchi zveno
- Fan ichidagi va fanlararo bog'liqliklarning samarali vositasi
- Texnik va texnologik tafakkurni shakllantirishda hamda rivojlantirishda zarur didaktik vosita
- O'quvchilarning belgilarga o'rgatilganligi.

Amaliy ishlar nazariy ta'limda ko'pincha topshiriqlarning turli tiplari-hisobiy analitik, konstruktiv va boshqa shaklda ifodalanadi.

Ko'pincha mavjud «an'anaviy» usullar va uslubiy ta'lim o'quvchilarning boshiga maksimum ma'lumotlarni, xususan darslik mazmunini «joylashtirishga» yo'naltirilgan. Ilmiy texnik progressga sabab bo'luvchi texnik va texnologik fanlarda nazariy va amaliy ma'lumotlar hajmining keskin ortib borishi bu maqsadga erishishni yanada qiyinlashtiradi. Bir qancha pedagog va psixologlar mavjud fikrlar o'zgartirilishi lozimligi haqida o'z fikrlarini bildirdilar. Uning g'oyatda qat'iyligiga ko'ra bildirilgan fikrlarga qo'shilmaslik iloji yo'q, «Agar texnik o'quv muassasasida talabalarga ma'lum hajmdagi ma'lumot shunchaki berilsa, bunday o'qitish usuli vaqt va vositalarni bekorga sarflash hisoblanadi».

Bundan bog'liq holda texnik va texnologik fanlarni o'qitishda topshiriqlar rolini qayta ko'rib chiqish zaruriyati yuzaga keladi. Ma'lum ma'noda bu fanlarni o'rganishning «topshiriqli tamoyili», ya'ni ularni masala echishga yo'naltirish bilan o'rgatish haqida gapirish mumkin.

«Topshiriq» deb o'quvchi echishi kerak bo'lgan amaliy tavsifga ega muammoni aytamiz.

*O'quv topshiriqlari:*

Texnikaviy - bu insonlarning amaliy faoliyatida moddiy vosita sifatida ishlatiladigan qurilma va sun'iy tizim va ob'ektlar (masalan, bo'luvchi mashinalar)ning ishlab turishi (harakat tamoyili)ni aks ettiruvchi informasion modellar.

Texnologik - xonani va materiallarga ishlov berish hamda qayta ishlash mahsulotlarini olish jarayonini tavsiflovchi tasvirlovchi informasion modeldir.

Texnik va texnologik topshiriqlarning turli-tumanligi ularning alohida turlarining tasnifi va tavsifini talab qiladi. Amaliy mashg'ulot uchun ishlatiladigan topshiriqlarni didaktik tamoyili bo'yicha hisobiy, topshiriq-savol, eksperimental, hisobiy-analitikka bo'lish mumkin.

Hisoblaydigan topshiriqlar ko'pincha matematik operatsiyalarni bajarish uchun qiymatlarni saqlaydi.

Topshiriq-savollar (yoki sifatli topshiriqlar) murakkab hisoblashlarni saqlamaydi, biroq bu jarayonlar mohiyatini, ularning bilim qonuniyatini talab qilmaydi.

Bu topshiriqlar sababli izlanuvchanlik bog'liqliklarni echib bo'ladi.

Eksperimental topshiriqlar tajribalar o'tkazishni, boshlang'ich qiymatlarini ochish o'lchamlarini va ilgari olingan natijalarini tekshirish talab qiladi.

Hisobiy analitik topshiriqlar. Maxsus fanlarni o'rganishdan olgan bilimlar majmuasini qo'llashni talab qiladi. Topshiriqlar mazmuni va echish bo'yicha bir qator psixolog va didaktik talablarga javob berishi lozim:

Topshiriq dolzarb va etarlicha murakkab va echishga hammabop bo'lishi kerak

Topshiriq shartiga va uni echish jarayoniga faktlar hodisalarga aralash fanlardan kattaliklarni kiritish maqsadga muvofiq;

Yechish jarayoni o'quvchilardan tasavvurni, ijodiy tafakkurni namoyish etishni talab qilishi lozim;

Topshiriqni echish turli izlanish o'rniga ega bo'lish lozim;

Topshiriq uni muhokama qilish uchun vaziyat (yani muammoli vaziyat) yaratilishi lozim, tahlil va sintiz o'rniga ega bo'lishi lozim;

Yechimga ega bo'lmagan, shuningdek echish jarayoni «o'z vaqtida ma'lum muddatga cho'zilgan» (qo'shimcha ma'lumotlarni izlash uchun) topshiriqlar bo'lishi mumkin.

Topshiriqni echish-bu o'quvchilar tomonidan ma'lum bosqichligini tavsiflovchi ma'lumotlarga ishlov berish jarayoni.

Yozuvlar echishning asosiy bosqichlarini ifodalashi lozim.

- Topshiriq shartlari;
- Boshlang'ich qiymatlar;
- Topshiriqning texnik va texnologik mohiyatini oydinlashtirish maqsadida uning tahlili;

- Topshiriqqa kiruvchi bog'lovchi kattaliklar bilan noma'lum kattaliklarning qonuniyatini o'rganish;
  - Qiymatlarga matematik ishlov berishni amalga oshirish;
  - Olingan natijalarning haqqoniyligini baholash uchun tahlil.
- Amaliy mashg'ulotlarning mazmuni o'quv dasturida belgilangan.

## **2.8. Fanning ishlab chiqarish bilan integrasiyalashuvi muammolari**

Oziq-ovqat sanoati xalq xo'jaligining eng qadimiy sohalaridan biri hisoblanadi. Oziq-ovqat sanoatining un, non, makaron va qandolat ishlab chiqarish sohasidagi ilmiy-tadqiqot integrasiyasini muammolarini ko'rib chiqamiz. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu sohalarda mahsulot ishlab chiqarish yillar davomida ishlab chiqilgan texnologiya bo'yicha eskirib qolgan uskunalarda amalga oshiriladi. Sababi non, makaron, qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishning nisbatan past rentabelligidir. Biroq MDH kabi chet mamlakatlarda ham texnologik jarayonni kuchaytirishga va shaklga keltirishga imkon beruvchi yuqori unumdorlikka ega texnologiyani yaratish tayyor mahsulot sifatini oshirish, uning chiqishini kuchaytirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmokda va bu esa bozor iktisodiyoti sharoitida yuqorida aytib o'tilgan ishlab chiqarishlarning muvaffaqiyati uchun asosiy omil hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda masalan: Germaniya, AQSh, Shvesiya va bsh. Turli ekspress-texnologiyalar, tayyor mahsulot sifatini nafaqat oshirishga, balki uni biologik faol moddalar bilan boyitish imkonini beruvchi qo'shimchalar sinalgan va samarali qo'llanilmoqda. Bizning respublikamiz korxonalarida innovasion texnologiyalarni qo'llash qiyinchilik va sekinlik bilan bormoqda. Ishlab chiqarishda innovasion integrasiyalashuv jarayonining sekinlashuvining asosiy sabablari quyidagilardan hisoblanadi:

- ilmiy ma'lumotlarning etishmasligi;
- fanning ishlab chiqarishdan uzulganligi;
- moliyaviy etishmovchilik;
- Maxsus kafedralaridagi tadqiqot laboratoriyalarining moddiy texnik yoritilganlik darajasining pastligi;
- ilmiy tadqiqot markazlarida xodimlarning malakaviy darajasining pasayishi oqibatida ishlar salohiyatining tushishi;
- konservatizm va korxona xodimlarining etarlicha yuqori malakaga ega emasligi;
- byurokratik apparat;
- ilmiy texnik progressning eng qudratli kuchi moddiy manfaatdorlikning yo'qligi.

Hozirga qadar mualliflik ishlanmasi uchun muallif deyarli hech nima olmas edi. Biroq davr talabi va boshqaruvning yangi shartlari o'z shartlarini qo'yadi. Respublikaga unumsiz va daromadsiz gigant-zavodlar o'rniga kam quvvatli, xalq

talabiga tezda javob bera oladigan ishni bir yoki ikki smenada tashkil qilish mumkin bo'lgan yangi va har tomonlama o'zini ko'rsata olgan texnologiya va zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan korxonalar qurilmoqda.

Shunday qilib boshqaruvning zamonaviy shartlari ishlab chiqarish munosabatlarini tubdan qayta qurishni va innovasion texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirishni, bu esa fanning ishlab chiqarish bilan aloqasini mustahkamlaydi va uning samaradorligini oshiradi.

## **2.9. Kasb ta'limining zamonaviy tashkiliy shakllari darsning tuzilishi.**

### **Dars turlari.**

**Dars** deganda o'qituvchining o'quv guruhiga (brigadaga) uyushgan, tayyorgarlik darajasi bir xil, tarkibi o'zgarmas o'quvchilar bilan mashg'ulot o'tkazishi tushuniladi.

Dars hunar-bilim yurtida ham ta'limni tashkil etishning asosiy shakli hisoblanadi. Har bir dars o'quv jarayonining bir qismi hamda bilim, ko'nikma va malakalarni egallashning bir butun mantiqiy yakunlangan bosqichidir.

Har bir dars quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1.Maqsad va mazmunning aniqligi; bu talab darsning butun o'quv materialini va uning har qaysi qismini to'g'ri tanlash bilan amalga oshadi.

2.Ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarning birligi; ta'limning tarbiyaviy xarakteri uning ob'ektiv qonu-niyati hisoblanadi. Shu bilan birga o'qituvchi o'quvchi-larning kasbiy bilimlarini shakllantirishda hamma imkoniyatlardan foydalanishi kerak.

Darsning har qanday bosqichida ta'limning eng kerakli metodlarini tanlash; o'qitish metodini to'g'ri tanlash o'qituvchi mehnatining samaradorligini va o'quvchilarning eng yuqori faolligini ta'minlaydi, o'quvchilarga chuqur va puxta bilimlar berishni, ularda bi-limlarni amalga tatbiq etish malakalarini shakllantiradi.

Darsda o'quvchilarning jamoa va yakka tartibdagi ishini to'g'ri so'shib olib borish; o'qituvchi dars davomida butun guruh bilan ishlashdan tashqari, o'quvchilarning yakka tartibdagi topshiriqlar bo'yicha mustaqil ishlashini ham keng joriy qilishi lozim.

Darsni samarali tashkil etish; bu talab darsga ajratilgan vaqtdan unumli foydalanishni, o'qituvchi va o'quvchilarning darsga yaxshi tayyorlanishini, mashg'ulotning yangi texnik jihozlar bilan ta'minlanishini, uning barcha elementlari, strukturasi puxta tuzilishini taqozo etadi.

Didaktik maqsadlar bo'yicha darsning quyidagi turlari mavjud:

Yangi bilimlarni o'rganish darsi. Bunday darslarda mavzu va ko'zlangan maqsad aytilib, yangi o'quv materialini bayon etiladi va o'quvchilarning mustaqil ishlashi uyushtiriladi, uyga topshiriqlar beriladi. Darsning bu xili o'quv materialini o'zlashtirish oson hollarda o'tkaziladi.

Umumiy yoki aralash dars. Bunday darslarda har xil didaktik masalalar hal etiladi — uy topshiriqlarini va o'quvchilarning bilimlarini tekshirish, yangi materialni bayon qilish va boshqalar amalga oshirila-di. Ular maxsus fanlarni o'rganishda eng kup tarqalgan. Aralash dars o'quv jarayonining bir-biriga eng yaqin zvenolarini o'z ichiga oladi, bu esa o'quvchilar bilimlarni puxta va ongli o'zlashtirishini ta'minlash uchun muhimdir.

3.Bilimlarni mustahkamlash darsi. Bunday darslarda oldin o'rganilgan materiallar yuzasidan o'quvchilar bilan suhbatlar o'tkaziladi, kinofilmlar ko'riladi, bilimlarni esga solinadi, faktlar va tushunchalarni o'quvchilarning xotirasida mustahkamlanadi. Natijada bilimlar ancha puxtalashadi.

Sinash-tekshirish darsi. Bunday darslarda mavzu, bo'lim yuzasidan og'zaki savol-javoblar, test yordamida, yozma yoki grafik usulda tekshirish ishlari o'tkaziladi.Ulardan ko'zlanadigan maqsad — har bir o'quvchining tayyorgarlik darajasini asosli baholash uchun kerakli ma'lumotlar olish, ya'ni bilimlari qanchalik ongli va puxtaligini aniqlashdan iborat.

Muammoli dars. Bu darslardan maqsad o'quvchilar qo'yilgan muammolarni echa olish yoki echa olmasligini aniqlashdir. Bunday darslar o'quvchilar maxsus fanlardan ma'lum bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lganlaridan keyin o'tkaziladi.

Darsning ana shu asosiy turlari strukturasi quyida keltiriladi.

I.Yangi bilimlarni o'rganish darsi: 1.Tashkiliy qism. 2. Yangi o'quv materialini bayon qilish va mustahkamlash. 3. Uyga topshiriq berish. 4. Darsni yakunlash.

II.Umumiy yoki aralash dars: 1.Tashkiliy qism. 2. Uyga topshiriqni tekshirish. 3.O'quvchilar biliminy og'zaki (yakka tartibda, bir yo'la yoki aralash holda) tekshirish. 4. Yangi o'quv materialini bayon qilish. 5. Yangi o'quv materialini mustahkamlash. 6. Uyga topshiriq berish. 7. Darsni yakunlash.

Bilimlarni mustahkamlash darsi: I.Tashkiliy qism. 2. Uy topshirig'ini tekshirish. 3. O'quvchilardan so'rash, o'quv materialini mustahkamlash.4. Uyga topshiriq berish. 5. Darsni yakunlash.

Sinash-tekshirish darsi: 1. Tashkiliy qism 2. O'qituvchining topshiriqni tushuntirishi. 3. O'quvchnlarning savollariga javob berish. 4.O'quvchilarning topshiriqlarni bajarishi. 5. Bajarilgan ishlarni o'qituvchiga topshirish. 6. Uyga topshiriq berish. 7. Darsni yakunlash.

V.Muammoli dars. 1. Tashkiliy qism. 2. Muammonibayon qilish. 3. Muammoni hal qilish yo'llarini ko'rsatish va hal etish. 4. Natijalarni muhokama qilish.5. Uqituvchining izoxlashi va umumlashtirishi. 6. Uyga topshiriq berish. 7. Darsni yakunlash.

Darsning maqsadi uchta: ta'limiy (o'qitish), tarbiyaviy va rivojlantirish maqsadlariga bo'linadi. Ta'limiy maqsadga umuman quyidagilar kiradi:

- yangi tushunchalarni shakllantirish;
- yangi qonun, qonuniyat, xususiyat va belgilarni o'z-lashtirishni ta'minlash;
- yangi harakat usullarini o'rgatish;

- bilimlardagi etishmovchiliklarni bartaraf etish;
- bilimlarni umumlashtirish va tizimga solish;
- malakalarni shakllantirish;
- ma'lum harakat usullarini mustahkamlash;
- tushunchalar orasidagi bog'lanishlarni aniqlash bo'-yicha o'quvchilarda biror narsa to'g'risida tushunchalarni shakllantirish;
- dunyoqarash g'oyalari va muammolarini aniqlash;
- o'quvchilarda u yoki bu harakatni, voqealarni baho-lash bo'yicha bilimlarni shakllantirish;
- xulosa chiqarishga tayyorlash, o'zlashtirishga erishish.

Tarbiyaviy maqsad o'quvchilarda quyidagi muayyan shaxs sifatleri va xarakterini tarkib toptirishdan iboratdir:

- dunyoqarashni va kasbga qiziqishni;
- o'z-o'zini tekshirish va o'zaro yordamni;
- voqeliklar orasidagi bog'lanishlarni aniqlash va tax\_lil qilish ko'nikmalarini;
- bir sohadan ikkinchi sohaga bilimlarni ko'chirish ko'nikmalarini;
- fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish ko'nikma-larini;
- nutq madaniyatini;
- vatanparvarlikni;
- mehnatga ongli munosabatni;
- ongli intizom va yaxshi xulqni;
- ta'lim olishga ijobiy munosabatni;
- estetik qarashlarni;
- ish o'rnini tashkil etish va o'z faoliyatini tekshirishni;
- e'tiqodni.

Ta'limning mazmuni hayot va zamon bilan uzviy bog'lansa, u tarbiyalash xususiyatiga ega bo'ladi.

Rivojlantirish maqsadi — dars jarayonida o'quvchilarning psixologik sifatlarini diqqat, xotira, tafakkur va bilish qobiliyatlarini shakllantirishdir.

Psixologik adabiyotlarni tahlil qilish o'quvchilarda tafakkurni, politexnik, mehnat, bilish (anglash) va aqliy ko'nikmalarni, iroda va mustaqillikni rivojlantirish, ularni kelgusi darslarga tayyorlash za-rurligini ko'rsatadi.

Agar bilimlarni shakllantirish va maqsadli tarbiyalash o'quvchilarning bilish qobiliyatini takomillashtirsa, buni rivojlantiruvchi ta'lim deb tan olinadi.

Pedagogik mutaxassislarni tayyorlash universitetlarda, institutlarda, va o'quv rejalari pedagoglarini tayyorlashni ko'zda tutgan boshqa oliy o'quv yutarida amalga oshiriladi ilmiy-pedagogik mutaxassislar va ilmiy mutaxassislar tayyorlashning asosiy shakli oliy o'quv yurtlar qoshida tashkil qilingan magistratura va asplanturadir. Ular mustaqil ishlash (dissertasiya) magistraturadan o'tkazish yo'li bilan ham tayyorlanadi. Institut va universitetlarda fan va texnika taraqqiyotiga muvofiq yangi o'quv reja va dasturlari asosida ishlamoqda. Oliy o'quv yurti pedagoglari ta'lim jarayonini

takomillashtirish, o'qitishning samarador shakllarini izlab topish, reyting, test tizimlarida ishlashni olib bormoqda. Pedagogik ishni ilmiy asosida tashqil qilish borasida, talabalarni chuqur, mustaqil pedagogik-psixologik bilimlar bilan qurollantirmasdan har bir fanni o'qitishda professional yo'nalishni kuchaytirmasdan turib, o'qituvchi mutaxassislar tayyorlashni yaxshilashga erishib bo'lmaydi.

Muxandis-pedagoglarni ilmiy jihatdan tayyorlashda va pedagogik faoliyatida, ularning pedagogik va psixologiya fanlarini chuqur bilishlari prinsipial ahamiyatga egadir, chunki bu fanlar yosh avlodni har tomonlama va garmonik kamol toptirishga rahbarlik qilishning ilmiy asosini tashkil qiladi. Muhandis-pedagog o'zining ilmiy pedagogik va psixologik jihatdan qurollanganligi, fan yutuqlarini yoshlarga ijodiy o'rgatish davomida ko'zga tashlanadi. O'qituvchining butun pedagogik faoliyati nazariya bilan tajribaning, fan bilan turmushning birligiga asoslanadi. Pedagogik qobiliyat deganda, shaxsning ta'lim-tarbiya ishiga yuqori natijaga erishish sharti bo'la oladigan ma'lum psixik va pedagogik xususiyatlarning birligini tushunamiz.

Pedagogik qobiliyatning turlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Didaktik qobiliyat ta'lim jarayonining qonuniyatlarini tushungan holda o'qitish metodlarini muvaffaqiyatli ishlab chiqishga yordam beradi.

2. Konstruktiv qobiliyat- bu tarbiyalanuvchini shaxsiy loyihalash va tarkib toptirishni ta'minlash har xil vaziyatda o'qituvchining bolani o'z-o'zini tutishini bilishi.

3. Perspektiv qobiliyat (kuzatuvchanlik qobiliyatni) -bolaning psixik holatini shu vaqtda o'quvchiga (yuziga) qarab tushunishi. Bu o'qituvchidan diqqat e'tiborli, sezgir, kuzatuvchan bo'lishni talab qiladi.

4. Ekspressiv qobiliyat - o'qituvchi o'z fikrlarini bilimlarini, his-tuyg'ularini, e'tiqodini nutq oraliq, mimika orqali bayon qilishi.

5. Kommunikativ qobiliyati - o'quv-tadbiri ishlarini tashkil qilish va o'tkazishga yordam beradi. Har bir o'quv fani o'ziga xos xususiyatga va o'qitish metodikasiga ega bo'lib, u o'qitish ishining muvaffaqiyatli borishini ta'minlaydi.

Pedagogik o'quv yurtida ta'lim va tarbiya ishining muvaffaqiyatli borishi o'quvchining o'qish ishiga bo'lgan munosabatiga, uning aqliy harakatiga ham bog'liqdir. Shuning uchun o'qituvchi faoliyatida faqat bilimlarni bayon qilish bilan chegaralanib qolmay, o'qituvchilarni aqliy harakatlariga rahbarlik qilishni, ma'lum tomonga qarab yo'naltirishi lozim. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni aqliy harakatlarini boshqarish axborot manbaigagina emas, balki bolalar aqliy harkatlarining tizimini yaxshi tartibga solishga ham bog'liq. O'qituvchilik ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi har bir o'quvchini aktiv o'qish faoliyatiga jalb qilishga yordam beradi. Bu o'z navbatida o'qituvchining aqlini o'stiradi va tarbiyalaydi. O'qituvchi quyidagi umumpedagogik ko'nikma va malakalarni egallashi lozim:

1. Axborot beradigan ko'nikma va malakalar. O'quv materialini bayon qilish, ya'ni fan materialini didaktik jihatdan puxta ishlab, o'quv materialiga aylantirish.

2. Jalb qiladigan ko'nikma va malakalar. O'quvchilar diqqatini o'ziga jalb qila olish.

3. Rivojnatiruvchi ko'nikma va malakalar. Turli ta'lim metodlari yordamida o'quvchilarning bilish, mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish.

4. Yo'l ko'rsatishga o'rgatadigan ko'nikma va malakalar. O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashini, mehnat ochiq munosabatda bo'lishni tarbiyalaydi. Talabalarda o'qishga qiziqishni, yuqori axloqiy sifatlarni, ma'naviy-siyosiy e'tiqodini yuqori saviyada bo'lishi.

2. Oliy maktabida ta'lim jarayoning: ilmiylik, tizimlik, nazariyani tajriba bilan bog'lab olib borish, ta'limda aniqlik, aniqlik bilan abstraktning birligi, mosligi, bilishni mustahkamlash, individual bilan jamoani bog'lab borish kabi prinsiplari qo'llaniladi. Bu prinsiplar bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ular bir-birini to'ldirib boradi. Ta'lim prinsiplari ta'lim jarayonini olib borishida o'qituvchi rioya qiladigan asosiy qoidalardir.

Oliy o'quv yurtlaridagi o'qitish jarayoni aniq o'quv rejasiga muvofiq olib boriladi. O'quv reja - bu davlat hujjati bo'lib, mutaxassislarni tayyorlashning mazmunini va o'quv mashg'ulotining tu-

ri, formasi, o'quv ishlarni boshqarish vaqti va ishlab chiqarish amaliyotini boglovchi xajjatdir.

O'quv rejalarida Maxsusni egallash uchun lozim bo'lgan predmetlarning soni va o'qitish tartibi belgilanib qolmasdan, balki, Maxsus sohasida quyidagilar ham ko'rsatilgan.

Oliy ta'lim metodikasida o'quv prosessini asosiy formalari: ma'ruza, laboratoriya, seminar, amaliy mashg'ulotlar, kurs ishlari, diplom ishlari. Talabalarning Maxsusni egallash birinchi kundanoq boshlanadi.

Ma'ruza - ilmiy bilimni tizimli, izchil, ochiq-aniq bayon qilishdir. Ma'ruza yordamida talabalar fanga olib kiriladi, ular birinchi marta fanning ilmiy nazariy asoslari, metodologiyasi bilan tanishadilar. Materialda butun fan qilinmay, faqat zarur bo'lgan Maxsus asosi beriladi. Material butun o'quv mashg'ulotlarning asosiy mazmunini, xarakterini va talabalarning mustaqil ishlarni oldindan belgilab beriladi.

Yaxshi material talabalarni fan predmeti ustida fikrlashga va ayni chog'da chig'adigan savollarga javob izlab, asosiy ilmiy qonunlarni tekshirib ko'rishga o'rgatadi.

O'quv dasturi davlat hujjati hisoblanadi va u o'quv predmetining mazmunini va hajmini belgilab beradi. Demak, material o'quv dasturiga binoan ilmiylik prinsiplarga asoslanib tuzilishi kerak. Shu bilan birga unda ilmiylik bilan ta'limliy prinsipi kushib olib borilishi lozim. Materialda talabalarga adabiyotlar tavsiya qilish uchun alohida vaqt ajratish lozim. Amaliy mashg'ulotlar - bu talabalarni auditoriyada mustaqil ishlashini umumlashgan

ko'rinishidir. Bunga quyidagilar kiradi: amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari va seminarlar. Amaliy mashg'ulot, o'quv ishlarni mantiqiy davomchisi bo'lib, ma'ruza davomida, bilim saviyasini kengaytirish va mustahkamlash, nazariy olgan bilimlarni natijalarini mustaqil o'rganishga yordamlashish.

Ma'ruzani o'tilgandan keyin paralel vaqtda amaliy mashg'ulot almashlab olib boriladi. Maqsadni tushuntirish, o'quvchilar ishining mazmuni va tartibini aniqlash, texnikaviy qurilmalarni boshqarish, o'quvchilar ishiga rahbarlik qilish, nazorat qilish va yakun yasash. O'quvchilar faoliyatida; qo'shimcha mavzuga oid dars o'tish, ma'ruzalar bilan chiqishlari, munozaralarga qatnashish. Munozaralarga tayyorgalik ko'rishda bir necha talaba o'z ma'ruzalari bilan qatnashib o'qituvchi ishtirokida mavzuni muhokama qilishadi.

Mashqlar (og'zaki, yozma, grafik tarzda, mehnat xarakteridagi, kompyuter o'qitadigan mashina va trenajerlar ishlatib bajariladigan mashqlar). O'qituvchi faoliyatida; Maqsadni tushuntirish, o'quvchilar ishining mazmuni va tartibi aniqlashgan texnika vositalarini boshqarish, o'quvchilar ishiga rahbarlik qilish, nazorat qilish va yakun yasash. O'quvchi faoliyatida; a) o'qituvchi rahbarligida, b) yozma instruksiya bo'yicha, v) mustaqil bajarish.

O'qituvchilarning ijodiy ishlari (tizimga kirish, harakatlar tartibini aniqlash, chala ma'lumotli masalalar echish, prinsipial sxemalar tuzish, aniq sharoitlarda biror qarorga kelish, diagnostik va prognostik masalalar echish, loyiha tuzish, ixtirochilik).

O'quvchilar faoliyatida: Ijodiy xarakterdagi ishlarni: a) o'qituvchi rahbarligida, b) kompyuterlar asosida, v) analoglar bo'yicha, g) mustaqil bajarish. Tug'ri tashkil qilinga amaliy mashg'ulot juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Agar o'qituvchi amaliy mashg'ulotni qiziqarli qilib tashkil qilsa, talabalarning bilish, farqlash kobiliyatlarini o'stirib mustaqil ishlashga o'rgatib

borsa, u ko'ngildagidan ortiqroq effekt beradi.

Amaliy mashg'ulotni yakunlab borish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki o'qituvchi bu jarayonda o'tilgan matnni qisman mustahkamlaydi va mustaqil ishlash uchun vazifalar ham topshiradi.

Seminar mashg'uloti o'quv predmetini chuqur o'zlashtirishga yordam beradi hamda o'rganilayotgan predmetning metodikasini chuqur bilib olishga o'rgatadi. Shuningdek seminar mashg'uloti talabalarda o'qiyotgan predmetga nisbatan qiziqishni oshiradi, bilish qobiliyatini o'stiradi, fikrlash va o'z ustida mustaqil ishlash malakasini rivojlantiradi. Shunday qilib, seminar mashg'ulotlari mutaxassislar tayyorlashga katta yordam beradi.

## **2.10. Texnik vositalar va ko'rgazmali qo'llanmalardan samarali foydalanishni tashkil qilish**

### **1.O'qitish vositalari didaktikaning kategoriyasi sifatida.**

O'qitish vositalari bu moddiy va tevarak-atroflar, tabiiy obektlar, bundan tashqari inson tomonidan o'quv-tarbiyaviy jarayonda axborot olib yuruvchi pedagog va o'qituvchilar faoliyatida o'z oldiga qo'ygan o'qitish, tarbiyalash va rivojlanish uchun qo'llaniladigan qurol sifatida yaratilgan sun'iy obektlardir.

O'qitish vositalari, shu bilan birga uning mazmuni, uslublari, tashkiliy shakllari o'qitish tizimini loyixalashtirilgan va o'quv-tarbiyaviy jarayonning tarkibiy bo'limlaridan biridir. Bundan tashqari har bir o'quv-tarbiyaviy muassasisining eng muhim tarkibiy qismidir. Pedagogika fani va amaliyotida qo'llaniladigan turli -xil tizimlarning bo'limlarida bo'layotgan moddiy o'qitish vositalari hozirgi paytda joriy qilingan tizimlarning harakatlanishi, qayta qurilishi va bir-biri bilan bog'liqligini nazarda tutgan holda bosh va tarkibiy qismlarga bevosita ta'sir ko'rsatadilar. Shunday masalan: yangi axborot texnologiya vositalarining etarli darajada keng qo'llanilishi loyihalashtiradi, tadqiqot olib borishda muammolarni an'anaviy dars bilan chegaralanib qolmasdan, ta'lim oluvchilarning turli - xil mustaqil faoliyatini (yakka tartibda yoki guruh bo'lib) nazarda tutgan uslublarni o'qitish mazmuni va maqsadlariga u yoki bu o'zgartirishlar kiritilishi muqarrardir. Aynan yangi vositalar va texnikaviy yutuqlarning paydo bo'lishi o'quv dasturlariga fan-ning ta'lim oluvchilar ongiga oldin etib borishi qiyin bo'lgan bo'limlarini kiritish imkoniyatini yaratadi.

Bugungi kunda ta'lim oluvchilar o'z ijodiy potentsiallashtirishini na-moyon qilish, tabiatdan berilgan iste'dod va qobiliyatlarni rivoj-lantirishga yangi texnika paydo bo'lgandan beri o'qitishning yangi usul va texnologiyalarini egallashga real imkoniyatlari bor. Shunday qilib, didaktikaning kategoriya apparatida moddiy vositalar (ish qurollari) maqsadlar, mazmunlari, usullari, o'qitishning tashkiliy shakllari bilan birgalikda mustallik xolatiga ega. Bundan tashqari, ijtimoiy xayotning har bir sohasida texnologiyalashtirish munosabati bilan o'quv-tarbiyaviy faoliyatda o'qitish vositalarining ahamiyati ortib bormoqda, muammolarga oid tadqiqotlarda ikki asosiy yo'nalish: pedagogik va injenerlik nuqtai nazari bor. Pedagogik yondashish o'quv jarayonida turli xil didaktik maqsadlarga birinchi navbatda atrof muxitni tasvirlashga ta'lim oluvchilarning turli xil o'quv o'rganish faoliyatini tashkil qilishga o'qituvchining nazorat qilish va to'g'irlash, o'quv tarbiya va yo'naltiruvchi funksiyalarini amalga oshirishga asoslangan. Injenerlik yondashishi o'qitish vositalarini yaratuvchi texnologik (konstruktiv-texnologik) xususiyatlarini hisobga olishga imkoniyat berdi, o'qitish vositalarini ishlab chiqarish usullariga bog'langan holda sinflarga bo'lish, ta'lim oluvchilarga ta'sir qilish kanallarini, ergonomik tavsiflarni hisobga olish imkoniyatini beradi. Didaktik nuqtai nazarga S.G.Shapovalenko

taklif qilayotgan atrof muxitni tavsiflashga bag'ishlangan o'quv vositalarini tasniflash biz uchun eng asoslangan deb tan olamiz.

1. Tabiiy obektlar – izlanish va o'rganish uchun haqiqiy real, fanlarini o'z ichiga oladi: moddalarning namunalari va kolleksiyalarini, xom - ashyo, asboblari, detallar, o'simliklar, gerbariyalar, hayvonlar va ularning qotirib qo'yilgan holati, mikropreparatlar, reaktivlar va hokazolar. Uqitish vositalarining bu guruhiga yana mahsus ishlov berilgan moslamalar va ularning mexanizmlari kiradi. Bundan tashqari kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish uchun ishlab chiqarish moslamalari kiradi.

2. Moddiy obektlarni (haqiqiyliklarini) tasvirlash va aks ettirishga kiradigan guruhni quyidagilar tashkil etadi: modellar, mulyajlar, maketlar, jadvallar, ko'rgazmali qurollar (rasmlar, foto-aksli chizmalar) portretlar) ekran - tovush vositalari (diafilmlar diopazitiv seriallari, slaydalar) kinofilmlar, video va tovush yozuvlari, plastinkalar, radio eshitirishlar va teleko'rsatuvlar.

Uz navbatida har bir gurux. aniq asoslarga qarab klassifikatsiya qilinishi mumkin. Masalan: modellar a) originalni almashgarish usuli bo'yicha - moddiy va ideal (o'ylash, belgalash; ramziy); b) obektivning ichki tashkillashtirish(strukturali, funksional va aralash); v) funksional yo'nalishda (namoyish qilish, tarqatma); g) predmetni aks eggirish usullari bilan (harakatli, harakatsiz tekis,xajmli, aralash); d) shartli vositalar bilan predmet va hodisalarni taqdim etuvchi o'qish vositalari so'zlar, belgilar, grafiklar) o'z ichiga matnli jadvallarni, sxemalarni, grafiklarni, diagrammalarni rejalar, xaritalar, o'quv kitoblarni: darslik va o'quv qllanmalar, masalalar tuplami, mustaqil ishlar uchun qo'llanmalar, didaktik materiallar va boshqalarlarni oladi.

Alohida guruhga o'qitish texnik vositalari kiradi. Bunday o'qitish vositalariga o'quv malumotlarini etkazib beruvchi, uni ifodalash uchun maxsus texnik moslamalar talab qilinadi, Bu moslamalar transportlar, diafilm va kinofilmlar, videofilmlar, tovush yozish kompyuter dasturlari va boshqalardai iborat. Texnik vositalar guruhiga turli xil proesion va tovushni qayta chiqarish apparatlari kiradi (kinoproektlar, diaproektlar trafoproektlar, magnitafon va videomagnitafonlar) trenajerlar, universal texnik vositalar, lingafon moslamalar, elektron hisoblash texnikasi, agar u biror bir kompyuter programmasini funksiyasini bajarsa bu xodisa tom ma'noda o'qitish vositasi deb ataladi, Turli xil axborot muhitlarni, masalan telekommunikatsiyalarnn alohida ajratib chiqarish kerak (elektron pochta, elektron konferensiya, axborot resurslari multimedia tizimi), bular tom ma'noda o'qitish vositalari emas, lekin o'ziga xos bo'lgan muhitni yaratadilar. Bu muhitni aniq texnologiyalar qo'llanilgan holda ta'lim oluvchilarning intellektual rivojlanish va bilish jarayoni bo'lib o'tadi. Bunday klassifikatsiya rivojlanish faktorlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan, shuning uchun o'qitish vositalarining yangi turlari paido bo'lganda ularning klassifikatsion belgilarini aniqlashga imkon beradi. Shunday qilib berilgan klassifikatsiya ancha keyin paydo bo'lgan o'qitish vositalari: video yozuv, EXT

vositalari, o'xshatib taqlid qilish trenajarlari va boshqalar berilgan klassifikasiyada o'z o'rnini topdi.

O'qitish vositalarini shakllantirish tizimi nafaqat o'qitish vosi talarini turli xil belgilardan aniqlab klassifikasiya qilish emas, balki ularni funksiyalar va xususiyatlari haqida bilimlari taxmin qiladi.

Didaktik xususiyatlar - belgilar, boshqalardan o'qitish farq qiluvchi vositalarni tomonlari, didaktik funksiyalarni namoyon qilayotgan xususiyatlari faqat o'qitish vositalariga xos bo'lgan potensial imkoniyatlarni aks ettiradi.

Didaktik imkoniyatlar o'quv - tarbiyaviy jarayonda qo'llaniladigan vosita sifatida ko'riladi va didaktik xususiyat bilan didaktik funksiya o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qiladi.

«Didaktik xususiyat» va «Didaktik imkoniyat» tushunchalarining yaqinligi sababli pedagogik adabietda ularni hech ajratmaydilar.

O'qitish vositalarining didaktik funksiyalari qanchalik turli bo'li-shiga qaramasdan ular hammasi umumiy funksiyaga ega; xususan:

- o'quv axborotni qabul qilishda tushunib etishi va idrok ta'min-lovchi ko'rgazmalilik, tushuncha va tasavvurni shakllantirish;
- axborot, chunki o'qitish vositalari bilimning bevosita manbasidir boshqacha qilib aytganda aniq axborot (bilim)ning egasidir,
- kompensasiyalash, o'qitish jaraenini engallashtiruvchi, maqsadga ega kuch, vaqt va sog'liq sarflab erishishga erdam beruvchi, namoyishlarini, mustaqil ishlarni tashkil qiluvchi funksiya
- adaptivlik, o'qitish jarayonini bo'lib o'qitishda moyillikka ta'minlashga yo'naltirilgan, namoyish va mustaqil ishlarni tashkillashtirish, ta'lim oluvchilarni yoshlariga xos bo'lgan xususiyatlarini mazmun bilan mutanosibligini ta'minlash, bilimni ketma-ketligini ta'minlash.
- integrativlik, ob'ekt yoki hodisani bir bo'lak yoki ayrim qismlar sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Bu funksiya o'qitish vositalarini kompleksda foydalanishda amalga oishriladi, bundan tashqari yangi axborot texnologiyalar vositalarni qo'llashga ishlatiladi.

Umumiy funksiyaga bundan tashqari aniq turlarining faoliyatini harakatini, operasiyalar va qo'yilgan uslubiy maqsadlarga erishishni ga'minlashga yo'naltirilgan instrumental fuiksiyalar kiradi. O'quv vositalarining hamma funksiyalari bir-biri bilan bog'liq va o'quv tarbiya jarayoniga o'zining har tomonlama ta'sirini o'tkazadi.

## **2.Xozirgi zamon o'quv vositalarining tavsifnomasi.**

Yuqorida biz o'qitish vositalarining umumdidaktik nuqtai nazaridan klassifikasiya qilinishini ko'rsatdik va atigi bittagina, lekin eng muhim belgisidan atrof-muhitning predmetlarini aks ettirish usulidan ularning (o'qitish vositalarining) umumdidaktik funksiyalarini ham ko'rsatdik. Endi esa biz ajrtib ko'rsatgan o'qitish vositalarining guruhlarini tavsifnomasiga o'tamiz.

Natural (tabiiy) obektlar. Tabiiy obektlarga odatda jonli va jonsiz tabiatning obektlari kiradi, ular bilan ta'lim oluvchilar mashg'ulotlarda tarqatma

yoki namoyish qilinadigan materiallar shaklda tanishadilar. Ko'rgazmachilik – tabiiy obektlarning tanlab olishdagi yoki tabiiy obektlarni o'z ichiga tarkibiy qism qilib kiritilgan turli xil qo'llanmalarni loyihalashtirishdagi asosiy talablardan biri.

Shu maqsadda o'rganilayotgan tushunchalarning mazmunini ochib berishga kerak bo'lgan ayrim tipik belgilarni aniq ifodalashga yordam beradigan obektlarni ajratib olinadi. Natural obektlarni qo'lyoz-maligini kuchaytirish uchun turli xil kodlash usullari qo'llaniladi: rangli, raqamli, xarfli. Tabiiy obektlarning o'qitilish jarayonida ular bilan ishlash uslublaridan asosiylarini tuzatish va tajriba o'tkazish. Ko'rgazmali qo'llanmalar sifatida ishlatiladigan tabiiy obektlar avvalo uning jihozlari va moslamalarini, mahsus tayyorlash va ishlov berish zarur: ularni kesish, ayrim belgilarga mahsus rang berish qopqoqlarni qobig'ida ko'rish tuynuklarni kesib ochish, ichki bo'yliqlarni yoritish, lampa signal beruvchi o'rnatish va hokazo.

O'quv modellar, mulyajlar, maketlar. Modellar sun'iy yaratilgan tabiiy obektlarni ko'rinishi ularning muhim sifatlarini aloqalarini va munosabatlarini qayta takrorlaydigan o'quv ko'rgazmali qo'llanmalar deb qabul qilishadi. Bu holda originalning xususiyatlarini (mikro va makro obektlarning) ko'rsatishda shartlilik (ramziylik) yo'l qo'yiladi, razmerni kattalashtirish yoki kengaytirish obekt qurilmasini sxema yordamida ko'rsatish. Modellarning eng keng tarqalgan va tipik turlari bu moddiy (predmet) modellaridir. Modellar hajmga ega va tekis modellarga bo'linadi. Ularning oralig'ida relief jadvallar joylashgan. Hajmga ega modellar tarkibiy qismlarga bo'linishi mumkin, qismlarga bo'linmaydigan, qimirlamaydigan, (belgilash komplekti) va harakatlanuvchi (ichki yonish dvigatelining modeli, nasos) bo'ladilar. Hajmga ega bo'lgan modellar mulyajlar va maketlar kiradi. Ular ham umumta'lim ham texnika fanlarida qo'llaniladi. Mulyajlar (maketlar) biz shunday obektlarni aytamizki, ular moddiy obektlarning aynan o'xshatib yaratilgan qo'llanmalardir.

Mulyaj va maketlar predmetlarning tashqi belgi va xususiyatlarini va atrof muxit xodisalarining o'rganishda qo'llaniladi, modellar o'rganilayotgan obektlarning ichki qurilmasi va harakatlanish tamoyili mashina va mexanizmlarning kinematikasining o'rganilayotgan hodisalarda o'rin olgan boshqa aloqalar va munosabatlar imkoniyatini beradi.

Talim oluvchilarga taqdim etish usullari bo'yicha modellar mulyajlar (maketlar) xuddi tabiiy obektlar singari demakrasion va tarqatmaga bo'linadi. Turli xil modellarni loyihalashtirishda bu turdagi o'qitish vositalarining funksiyalari va didaktik imkoniyatlardan kelib chiqqan holda umumiy pedagogik-ergonomik talablarni hisobga olish kerak: axborotlashgan, o'quv jadvali faoliyatning aniq usullariga adaktivlik (o'rganish qabul qilish), (plakat, sxema, diagramma, grafik va boshqalar) aniq bir tushuncha, ko'nikma va bilimlarni shakllantirishda qo'llaniladigan tekis moddiy o'qitish vositasidir. O'quv jadvali aniq va ko'rgazmali holda o'rganilayotgan obekt haqida ilmiy axborotni beradi. Jadvallar turli xil bo'ladi. Kompozision - rasmlar, fotosuratlar;

Grafikli: chizmalar, diagramma, sxemalar va boshqalar; Belgili - ramziy, formulalar, xarflar, so'zlar bilan ifodalanadi. So'nggi paytda elektrlashgan jadvallar qo'llaniladi - stendlar, bularga ayniqsa xavfsizlikka oid texnikalar kiradi.

O'quv binosi yaqindagina eng yaxshi o'qitish vositasi deb qabul qilindi. Uning kurgazmalikligi juda boy didaktik imkoniyatlaridan kelib chiqadi; katga informasiyani ixchamlantirilishi, fan va texnika tarixiga sayoxat qilish, jarayonni tezlatish yoki sekinlashtirish, nihoyat, uni to'xtatish, lirivintikasiya yoki modellashtirish, zavoddagi moslama va apparatlarining ichki tuzilishini kuzatish. Yangi texnologiyani boshqarish bilan tanishtiradi, fan arbobi yoki ilmiy-tekshirish laboratoriyasi «kirish», turli xil vazifalarni o'z oldimizga qo'yish, ularni kamaytirish, qiyoslash o'quv filmlari yordamida amalga oshar edi.

So'nggi yillarda o'quv filmlari chiqarilmay qo'ydi. Ularni o'rnini o'quv video yozuvi informasiyani aks ettiruvchi ekran - tovushli vositalarining o'ziga mujassamlashtirgan; kino, radio, televideniya, videofilm, diopozitivlar egalladi.

Video yozuv xohlagan marotaba takrorlanishi mumkin, vaqt ko'rsatkichi bilan o'zi kerakli informasiyani yozilishi mumkin. Videokamera yordamida yozib olish juda katta imkoniyatga ega. Kelajakda o'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirishda video yozuv tizimlari ishlab chidiladi.

O'quv materialini mustaqil o'rganishda o'quv yozuvlari katta ahamiyatga ega. O'quv priborlari, moslamalari, asboblari, laboratoriya priborlari tizimining ahamiyatga ega bo'lgan qismini tashkil qiladi. Eng avvalo u yoki bu pribor nima uchun mo'ljallanganligini aniqlaylik.

Trenajyorlar - texnika vositalarining alohida guruhiga kiradi. Trenajerlar mehnat ishlab chiqarish sharoitlarini imitatsiya (o'xshatish) qiladi.

Trenajyorlar uch gruppaga bo'linadi.

Avtomobil trenajerlar, ximiyaviy ishlab chiqarish texnologiyasi trenajerlari, (modellashtirish yordamida o'rganiladi).

2. Aniq bir intellektual faoliyat bilan bog'liq bo'lgan trenajerlar. Masalan: trenajer imigatorlar shular jumlasidandir. Stanoklarni naladka qiluvchilar uchun trenajerlar.

3. Biror bir harakatlanish ko'nikmasini hosil qilish uchun trenajerlarning alohida ko'rinishi qo'llaniladi. Masalan: metallni arralash harakatini detallarning figurali qilib yasalishi trenajerlar.

### **3. O'quv ishlab chiqarishni o'qitish vositalari.**

O'quv (o'quv ishlab chiqarish) ustanovka nomeri professional (kasb-xunar) o'quv yurtlarining tizimlariga kiradi. O'quv ustaxonalarida olib borilgan ishlab chiqarish qulayliklarga o'rgatish shu ustaxonalarda qulay vaziyatlarni yaratishni talab qiladi.

Moddiy texnikaviy - etarli maydonda ishlaydigan moslamalar, texnik muxofazalashni ta'minlash.

Sanitar gigienik - tabiiy va sun'iy yoritish, ustaxona sanitar gigienik shartlariga javob berish va birinchi yordam berish vositalarini ta'minlash,

Estetik - ustaxonaning ichki bezagi va moslamalarning ranglariga e'tibor berish, o'simlik va gullar bilan bezatish.

Texnik pedagogik – o'quv ishlab chiqarish xonalarining ishlar bajarishida bir-biri bilan bog'liqligi, ta'lim oluvchilarga mos bo'lgan ish sharoitini yaratish va shaxsiy ish joyi bilan ta'minlash va ishni ilmiy texnika asosida tashkillashtirish.

Ta'lim oluvchilarning ish joyidagi tashkillashtirish:

- ish joyining texnik sozligi;
- etarli yoritilganligi;
- kerak bo'lgan xolda avariya signalini ishlashi yoki usta bilan bog'lanish moslamasi;
- ishlab chiqarish moslamasini tozalash, sozlash va yig'ishtirishning qulayligi.

O'quv ustaxonasining ustasi uchun ish joyi shunday yoritilgan va tashkil qilingan bo'lishi kerakki, o'quv jarayonida usta ishini ilmiy asosda tashkillashtirishi, uni mazmuni va shaklini ta'lim oluvchilarning ish joylari bilan bog'lanishi uning pedagogik faoliyatini aniqlab beruvchi sifat bo'lishi kerak.

#### **4. O'qitish vositalarining rivojlanish istiqbollari**

Kasb-hunar maktablarida o'quv moddiy bazalarida hozirgi zamon o'quv jarayonida bir necha yunalishda rivojlanadi:

- ta'lim oluvchilarning o'quv texnika vositalariga bimalol yondoshishi, qo'llashi;
- o'quv ko'rgazma vositalarini qo'llash;
- o'qitish tizimida bir-biriga bog'liqligi.

Hozirgi paytda to'rtta yo'nalishdagi yangi informasion texnologiyani o'qish jarayonida qo'llanilishi.

1. Nashriy texnologiyalarini qo'llash.

Telekommunikasiya.

Katta maketlar va ommaviy axborot vositalari.

Kompyuter robototexnikasi.

Hozirgi kunda texnologiyalarni qo'llanilishini yaratish haqida qarorlar qabul qilingan. Lekin ushbu texnologiyalarni ishlatishdan oddin nafaqat pedagoglar, balki gigiena va psixolog mutaxassislar tekshi-ruvlaridan so'ng qo'llash tavsiya etiladi. Ushbu o'qitish vositalarini dolzarbligi nafaqat ularning yuqori texnologik imkoniyatlari, balki eng avvalo o'qitish samaradorligini oshirishdagi pedagogik talablarga asoslangan. Bu vositalarning ayrim didaktik imkoniyatlarining ko'rsatib o'tish kifoyadir. Masalan: tabiiy va kasb texnikaga oid fanlarni o'rganilganda. Yangi axborot texnologiyalari asosida vositalar tizimini xususan datchik va moslamalar komplekti o'rganilayotgan shaxsga izlanishni keng ko'lamda olib borish imkonini beradi.

Eksprementni yoki unning bir qismini ko'p marga takrorlash kerak bo'lgan o'lchamlarini qayd qilib yozish;

Modellashtirishning turli xil yo'llari shu jumladan tajribadan kelib chiqqan natijalarni qo'llash;

Olingan ma'lumotlarini qayta ishlashda avtomatlashtirish.

O'rganiladigan materiallarini turli xil shakllardagi tushuncha va tasavvurni vizuallashtirish (ko'rgazmali qilish);

Texnikaviy moslama va mexanizmlarga taqlid qiluvchi robotlarni yaratish.

Turli xil yo'nalishlarga mo'ljallangan ishlatish programmalari foydalanuvchilar oldida bilim olishning hamma sohalarida keng imkoniyatlarni yaratadi. Talim oluvchi nafaqat tayyor informatsiya bilan ishlaydi, balki o'zi ham maketlar yaratish imkoniyatiga ega, matematik va iqtisodiy masalalarni ishlashi mumkin, turli xil vaziyatlarni modellashtirish mumkin, tabiiy fanlar iqtisodiet, ekologik va gumanitar fanlar bo'yicha gadoqiqotlar olib borishi mumkin.

Masofadan o'qitishning kelajagi porloqdir, masofadan o'qitish kompyuter texnologiyalar asosida o'qitiladi. O'qitish jarayonini kompleks ravishda olib borilishiga katta ahamiyat beriladi. O'qituvchi pedagog bu tizimni mukammal bilishi shart. Turli xil o'qitish vositalari turli xil funktsiya va imkoniyatlarga ega. O'qitish jaraenlari uchta asosiy funktsiyani bajaradi: ma'lumot beruvchi, tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi. O'qitish jarayonini ko'rgazmali olib borilishida kompleksli o'qitish pedagogik jarayonning hamma asosiy funktsiyalarini o'qitish vositalari orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayonini o'qitish vositalari bilan ta'minlashda istisodiy yondoshmoq kerak. Tanlangan kasb-hunarni kelajakda kerakligini va uning ommaviyligini o'qitish vositalarini kompleksligini nazarda tutib loyihalashtirmoq kerak. Ikkinchi tarafdan shunday vositalarni tanlash va yaratish kerakki, ular o'quv tarbiyaviy masalalarini eng kam sarf harajatlar bilan amalga oshirishni ta'minlash zarur. O'qitish vositalarining kompleks foydalanishning samaradorligi ularni qo'llashda rasional jihozlashga quyilgan aniq talab va tavsiyalar quyidagicha:

- ko'rgazmali qurol, tarqatma material va darsda qo'llanilayotgan o'qitish vositalarni keragidan ortiqcha qo'llamaslik.
- darsda qo'llaniladigan vositalar (plakat, sxema, model. maket, mulyaj, detal va boshqalar) har doim oldindan ko'rib chiqib tanlab olingan bo'lishi va foydalanish tartibida tayyor bo'lishi kerak.
- texnik vositalar va boshqa ko'rgazmali qurollarni oldindan ishlatib ko'rish kerak.
- individual qo'llash uchun tanlangan didaktik ko'rgazmali qurollar va boshqa qo'llanmalar hamma ta'lim oluvchilarga etarli bo'lishi kerak.
- ko'rgazmali qurollarni yaxshi ko'rilishi va eshitilishini ta'minlash.
- xar bir didaktik materialni qo'llanishi maqsadlari va o'rnini aniq rejalashtirib olish.

Masofadan o'qitish o'quv materialini oliy darajada olib borishga va o'quv materialini translyasiya qilish imkoniyatini beradi. Masofadan o'qitishni tashkil qilish turlari:

- saqlanib quyilgan o'quv mahsulotni kompyuter o'qitish vositalari yordamida uzatish.
- turli xil joyda joylashgan sinf va guruxlarga bitta mashg'ulotni uzatish.
- fan arboblari, pedagog novatorlar, uslubchilarning leksiya va mashg'ulotlarini uzatish.
- telekonferensiyalar, munozaralar.
- o'huv uslubiyot materiallarini almashuvi.

Telekommunikasiya tizimlarini qo'llanishining yangi pedagogik va turli soxalardagi kasbiy bilimlarni eng qisqa vaqtda uzatish imkoniyatini beradi. Axborot texnologiyalarini rivojlanishi, o'qitishning yana bir yunalishini – media o'qitishni vujudga keltiradi. Bunda ta'lim oluvchilar turli xil ommaviy vositalarini (gazeta, jurnallarni, TV, kino, radio, video va boshqa) egallab olishga tayyorlash yo'nalishida olib boriladi. Umuman olganda yangi tashkil qilingan va modernizasiyalashgan o'qitish vositalarida qo'yidagi spetsifik tendensiyalar bor:

- qo'llanmalarini sonini qisqartirish (tanlanganlik, keraklilik va etarlilik);
- ularni funksional imkoniyatlarini kengaytirish (ko'p funksional tamoyillari);
- o'qitish vositalarini komplektlash va tizimini ishlab chiqish sharoitini yaratish;
- ta'lim oluvchilarni mustaqil o'qishi uchun, shu jumladan, ilmiy tekshiruv va tajriba ishlarini turli xil o'qitish darajalari uchun komplektlarni ishlab chiqish;
- maxsus yunaltirilgan modul komplektlarini yaratish.

5. O'qitish vositalari tizimini shakllantirish texnologiyasi va ularni kompleks ishlatilishi.

- Hech qaysi o'qitish vositalari alohida qo'yilgan o'qitish maqsadlarini ta'minlay olmaydi, shuning uchun
- o'qitish vositalarini qo'llash o'z oldimizga qo'ygan maqsad emas, balki ta'lim oluvchilarni o'zlashtirishni ko'tarish samaradorligini oshirish uchun qo'llangan pedagogik qoida.
- Ko'rgazmali va texnik vositalarini surunkali ko'rinishini ta'minlash va ta'lim oluvchilarda ular bilan ishlash ko'nikma va malakasini oshirish.

Ta'lim oluvchilarda darsda ishlashini shunday tashkil qilish kerakki, ular nafaqat kuzatib, kerakli informatsiyani olsin, balki texnik vositalar va ko'rgazmali qurollar bilan ishlashsin.

## **2.11. O'quv uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish**

## **1. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish konsepsiyasining maqsad va vazifalari.**

Mamlakatimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining birinchi bosqichi va ikkinchi bosqichlari yakunlanib uchinchi bosqichiga o'tildi. O'tgan vaqt mobaynida umumiy o'rta, o'rta-maxsus kasb-xunar va oliy ta'lim turlari uchun yangi davlat ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Ushbu me'yoriy-xuquqiy xujjatlar uzluksiz ta'lim tizimining barcha turlari uchun o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratishga asos bo'lib, o'quv jarayonini sifatli tashkil qilishga xizmat qiladi.

Milliy istiqlool g'oyasiga sodiq, etarli intellektual salohiyatga ega, ilmfanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayrlash masalasi ham o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishni talab qilmoqda. Ma'fkraviy hamda mazmun va mohiyati jihatidan eskirgan, to'liq an'anaviy (bosma) usulda nashr etilayotgan darsliklarning ma'lum qismi yangi ta'lim tizimining talab va ehtiyojlariga javob berolmay qoldi.

Ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan zamonaviy jamiyatda rivojlangan axborot kommunikasiya tizimlari vositasida turli fan sohalarida erishilgan yutuqlarning tez yangilanib borishini ta'lim oluvchilar oldiga yangi bilimlarni jadal egallash bilan bir qatorda, muntazam ravishda mustaqil bilim izlash vazifasini qo'ymoqda.

Hozirda, uzluksiz ta'lim tizimida barcha mavjud fanlar bo'yicha yoppasiga darsliklar tayyorlash usulidan voz kechib, ularni asosan fundamental fanlar bo'yicha yaratish maqsadga muvofiqdir. Bu esa o'z navbatida mamlakat miqyosida darsliklarning rasional hajmi va adadlarini belgilash, shuningdek, o'quv adabiyotlariga sarflanadigan modldiy va moliyaviy xarajatlarni tejashga imkon beradi.

O'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish, avvalambor, ularni tayyorlash borasidagi ilmiy-uslubiy, tashkiliy va moliyaviy masalalarni hal qilish, uzluksiz ta'lim tizimida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi maqsadlariga erishishni ta'minlashga qaratilgan choralarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Konsepsiyaning maqsadi uzluksiz ta'lim tizimining barcha ta'lim turlari uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish tamoyillari va ularni tayyorlash mexanizmlarini belgilashdan iboratdir.

Ushbu konsepsiyaning vazifalariga o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish uchun ilmiy-g'oyaviy, uslubiy-didaktik, psixologik-pedagogik, sanitariya-gigienik talablarni ishlab chiqish, o'quv adabiyotlardan to'g'ri va rasional foydalanish maqsadida ularning mavjud shakllari va turlariga aniq ta'riflar berish hamda mamlakatimiz miqyosida zamonaviy o'quv adabiyotlarini tayyorlash bo'yicha dasturlarni amalga oishirish uchun strategik masalalar ko'lamini aniqlash kiradi.

## **2. O'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish tamoyillari.**

Kadrlar tayyorlash milliy modeliga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimida o'quv adabiyotlari ta'lim turlari bo'yicha tasdiqlangan davlat (yoki davlat talablari) asosida va ularda o'qitiladigan fanlar majmuasiga mos ravishda o'quv dasturlarining uzviyligini hisobga olgan holda tayyorlanadi.

Har bir ta'lim turi uchun yaratilayotgan o'quv adabiyotlariga qo'yiladigan psixologik-pedagogik, uslubiy-didaktik, sanitariya-gigienik va boshqa talablar alohida belgilanadi.

Ta'lim tizimining barcha turlari uchun o'quv adabiyotlari an'anaviy bosma kitob shaklidan tashqari elektron versiya shaklida ham tayyorlanishi mumkin. Ta'lim tizimining umumiy o'rta ta'limdan yuqori turlarida o'qitiladigan fundamental fanlar uchun an'anaviy bosma darsliklar, ulardan tashqari, tez o'zgaruvchan amaliy fanlardan kam adadli darsliklar faqat elektron versiya shaklida tayyorlanishi mumkin.

Muttasil ravishda mazmuni o'zgaruvchan fanlar bo'yicha odatda o'quv qo'llanmalar, ma'ruzalar kursi, ma'ruzalar matni, turli ma'lumotnomalar, lug'atlar va ma'lumotlar, lug'atlar va ma'lumotlar banki, shu jumladan dayjest, sharxlar tayyorlanadi. Ushbu turdagi o'quv adabiyotlari asosan elektron versiya shaklida hamda qog'ozda bosilgan kam adadli matnlar tarzida yaratiladi.

O'quv adabiyotlarining mazmuni o'quvchi va talabalarda, avvalambor, mustaqil va erkin fikrlash, mustaqil ta'lim olish uchun zarur bilimlarni turli adabiyotlardan izlab topish va bilimlar zahirasini bosqichma-bosqich mukammallashtirib borish ko'nikmalarini hosil qilishga qaratiladi.

### **3. O'quv adabiyotlarining shakllari va turlari.**

O'quv adabiyotlarining shakllari.

An'anaviy (bosma) o'quv adabiyotlar – ta'lim oluvchilarning yoshi va psixo-fiziologik xususiyatlari, ma'lumotlar xajmi, shriftlari, qog'oz sifati, muqova turi va boshqa ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda qog'ozda bosiladigan o'quv adabiyotlar.

Elektron o'quv adabiyotlar – zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalarning ma'lumotni jamlash, tasvirlash, saqlash va taqdim etish imkoniyatlari asosida yaratiladigan o'quv adabiyotlar.

O'quv adabiyotlarining turlari. Uzluksiz ta'lim tizimi o'quv-tarbiyaviy jarayonida o'quv adabiyotlarning quyidagi turlari qo'llaniladi: darslik, o'quv qo'llanma, lug'at, izohli lug'at, ma'lumotlar to'plami, ma'ruzalar kursi, ma'ruzalar matni, metodik ko'rsatmalar, ma'lumotlar banki, dayjest, sharh va boshqalar.

Darslik – davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqlool g'oyalari singdirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fanning asoslarini mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan davlat nashri.

Har bir ta'lim turining maqsad va vazifalarini qamrab olgan, bilim oluvchilarning yoshi va xususiyatlarini hisobga olgan o'z darsliklari bo'ladi. Odatda, darslik o'quv fanining nomi bilan yuritiladi. Darslikda nazariy

ma'lumotlardan tashqari, amaliy-tajriba va sinov mashqlari bo'yicha zarur ko'rsatmalar beriladi.

O'quv qo'llanma – darslikni qisman to'ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo'yicha tuzilgan va fan asoslarining chuqur o'zlashtirilishini ta'minlovchi, ayrim bob va bo'limlarni keng tarzda yoritishga yoki amaliy mashq va mashg'ulotlar echimiga mo'ljallangan davlat nashridir.

O'quv qo'llanmada muayyan mavzular darslikka nisbatan kengroq yoritiladi. Masalan, “Mexanika” – fizika fanining mexanika qismiga bag'ishlangan o'quv qo'llanma. “Fizikadan masalalar to'plami” – fizika fani bo'yicha masala va mashqlar echishga mo'ljallangan o'quv qo'llanma va hokazo.

Lug'at – aniq bir tartibda joylashgan so'zlar (yoki so'z birikmasi, idiomalar va okazo) to'plami, ularning mazmuni. Ishlatilishi, kelib chiqishi, boshqa tildagi tarjimai haqida ma'lumot beruvchi yoki so'zning tushunchasi, u bilan belgilanuvchi predmetlar xiqida axborot beruvchi davlat nashridir.

Izohli lug'at – so'zlarning mazmunini izoxlaydigan, har bir so'zning grammatik, etimologik va stilistik tavsifi berilgan, ularni qo'llashga oid misollar va boshqa ma'lumotlar keltirilgan, qo'shimcha adabiyot sifatida foydalaniladigan davlat nashri.

Ma'lumotlar to'plami – foydalanishga qulay shaklda yaratilgan, muayyan fanni yoki ta'lim yo'nalishini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan, isbot talab qilmaydigan ma'lumotlar, ilmiy ko'rsatkich va o'lchamlar, turli belgi va raqamlardan, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, amaliy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalaridagi qisqa ma'lumotlardan tashkil topgan davlat nashridir.

Ma'lumotlar to'plamida bir qator muhim ilmiy-amaliy masalalarni echish namunalari keltirilishi mumkin.

Ma'ruzalar kursi – fanning o'quv dasturi bo'yicha undagi barcha mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar ko'rsatilgan, o'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan kichik adadli davlat nashridir.

Ma'ruzalar kursining kursining nomi tegishli fan nomi bilan ataladi.

Ma'ruzalar matni – muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha undagi ayrim mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar ko'rsatilgan, o'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan, davriy ravishda ilmiy-tadqiqot, izlanishlar asosida yangilanib turiladigan, ta'lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi bo'yicha chiqariladigan kichik adadli tarqatma material.

Metodik (uslubiy) ko'rsatma – muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha kurs ishlari (loyihalari), laboratoriya va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq va batafsil ifodlangan hamda ushbu fan bo'yicha talabalarda zarur amaliy ko'nikmalar hosil qilishga mo'ljallangan, ta'lim muassasalarining ilmiy

(pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik adadli tarqatma material.

Metodik qo'llanma – o'qituvchilar (professor-o'qituvchilar) uchun mo'ljallangan bo'lib, unda bir darsning maqsadi, dars o'tish vositalari va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida tavsiyalar bayon qilinadi.

Sharh – jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadigan me'yoriy-xuquqiy xujjatlarni, shuningdek, baxsga loyiq asarlarni, g'oyalarni, fikrlarni va ta'riflarni izohlovchi muayyan masalalar echimini ko'rsatuvchi, keng ommaga mo'ljallangan qo'shimcha adabiyot sifatida foydalaniladigan davlat nashri.

Dayjest – davriy adabiyotlar (qonunlar, qarorlar) mazmunining qisqacha bayoni va sharhi keltirilgan, ma'lumotlar to'plami sifatida foydalaniladigan doimiy davlat nashri.

Elektron darslik – kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallari, ilmiy ma'lumotlarning har tamonlama samarador o'zlashtirilishiga mo'ljallangan bo'lib:

O'quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklda;

O'quv materiallari faqat verbal va ikki o'lchamli grafik shaklda;

Multimedia (ko'p axborotli) qo'llanmalar, ya'ni ma'lumot uch o'lchamli grafik ko'rinishida, ovozli, video, animasiya va disman verbal shaklda;

Taktil (his qilinuvchi, seziladigan) xususiyatli, o'quvchini ekran olamida stereo nusxasi tasvirlangan real olamga kirishi va undagi ob'ektlarga nisbatan xarakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi.

Ma'lumotlar banki – axborot texnologiyalarining imkoniyati va vositalari asosida yaratilgan, statik va dinamik rejimda tuzilgan, tovush va rangli tasvirlar bilan ta'minlangan, katta xajmdagi axborotlarni o'z ichiga qamrab olgan va ularni turli ko'riishda (jadval, diagramma, gistogramma, matn, rasm va hlkazo) bera oladigan, o'quv jarayonida bilim oluvchilar tomonidan o'z ustida mustaqil ishlashi va o'z bilimlarini nazorat qilishi uchun qo'llaniladigan, doimiy ravishda to'ldirib boriladigan, keng doirada foydalanishga mo'ljallangan, tegishli vakolatli davlat tashkilotida qayd qilingan sohalar bo'yicha ma'lumotlar to'plami.

## **2.12. Bilimlar, ko'nikmalar va malakalarning o'zlashtirilishini nazorat qilish**

### **1. O'quv materialini o'zlashtirilishini nazorat qilishning maqsadlari.**

O'quvchilarning bilim va malakalarini nazorat qilish - o'quv jarayonining zaruriy elementlaridan biridir. Uning to'g'ri tashkil qilinishi ko'p hollarda o'quv tarbiyaviy jarayonni boshqarish samaradorligi va mutaxassisni tayyorlash sifati bilan bog'liq.

#### **Nazoratning asosiy funksiyalari:**

- tekshiruvchi – nazorat ko'rsatkichlari ta'lim natijalari haqida muhokama qilish uchun, ya'ni keyingi kursga ko'chirish, diplom berish kabi masalalarni echishda bosh asos bo'lib xizmat qiladi;
- ta'lim beruvchi-nazorat topshiriqlarini bajarish jarayonida oldin egallangan bilimlarni aniqlash va to'ldirish yo'li bilan taqomillashtirish, takrorlash va mustahkamlashga yordam beradi, o'quvchi qayta fikrlaydi va o'tilgan materialni umumlashtiradi, bilimni amaliy faoliyatda qo'llaydi;
- rivoj topuvchi – har bir tekshirishdan o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlarini qayta tiklashlari, mavjud bilimlarni qayta ishlashlari va sistemaga kiritishlari, xulosa qilishlari, umumlashtirishlari hamda ta'limni rivojlantirishga samarali ta'sir qilishi haqida isbot keltirishlari lozim;
- tarbiyaviy – nazorat o'quvchini tartibga soladi, unda o'zining shunga javobgarlik hissini tarbiyalaydi, sistematik o'quv mehnatiga o'rgatadi, doimiy faol o'quv faoliyatini shakllantiradi, o'z bilim va malakasini takomillashtirishga ruhlantiradi, o'zini baholashga ob'ektiv qarashni, o'zini nazorat qilishga bo'lgan ehtiyojini rivojlantirishga o'rgatadi;
- uslubiy – nazorat o'qitish usulini baholash, uning kuchli va kuchsiz tomonlarini ilg'ash, ta'lim faoliyatining optimal variantini tanlash imkonini beradi.

#### **Nazoratga bo'lgan talablar**

Nazorat quyidagicha bo'lishi lozim:

- rejali va sistematik, ya'ni nazorat rejalashtirilgan o'quv-tarbiyaviy jarayonga mos amalga oshirilishi, uning organik qismini tuzish va ta'lim dasturining asosiy masalalariga tayangan bo'lishi lozim;
- ob'ektiv, o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi muvaffaqiyat va kamchiliklarni real va qiyosiy baholash imkonini beruvchi, o'quvchilarning etarlicha o'zlashtirmaganligiga asoslangan, sub'ektiv baholash muhokamasidan mustasno ravishda bilim va malakalarni egallash darajasini to'g'ri qo'yishi;
- har tomonlama, ya'ni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan ma'lumotlarning haqiqiy darajasini to'liq namoyon qilish, dasturning barcha bo'limlarini qamrab olish, nafaqat predmetga tegishli bilimlarini tekshirishni, balki

dunyoqarash bo'yicha g'oyalarni, umumta'lim va maxsus bilimlarni egallashni ta'minlash;

- individual - nazorat vaqtida o'quvchilarning tabiiy sekin ishlashi, uyatchanligi, ortiqcha o'ziga ishonish, jismoniy kamchiliklar kabi individual sifatlari e'tiborga olinishi;
- tejamkor, ya'ni o'qituvchi va o'quvchining vaqtini sarflash bo'yicha tejamli bo'lishi, tekshirilgan ishlarni va nisbatan qisqa muddatda holatiy baholarini tahlil qilishni ta'minlovchi bo'lishi;
- pedagogik xushmuomalik, barcha tanbeh, ko'rsatma va baholashni xushmuomala va do'stona shaklda qilish lozim.

## **2. O'rganilgan materialni o'zlashtirilish darajasini nazorat qilish. Reyting nazoratini tashkil qilish.**

Ta'lim jarayoni doimo nazorat bilan kuzatib boriladi. Bilimni tekshirish o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimning mavjudligini va sifatini aniqlaydi, bilimdagi muammolarni aniqlaydi va ularning o'z vaqtida bartaraf qilishga imkon beradi. Agar o'quvchilar bilimining sifatini nazorat qilish uni o'zlashtirilganligini yoki zaif o'zlashtirilganligini ko'rsatsa, o'qituvchi o'z ishini tahlil qilib ko'rish lozim: o'quv materiallarining to'g'ri tanlanganligini, o'quv jarayonini tashkil qilish shakli va usullarini, tayyorgarlik darajasini, o'quvchilarning imkoniyat darajasini va b.

Reyting (inglizchada rating) – tasnifiy ro'yxatda (reyting-varaq) shaxmatning sportdagi yutug'ini baholovchi individual raqamli ko'rsatkich.

O'quv jarayonida nazoratning asosan quyidagi turlari qo'llaniladi: dastlabki, joriy, oraliq va yakuniy.

Dastlabki nazorat talabalar bilimini, ya'ni mavzu va fanni o'tishdan oldin nazorat qilishga asoslangan. Bu talabalarga yangi mavzuni bayon etishda qanday bilimga tayanishlari kerakligi va qanday bilimlarni qayta tiklashlari lozimligini aniqlash uchun o'tkaziladi.

Joriy nazorat laboratoriya, amaliy va seminar mashg'ulotlari natijalari bo'yicha o'tkaziladi. Joriy nazorat talabalarning olgan bilimlarini amaliy topshiriqlarni va muammoviy holatlarini echish uchun qulay bo'lishini aniqlashga, mavzuni o'rganishda o'quvchilar duch kelayotgan qiyinchiliklarni aniqlab, yordamga muhtoj bo'lganlarga o'z vaqtida yordam berishga imkon yaratadi.

Oraliq nazorat o'qituvchiga o'quvchining yangi materialni qanchalik o'zlashtirganligini, bilimni qabul qilish va o'zlashtirishda qanday qiyinchiliklarga duch kelayotganliklarini hamda buning sabablari nimada ekanligini aniqlash imkonini beradi. Oraliq nazorat mazkur mavzuni davom ettirish mumkinligini yoki yangi qo'llanmadan foydalanib, qo'shimcha tushuntirishlar olib borish kerakligini aniqlab beradi.

Yakuniy nazorat o'quvchilar bilimlarni ma'lum bir mavzu, qism yoki fanni butunlay o'rganib chiqqandan keyin o'quv semestri yoki o'quv yili oxirida tekshirish imkonini beradi.

Bilimni nazorat qilish usullari turlichadir. Bu og'zaki so'rov, yozma va amaliy ishlar.

Og'zaki so'rov ham frontal, ham individual tavsifga ega. Frontal so'rovda savol butun auditoriyaga qo'yiladi. Shunday savollarni qo'yish kerakki, bu nafaqat talabadan o'z bilimlarini qayta tiklashni, balki bu bilimlar yangi holatda, amaliy xarakterli topshiriqlarni echishda fikrlashni va o'z harakatlarini tushuntira olishni talab qila olsun. Masalan: Kleykovina «kuchi» bo'yicha kuchsiz bo'lgan undan sifatli mahsulot olish uchun qanday choralar qo'llash lozim?

Bunday savollarni nafaqat bilim sifatini aniqlashga, balki katta korreksion ahamiyatga ham ega.

Individual so'rov ham frontal so'rov kabi nafaqat nazariy bilimlarni tekshirishni, balki ularni amalda qo'llashni ham o'zida mujassamlashtiradi. Individual so'rovda o'qituvchi aksariyat hollarda talabani doska oldiga chaqirib, barcha auditoriya e'tiborini uning javoblariga jalb etadi.

Individual so'rov o'qituvchiga talabani bilimni chuqurroq tekshirish imkonini beradi.

Nazoratning har qanday shaklida o'qituvchi o'quvchining muvaffaqiyatlarini rag'batlantirishi lozim.

Yozma nazorat aksariyat test bo'yicha mustaqil nazorat ishlarini tashkil etish yo'li orqali o'tkaziladi.

Talabalar bilimni tekshirishda testdan foydalanish juda qisqa vaqt mobaynida barcha talabalar tomonidan materialni o'zlashtirish darajasini hamda barcha talabalar uchun xarakterli bo'lgan xatolarni, alohida talabalarning shaxsiy qiyinchiliklarini aniqlash imkonini beradi. Bu mavzuni o'ylab topilgan sistemasi va nazorat ishlarini tashkil qilish sharoiti mavjud bo'lganda talabalar bilimni nazorat qilishning eng qulay va tezkor usuli hisoblanadi.

Nazorat ishlari o'qituvchi tomonidan zimdan tekshirilgan va tahlil qilingan bo'lishi lozim. Sifatli tahlil ma'lum materialni o'rganish uchun ishni to'g'ri tashkil qilish imkonini beradi.

Amaliy ish – nazoratning bunday shaklida o'quvchilarga topshiriq beriladi va bu topshiriqni bajarish uchun ma'lum mavzu ustida sinchkovlik bilan ishlash lozim.

Standartlashtirilgan nazorat – testlarni ishlab chiqish

Testlashning turli shakllari mavjud, biroq ko'pincha kuidagilar qo'llaniladi:

- Tavsiya etilgan bir necha savoldan yagona to'g'ri javobni tanlash.
- Taklif qilingan tasdiqning haqqoniyligini baholash (to'g'ri/noto'g'ri).

Testli nazorat auditoriya vaqtining sezgarsiz sarfida barcha o'quvchilarni tekshirish imkonini beradi. Bu nazoratning asosiy kamchiligi - qo'llashning kamchilligidir: uning yordamida o'quvchilarning faqatgina reproduktiv

faoliyatini tekshirish mumkin, shuning uchun uni joriy nazorat jarayonida qo'llash ancha qulay.

#### Nazorat shakllari

- Nazorat ishlari o'rganilayotgan mavzu tugagandan keyin yoki Maxsusni egallash uchun zarur va o'quvchilarning tushunishi uchun ancha murakkab bo'lgan hamda boshqa fanlarni o'rganish uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan tutashgan savollar tugagandan keyin o'tkaziladi.
- Sinov nazoratning yakuniy shakli bo'lib, asosan, ishlab chiqarish amaliyoti davrida qo'llaniladi.
- Malakaviy sinov-ishchi kasbini egallash uchun o'quv amaliyoti tugagandan keyin o'tkaziladi.
- Kurs loyihasi va bitiruv malakaviy ishini bajarish – ta'lim funksiyasi bilan bir qatorda o'quv jarayonida nazorat funksiyasini ham bajaradi va o'quvchilarda egallagan nazariy bilimlarini hamda amaliy ko'nikma va malakani tekshirishning zaruriy shakli hisoblanadi.
- Semestrda va ko'chish imtihonlari uni o'tkazish natijasida o'quvchilar bilim faoliyatining natijalari yakuniy tekshiriladi, bilim va ko'nikmaning shakllanish darajasi namoyon bo'ladi.
- Davlat imtihonlari – nazoratning yakunlovchi shakli bo'lib, bu bo'lajak mutaxassisning ishga tayyorligini kompleks tekshirishga, kasbiy faoliyatining tavsifiga mos keluvchi bilim, ko'nikma va malakani egallaganlik darajasini aniqlashga karatilgan.

### **3. Nazorat natijalarini tekshirish va o'quv faoliyatini optimallashtirish**

O'quvchining butun ta'limga nisbatan oldingi natijalarini taqqoslash bo'yicha o'quv faoliyatining sifatiy va miqdoriy tavsifining yaxshilanishi, ya'ni ma'lum davrda ta'lim samaradorligini tavsiflovchi bilim, malaka va ko'nikma sifatining va miqdorining o'sishi. Bu ko'rsatkich testlash va boshqa usullar yordamida aniqlanadi. Shuningdek, talaba tomonidan o'zlashtiriladigan o'quv predmetining kamchilik va afzalliklarini aniq tahlil qilish lozim.

Ma'lum usul va vositalar natijasida ta'limning aniq maqsadiga erishish uchun ketadigan vaqtni qisqartirish. Bu talabaga ko'proq mustaqil ishlashga, o'zining bo'lajak mutaxassisligidagi muammolar bilan chuqurroq tanishishga imkon beradi.

O'zlashtirishning mustahkamligi hamda o'quvchilar bilimini malaka va ko'nikmalarining «davomiyligi». Bu ko'rsatkich o'quvchini ta'limning oraliq emas, balki oxirgi natijalariga yo'naltiradi, bu esa talabaning keyingi o'qishi va uning professional faoliyati uchun zarur. Bu ko'rsatkich maxsus eksperimental prosedura yordamida o'lchanadi. Bu erda o'zlashtirish aniq va latent mustahkamlikka ajratiladi. Aniq mustahkamlik darhol yakuniy nazoratdan keyin va 1-2 yil ta'limni o'tkazib testlash usuli yordamida baholanadi va foizlarda

ifodalanadi. Latent mustahkamlik tabiiy eksperiment yo'li bilan baholanadi: talabalarga unutilganlarni qayta tiklash uchun berilgan predmetni takroran o'zlashtirish tavsiya etiladi. Tiklashga vaqt qancha kam ketsa, latent mustahkamlik shunchalik katta va boshlang'ich ta'lim samaradorligi yuqori bo'ladi. Bunday tahlil fanlararo aloqa muammolarini yangi sifatli, yanada baland darajaga o'tkazadi.

Talabaning o'quv faoliyatida o'quv materialini tashkil qilishni yaxshilash, unga erishishni oshirish, o'qitish motivasiyasini kuchaytirish, talabaning bilish faoliyatida adekvat odatlarga o'rgatishni ishlab chiqish, topshiriqning talabalar imkoniyatiga mosligi, didaktik tamoyillarga rioya qilish yo'li orqali (ikkinchi kabi) o'quv faoliyatidagi kutiladigan natijalarga qanday erishili degan savolga javob beradi. Bu ko'rsatkich o'quv harakatining ma'lum turlarini bajarishda uning qiyin-engilligini maxsus baholovchi blanka yordamida o'lchanadi.

Talabaning o'qitishdan qoniqishi. Ma'lumki, bu o'quv faoliyati jarayonini mustahkamlovchi asosiy emosional omil bo'lib va u juda kerakli rag'batlantiruvchi emosional fon hisoblanadi. Talabaning o'qitishdan qoniqishi natijasida unda mustaqil o'quv ishlari uchun qurilma yaratiladi, bilish va takomillashuv motivasiyasi oshadi, bu esa o'quv muassasasini tugatishi bilan uni berishga intilishida namoyon bo'ladi. O'qitishdan qoniqish hosil bo'lmasa, salbiy kechinmalar o'quvning qiyinligini oshiruvchi va bo'lajak mutaxassisning ijodiy salohiyatini tushiruvchi emosional to'siq yuzaga keltiradi. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun maxsus savolnoma qo'llaniladi, bu talabaning qoniqish darajasini shkalalashga va miqdoriy (ballarda) ifodalashga imkon beradi.

O'quvchining o'qitishga, o'qituvchiga, mashg'ulotning aniq turiga munosabati.

Mohiyat bo'yicha bu ko'rsatkich – o'quv faoliyatining ko'p qirralarini integral ifodalaydi. U turli xil savolnomalar yordamida o'lchanadi.

O'quv faoliyati samaradorligi konsepsiyasi foiziy – vosvoslik bilan muvaffaqiyatli ko'rsatishga, o'quv jarayonini boshqarishni yanada ixcham qilishga, o'qituvchining, kafedra va fakultetning ishini ob'ektiv va yaqqol baholashga imkon beradi.

O'quvchida bilim, malaka va ko'nikma sifatini nazorat qilish o'quv – tarbiyaviy jarayonni optimizasiyalashga imkon beradi.

O'quv jarayonini optimizasiyalash – bu uni qurishda, shakl, usul va ta'lim vositalarini tanlashda ilmiy asoslangan optimal variantni tanlash.

Ta'lim jarayonidagi optimal variantni tanlash o'qituvchi faoliyatidagi quyidagi bosqichlarni ko'zda tutadi:

- a) o'qitish, takrorlash va rivojlantirish vazifasi, (o'quv mashg'ulotining maqsadi)ni aniqlash;
- b) qo'yilgan maqsadni e'tiborga olgan holda ta'lim mazmunini tanlash va aniqlashtirish;
- c) maqsadga mos shakl, usul va o'qitish vositasini tanlash;

d) loyihalangan o'quv jarayonga o'quvchilar tarkibi xususiyatini, o'quv-ta'minot bazasi va boshqalarni - e'tiborga olgan holda oydinlashtirish kiritish;

e) o'quv mashg'ulot rejasini rasmiylashtirish.

O'quv jarayonini optimallashtirish uni loyihalash bosqichida amalga oshiriladi.

O'quv mashg'ulotini loyihalash bosqichlarini ko'rib chiqamiz.

### 1 bosqich. O'quv mashg'ulotining maqsad va vazifalarini aniqlash

O'quv mashg'ulotida o'qituvchi ta'lim, tarbiya va rivojlanish masalalarini hal qiladi.

Natijada, go'yoki jamiyat tomonidan ilgari surilgan «mutaxassisni tayyorlashga ijtimoiy buyurtma» sifatidagi maqsadning transformasiyasi boradi, o'ziga quyidagilarni: didaktik maqsadi (ta'lim beruvchi) – o'quvchilarning kasb faoliyati uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollanishni; rivojlanish maqsadi - ijodiy tafakkurning bilish ehtiyoji va qobiliyatining rivojlanishi, mustaqil aqliy mehnatga malaka va ko'nikmaning shakllanishi; tarbiya maqsadi - shaxsning fuqarolik sifatini, kasbga bo'lgan muhabbati va qiziqishini, ijodiy faolligini va boshqalarni tarbiyalashni biriktiradi.

O'qituvchining o'quv mashg'ulotining maqsadi va vazifalarini aniqlashdagi tez-tez uchraydigan xatosi quyidagilar hisoblanadi:

faqat yangi o'quv materialini o'rganishga bo'lgan munosabat bo'yicha maqsad va vazifani aniqlashtiradi, xuddi shu vaqtda esa masalan, murakkab dars o'ziga bir qancha qismlarni, ya'ni bilim va malakani, mustaqil ish va boshqalarni tekshirishni biriktiradi.

faqat o'qituvchiga tegishli maqsadni aniqlash («o'quvchilarga bilim berish», «...ma'lum qilish», «... gapirib berish»), bunda o'qituvchi oldida nafaqat o'quv informasiyani ma'lum qilish, balki turli usullarni qo'llagan holda o'quvchilarni bilimni o'zlashtirishga tayyorlash vazifasi ham turadi;

vazifani rasmiy rejalashtirish.

Shunday qilib, shuni e'tiborga olish lozimki, ijodiy tafakkurning rivojlanishi ta'limning mos usulini qo'llash yo'li bilan amalga oshiriladi, avvalo muammoli-izlanishli; bilishga bo'lgan qiziqish va qobiliyatni rivojlantirish masalalari o'quvchilarda mustaqil bilim egallashga va fikr yuritishga hamda uni amaliyotda qo'llashga ilhomlantiruvchi ta'limning faol usullari asosida amalga oshiriladi; mustaqil aqliy mehnatda malaka va ko'nikmani shakllantirish vazifasi – o'quv mashg'ulotida yoki uyga berilgan topshiriqni bajarishda turli xil mustaqil ishlarni tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

### 2 bosqich. O'quv materialini tanlash, aniqlashtirish va tashkil qilish

Mavzuni tanlash bosqichida o'qituvchi quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- eng asosiysi o'quvchiga o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan eng muhimini tanlash;

- materialni shunday qurish kerakki, diqqat markazida uning asosiysi, ya'ni muhim elementlari joylashsin;
- materialni o'quvchilarga tushunarli va ommabop shaklda taqdim etish;
- dars o'tiladigan o'quvchilarning tajribasini e'tiborga olgan holda materialni oydinlashtirish;
- zaruriyat tugilganda o'quv materialiga qo'shimcha kiritish.

Vazifaning mazmunini va o'quv informasiyasini tanlash o'quv jarayonini optimizasiyalashning eng zaruriy holati hisoblanadi. O'quv materialini malakali tanlash nafaqat didaktik vazifalarni samarali echishning garovi bo'lib xizmat qiladi, balki o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi rivojlanishi va tarbiyasini ham ta'minlaydi.

### 3-bosqich. Ta'lim shakli, usuli va vositalarini tanlash

O'quv materialini mazmunini yaratish bilan bir vaqtda amalga oshirildi. O'quv jarayonini tashkil qilish shaklini tanlash ularning xususiyatlari bilan etarlicha qattiq shartlangan.

Ma'ruza - bu o'qituvchi tomonidan o'quv materialini monologik bayon etilishi. Ma'ruza uchun, odatda, fanning asosiy nazariy holatlarini, qonuniyatlarini, tamoyillari va tasnifini ochib beruvchi material tanlanadi, bu esa haqiqiy ma'lumotlarni, amaliy tavsiyalarni va xulosalarni o'rganish uchun asos hisoblanadi.

Seminar - bu o'quvchilarning mustaqil ishlari: ilk manbalarni, qo'shimcha adabiyotlarni o'rganish, ilgari tajribalar haqida muhokama qilish. Seminar adabiyotlar bilan mustaqil ishlash zaruriyati bo'lgan materialni o'rganish uchun qo'llanilishi mumkin.

Ekskursiya esa qachonki holatni, jarayonlarni ko'rsatish zaruriyati va imkoniyati bo'lganda, o'quv vaqti to'laligicha yangi o'quv materialini bayon qilishga sarflanganda va uni ob'ektni namoyish qilish bilan tasdiqlash lozim bo'lganda qo'llanilishi mumkin.

O'quv va tarbiyaviy vazifalarni samarali echish uchun o'qitishning uslub va usullarini maqsadga muvofiq tanlash katta ahamiyatga ega. Shunday qilib, mustaqil aqliy mehnatda malaka va ko'nikmani shakllantirish lozimligini boshqargan holda, o'qituvchi ma'lum savolni o'rganish uchun kitob bilan mustaqil ishlash usulini tanlaydi, biroq bunda u material o'quvchilarga o'qituvchining izohsiz qanchalik hammabop ekanligini e'tiborga oladi.

O'qituvchi muammoli o'qish usulidan (evristik suhbat, o'quv diskussiyasi) foydalanishni rejalashtirgan holda, muammoli holatni yaratish uchun o'quv materialining mazmunini va imkoniyatlarini tahlil qiladi, o'quvchilarning anik muammoli vazifani echish qobiliyatlarini baholaydi, qancha vaqt sarflashlari mumkinligini, vaqt etishmaganligi tufayli o'quv mashg'ulotida berilmagan ma'lumotlarni mustaqil o'zlashtirish uchun o'quvchilarning qobiliyatini e'tiborga oladi.

Xuddi shunday o'qitish vositasi tanlanadi. Ta'kidlash lozimki, o'quv vositasining mavjudligi ta'lim uslubiga muhim ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgani kabi, hatto uning mazmuniga ham ta'sir qilishi mumkin.

Masalan, personal kompyuter va dasturlarning mavjudligi kasbiy topshiriqlarni odatdagi ta'lim amaliyotiga nisbatan sifatli qilib echish imkonini beradi.

O'qituvchining o'qitish vositasini tanlashdagi xatolaridan biri – mavjud qo'llanmalarning: slayd va kinofilmlar namoyishi, jadvallarni ko'rsatish, ob'ektning o'zini yoki uni modelini ko'rsatish kabilarning barchasidan darhol foydalanishga intilish.

Materialni tushuntirganda diafilm va slaydlardan foydalanish, mustahkamlashda – jadvallardan, bilimni tekshirishda – matnsiz o'quv-ko'rgazmali qo'llanmadan, modeldan, haqqoniy ob'ektdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

#### 4-bosqich. O'quvchilar tarkibining xususiyatlarini e'tiborga olish

Uslub va o'qitish vositalarini tanlashda o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlarining shakllanish darajasi e'tiborga olinadi: agar qiziqish bo'lmasa, ko'p vaqt va vositalar ta'lim motivasiyasiga, sezgiga ta'sir qilishga, ilgari surilgan holatni asoslashga ajratiladi; agar o'quvchi kasbni o'rganishga katta qiziqish bildirsa, ko'p e'tibor mazmunni chuqurroq o'rganishga qaratiladi, diskussiya uslubi, tadqiqot uslubi keng qo'llaniladi. O'qitish shunday murakkab darajada amalga oshirilishi kerakki, bunda o'quvchilarga bilim va malakani egallash uchun kuch sarflashga to'g'ri kelsin.

O'quv jarayonini optimizasiyalashning tugallovchi bosqichi o'quv mashg'ulotining rejasini rasmiylashtirish hisoblanadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

### **3.1. Asosiy adabiyotlar**

1. Tojiboyeva D., Yo'ldoshev A. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Darslik. Toshkent "Aloqachi" 2009 y.
2. Xodjaboyev A., Husanov I. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent "Fan va texnologiya" 2007 y.
3. Atamurodova T., Ergasheva X. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Toshkent 2008 y.
4. Xo'jayev N., Shomurotova N. Maxsus fanlarni o'qitish uslubiyoti. O'quv qo'llanma toshkent 2012 y.
5. Fayzullayeva D. Maxsus fanlarni o'qitish uslubiyoti. O'quv-uslubiy majmua. Toshkent 2012 y.

### **3.2. Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat. 2008 y.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq. 1998 y.
3. Olimov Q.T., Abduquddusov O.A., Uzoqova L.P., Axmedjanov M.M., Jalolova D.F. Kasb ta'limi uslubiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya. 2006 y.
4. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – T.: Fan. 2004 y. -127 b.
5. Xodjabayev A.R., Ikromov F.I. Akademik lisey va kasb-hunar kollejlari rahbarlarining bozor iqtisodiyoti sharoitida rahbarlik mahoratini shakllantirish. – T.: 2004 y. – 174 b.
6. [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)
7. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
8. [www.inter-pedagogika.ru](http://www.inter-pedagogika.ru)

**ILOVALAR**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK – IQTISODIYOT INSTITUTI**

**“МУХАНДИС-ТЕХНИКА” fakulteti**

**“Kasb ta'limi” kafedrası**

**“MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI”  
fanidan**

**KURS ISHI**

Mavzu: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

Bajardi: \_\_\_\_\_  
(imzo) (f.i.sh)

Rahbar: \_\_\_\_\_  
(imzo) (ilmiy unvon f.i.sh)

**Qarshi – 20\_\_**

## QARSHI MUHANDISLIK - IQTISODIYOT INSTITUTI

\_\_\_\_\_ fakulteti  
\_\_\_\_\_ ta'li yo'nalishi

“TASDIQLAYMAN”

\_\_\_\_\_ kaf. mudiri

\_\_\_\_\_  
(imzo f.i.sh)  
“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_y

### ***KURS ISHINI BAJARISH UCHUN TOPSHIRIQ***

Talaba \_\_\_\_\_  
Kurs ishi  
mavzusi \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

Kurs ishini topshirish  
muddati \_\_\_\_\_  
Kurs ishi uchun  
ma'lumot \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

Kurs ishi rahbari \_\_\_\_\_  
Talaba \_\_\_\_\_

Topshiriq olgan kun \_\_\_\_\_

## MUNDARIJA

|                                                                        |    |
|------------------------------------------------------------------------|----|
| KIRISH.....                                                            | 3  |
| I. KURS ISHLARI VA ULARNI TAYYORLASH METODIKASI.....                   | 5  |
| 1.1. Kurs ishining maqsadi, vazifasi va fandagi o' rni.....            | 5  |
| 1.2. Talabaning tanlagan ishiga rahbarning biriktirishi masalasi.....  | 6  |
| 1.3. Kurs ishini bajarish tartibi.....                                 | 7  |
| 1.4. Kurs ishi mavzularining ro'yxati.....                             | 8  |
| 1.5. Kurs ishini rasmiylashtirish bo'yicha talabalar.....              | 9  |
| 1.6. Kurs ishini himoya qilish.....                                    | 9  |
| II. "MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI"                              |    |
| FANIDAN KURS ISHLARINI BAJARISHGA                                      |    |
| OID NAZARIY MA'LUMOTLAR.....                                           | 10 |
| 2.1. «Maxsus fanlarini o'qitish metodikasi» fanining                   |    |
| maqsad va vazifalari.....                                              | 10 |
| 2.2. O'zbekistonda kasb ta'limining istiqbollari.....                  | 12 |
| 2.3. Ta'lim jarayonining mazmuni. uni tashkil qilish.....              | 17 |
| 2.4. Maxsus fanlarni o'qitish metodlari.....                           | 20 |
| 2.5. Maxsus fanlarni o'qitish shakllari. Zamonaviy                     |    |
| dars va unga qo'yiladigan talablar.....                                | 23 |
| 2.6. Ma'ruza va uning turlari. Zamonaviy                               |    |
| ta'lim tizimida ma'ruzaning o'rni.....                                 | 38 |
| 2.7. Amaliy mashg'ulotlar va ularni tashkil qilish metodikasi.....     | 46 |
| 2.8. Fanning ishlab chiqarish bilan integrasiyalashuvi muammolari..... | 50 |
| 2.9. Kasb ta'limining zamonaviy tashkiliy shakllari                    |    |
| darsning tuzilishi. Dars turlari.....                                  | 51 |
| 2.10. Texnik vositalar va ko'rgazmali qo'llanmalardan                  |    |
| samarali foydalanishni tashkil qilish.....                             | 57 |
| 2.11. O'quv uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish.....      | 64 |
| 2.12. Bilimlar, ko'nikmalar va malakalarning                           |    |
| o'zlashtirilishini nazorat qilish.....                                 | 69 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....                                         | 77 |
| 3.1. Asosiy adabiyotlar.....                                           | 77 |
| 3.2. Qo'shimcha adabiyotlar.....                                       | 77 |
| Ilovalar.....                                                          | 78 |